

## Mantiqut-tayr (I- qism)

Farididdin Attor

### FARIDUDDIN ATTOR MA'NAVIY MEROSI



*Qaysi qush, Qofi fano anqosi ul  
Jumlai qushlar tili donosi ul.  
Kashfi asrori haqoyiqda farid,  
Nutqidin ahli haqiqat mustafid...*

Alisher Navoiy



Sho'rolar davrida muqaddas kitobimiz Qur'oni karimni o'zbekchaga tarjima qilib, nashr etishni, Rasululloh SAV hayotnomalarini, imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, imom al-Motirudiy meroslarini o'rganishga yo'l yo'q edi. Kim diniy qadriyatlarimiz jamlangan kitoblarni, hadisi shariflarni nashr etish tugul, o'qisa ham, jazoga tortilar edi.

Ming bor shukrki, Istiqlolga erishdik. Qur'oni karim, hadislar ma'naviy hayotimizda yana yuksak qadrini topdi, diniy-falsafiy xazinalarimizni o'rganishga keng yo'l ochildi. Abu Nasr Forobiyning «Madinat ul-fozila», imom al-Buxoriyning «Jomi' as-sahih», «Adab al-Mufrad», imom G'azzoliyning «Kimiyo saodat» (muktasari), Aziziddin Nasafiyning «Zubdat ul-haqoyiq», Fariduddin Attorning «Ilohiynoma», Jaloliddin Rumiyning «Fihi mo fih» («Ichindagi ichindadir»), «Masnaviyi ma'naviy», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvati sultoniy», Abul-Lays Samarqandiyning «Bo'ston ul-orifiy», «Tanbeh ul-g'ofiliy», So'fiy Olloyorning «Sabot ul-objiziy», at-Termiziyning «Sunani Termiziy», «Shamoyili Muhammadiya», Alixon To'ra Sog'uniyning «Tarixi Muhammadiy» kabi durdona asarlari Istiqlol yillarida xalqimizning ma'naviy mulkiga aylandi.

Jahondagi buyuk so'fiy faylasuflardan biri Fariduddin Attorni daho o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» asarida bunday ta'riflaydi: «Qushlar tilini tushunish olamda faqat bir zotga, Sulaymon payg'ambarga nasib etgan edi. So'ng uning vaziri Osaf tushundi-yu, ammo hech kimga tushuntirmadi. Shundan so'ng charx aylanib, ming yillar o'tib, olamga bir zot keldi. U qush tili (falsafiy ramzlar)ni tushuntirishda Sulaymon nabiyan ham, vaziri Osafdan ham o'zib ketdi. Qushlar tilni go'yo undan o'rgandilar. Haq taolo muning nutqini go'yo (bulbul) ayladi. Nukta deb anjom ila og'ozdin, oncha gavhar sochti ganji rozdin».

Navoiy aytadiki, bu ilohiy sirlarni forsiy tilni bilganlar tushundilar. Attor asaridagi ganjlarning sirlarini turkiy tilli xalqlar ham tushunsin deb, kamina bu xazinalarni turkiy

tilda kashf etishga kirishdim.

Barcha mumtoz ulamolar fikricha, Allohni tanimagan, Uning ma'rifatini bilmagan odam ilohiy olam sirlarini hech qachon tushunolmaydi. Agar odam Allohni-Haqni bilsa, o'zining ham naqadar aziz, sharafli zot ekanligini tushuna boshlaydi. Buni tushuna boshlagach esa odam o'zidagi yomon fe'l-atvor, tuban qiliqlar, baxillik, ichi qoralik, badnafalik, boshqa insonlarga jabr-zulm qilish, kibru havo, jahl-g'azab bilan kamtarin, sofdil odamlarning dilini og'ritish — inson ishi emasligini, odam tabiatiga nomunosib ekanligini tushuna boshlaydi.

Alisher Navoiy bolalik chog'larida maktabga qatnab yurganida hayotini barcha tengdoshlaridan boshqacha qilib, tubdan o'zgartirib yuborgan bir voqea sodir bo'ldi. Uning qo'liga Chingizxon davrida yashagan mo'g'ul kofirlari qo'lida shahid ketgan shayx Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush tili mantiqi») kitobi tushib qoldi. Turli nodir hikoyatlar va tamsillarga boy bu asar yosh Alisherning ruhiy olamini cheksiz darajada boyitib yubordi, uning dilini ilohii olam sirlariga oshno qildi.

Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonida o'ta kamtarin-lik bilan, o'zini tuproq bilan tenglab, ma'naviy ustoz Fariduddin Attorni ilohiy sirlarning kashfiyotchisi deb, ko'klarga ko'taradi: «Qushlar tiliga yo'l topganlardan biri Sulaymon payg'ambar edi. Keyin vaziri Osaf undan ta'lim olib, qushlar tilini o'rgandi, ammo bu tildan u hech kimni xabardor etmadi... Boshqa odamlar (shoirilar ham) qush tilini bilmaganlari uchun, uning fahmiga yetmae edilar. Tez aylanuvchi falak shitob bilan oradan necha ming yilni o'tkazib yubordi. Shundan so'ng chiqqan sayr etuvchi, chechan nutq aytuvchi va o'tkir aqlli, omadi yurishgan bir qush (Fariduddin Attorni aytmoqchi) maydonga chiqdi. Uni qush dema, balki, Fano Qofining anqosi de, barcha qushlar tilining donosi de! U, bu yo'lning boshlovchisi va avliyo qiblasi bo'lib, ko'ngli haq yo'lni ko'rsatish uchun jilolangandi. U, haqiqat sirlarini kashf etishda farid. yagona va tengi yo'qdir, nutqidan haqiqat ahli bahramand...» Navoiy jon quydirib aytishicha,

*Forsiy oyine ulus fahm etdilar,*

*Barcha maxfiy diqqatig'a yettilar.*

Ammo, «G'ayr xayli sodda atroki faqir» — soddadil turkiy xalqlar:

*Qoldilar mahrum bu iqboldin,*

*Qush lisoni birla qilu qoldin.*

Navoiy turkiy xalqlarni ham bu ma'naviy xazinalardan bahramand etish uchun bu asarni turkiy tilda qayta yozishga bel bog'ladi. Shoir aytishicha, Fariduddin Attor unga qushlar

tilidan saboq berdi, «irshod etdi». ul takallumda uni ustod etib yetishtirdi. Navoiy yana aytadiki, forsiyda bitilgan qushlar tilini o‘rganishda:

*Chunki topdim ul kalom ichra kamol,*

*Turk alfozi birla surdim maqol.*

Shoir «Lison ut-tayr» dostonida turkona nag‘malarni, nolau afg‘onlarini «shunday kuyladimki, xushnag‘ma qushga aylandim. ming dostoni bor bulbulga aylandim», deydi.

*Men-men ul bulbulki, ming afg‘on aro*

*Har figon lahnini bir doston aro...*

*Ushbu gulshan ichra soddim mastvor,*

*Nag‘maning ohangi andoq ustivor.*

Bunday yuksak maqomga yetishda shoir ma’naviy ustozining buyuk xizmatini aytadi:

*Shayx ruhidin yetishti bu madad,*

*Kim bu bulbul lahni bo‘ldi beadam...*

Muhammad Abu Bakr b. Ibrohim - Fariduddin Attor (1119—1193) — jahon she’riyati, falsafasi, tasavvuf olamining buyuk namoyandasi, eronlik shoir va mutafakkirdir. Tug‘ilgan va o‘lgan yillari Avfiyning «Lubob ul-albob», Qazviniyning «Tazkirat ul-avliyo», Davlatshoh Samarqan-diyning «Tazkirat ush-shuaro» asarlarida turlicha ko‘rsatilgan. Fariduddin Attorning o‘zi «Mazhar ul-ajoyib» asarida (xorazmlik buyuk avliyo) Najmiddin Kubroni ko‘rganligini yozadi. Najmiddin Kubro esa 1221 yili vafot etganki, bundan Attorning yuz yoshdan oshgani anglashiladi. Attor yana «Mazhar ul-ajoyib» asarini hijriy 584, milodiy 1188 yili ta’lif etgani (tuzgani)ni va o‘sha vaqtda yoshi yuzdan oshganini bitadi. Har holda Attor bu asarini qarilik chog‘larida yozgani shubhasiz. Shundan so‘ng u faqat yana bir buyuk asari - «Lison ul-g‘ayb» («G‘oyibot tili»)ni yozgani fanga ma’lum. Davlatshoh Samarqandiy hisobiga ko‘ra, Attor 114 yoshida vafot etgan. Qazviniy, Davlatshoh. Yoqut Hamaviy ma’lumotlariga ko‘ra, Fariduddin Attor Nishopur shahri chetidagi Tun qishlog‘ida dunyoga kelgan. Attor «Mazhar ul-ajoyib»da yozishicha, bolachik chog‘lari xastalanganida, hazrati Achi mozoriga kelib shifo topar edi.

Fariduddin Attor asarlarini mazmun va uslub jihatidan uch davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davrda u she’riyatning barcha san’atlarini yaxshi biluvchi ustoz hikoyachi san’atkor sifatida ko‘rinadi. Attor charjavali (hoshiyalovchi) hikoyatli masnaviylaridagi son-sanoqsiz jajji rivoyatlariga tasavvufiy ma’nolarni mahorat bilan singdira olgan buyuk mahorat egasidir. Ikkinchi davrda ijodiy reja va tartibga unchalik rioya qilmaydi.

Shoirning adabiy san'atlaridan biri shuki, ayni so'z bayt va misra boshida takrorlanib keladi (takrir, anafora) va biridan-biriga ko'chadi. Attorda bu san'at dunyo adabiyotida ko'rilmagan darajada tez-tez uchraydi. Ayni so'zlar sukunat bilmagan bir hayajon ila yuz martadan ziyod birin-ketin bayt boshida keladi. Shoir ba'zan panteistik (borliqni ilohiylashtirish) tuyg'ulari-la mast va ba'zan ilohiy kull (barcha olamlar) ila birlashmoq ishtiyoqida ko'rinadi. Shu davr izidan uchinchi davr- ixtiyor, ya'ni qarilik davri yetib keladi. Bu davrda shoirning hayajonlari shiddati so'nib, asarlarida ijodiy reja va tartib sokinligi ko'rinadi. Shu davrga oid ba'zi asarlarining markazida hamon hazrat Alining shaxsiyati ilohiylashgan tarzda ko'zga tashlanadi.

Fariduddin Attor asarlari yozilish tartibi (xronlogik) jihatidan, quyidagichadir:

1. «Haydarnoma» - bizgacha yetib kelmagan.
2. Devon.
3. «Javohirnoma».
4. «Sharh ul-qalb» (so'nggi ikki asarni shoirning o'zi yo'q qilgan)
5. «Xusravnoma».
6. «Asrornoma».
7. «Mantiq ut-tayr».
8. «Musibatnoma».
9. «Muxtornoma».
10. «Ilohiynoma».
11. «Bulbulnoma».
12. «Pand-noma».
13. «Tazkirat ul-avliyo».
14. «Me'rojnoma».
15. «Gum-gumnoma».
16. «Vuslatnoma».
17. «Ushturnoma».
18. «Javhar uz-zot».
19. «Halosnoma».
20. «Basarnoma».
21. «Mazhar ul-ajoyib».
22. «Lison ul-g'ayb» (Helmut Ritter. Islom qomusi. Attor).

Bulardan boshqa yana bir turkum asarlar borki, ular Attor kitoblarida ismlari tilga olinmagan. «Haft vodiy», «Hayyatnoma» («Tiriklik haqida»), «Vasiyatnoma», «Kanz ul-haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasi»), «Kanz ul-asror» («Sirlar xazinasi»), «Ixxvon us-safo» («Pok og'aynilar»), «Valadnoma» («Tug'ilish»), «Miftoh ul-futuh» («Kashfiyotlar kalidi») kabi asarlar Attorga nisbat beriladi.

«Xusravnoma» yoki «Gul va Xusrav» - masnaviy tarzida yozilgan majoziy ishq dostoni.

Mavzui milodiy ilk asrlardagi ellinistik (yunoniy) ruhdagi ro‘monga borib taqaladi. Asarda Rum qaysarining bir cho‘risidan bo‘lmish o‘g‘li Xusrav ila Xuziston podshohining qizi Gul orasidagi ishqiy mojarolar tasvirlangan.

«Devon» — g‘azallardan iborat va ularda masnaviydagi tasavvufiy g‘oyalari lirik tarzda ifoda etiladi.

«Muxtornoma» — ruboiylar majmuasi. Bizgacha yetib kelgan ruboiy to‘plamlarining eng qadimgisidir. Ismi noma‘lum tarjimon bu asarni sulton Salim II (1566 — 1574) uchun turkchaga tarjima qilgan.

«Asrornoma» — Attorning tasavvufiy ruhdagi masnaviy-laridan birinchisidir. 26 maqoladan iborat bu asarda tasavvufiy fikrlar kichik hikoyatlar vositasida izohlangan. Ahmadiy taxallusli bir zot bu asarni turkchaga o‘g‘irgan.

«Mantiq ut-tayr» — Attorning eng mashhur masnaviyi-dir. Asar bir hikoyat bilan hoshiyalanib, orada yana ko‘p kichik hikoyatlar keltirilgan. Hoshiya hikoyaning asli Muhammad yoxud Ahmad G‘azzoliyga nisbat beriladigan «Risola ut-tayr»ga borib taqaladi. Ibn Sinoning ham «Tayr qissasi» tasavvufiy asari bor. Bu risolada qushlar Anqoni podshoh etib saylash uchun uni izlab, uzoq orolga — jaziraga borishga ahd qilishadi. Yo‘lda ularning ko‘pi halokatga uchraydi. Yo‘lning oxiriga yetganlari - Anqoga: «Seni o‘zimizga podshoh saylash uchun keldik», deydilar. Anqo istig‘no ko‘rsatib, podshoh bo‘lmoq uchun ularga muhtoj emasligini aytadi va “Kelgan joylaringizga qayting”, deb buyuradi. Nihoyat ularning ahvoriga achinib, podshohlikni qabul qiladi.

Attor bu hikoyani ko‘pgina tafsilotlar bilan ziynatlagan. Turli-tuman qushlarning Hudhud bilan suhbatlarida Attor husni ta’lil san’atidan foydalanib, g‘oyat yangi bir tarzda tasavvufiy, hikmatli fikrlarni ifodalaydi. Bundan boshqa, Anqo ismi o‘rniga shoir Simurg‘ ismini qo‘yish bilan «tajnisi murakkab» san’atidan foydalanib, «man a’rifa nafsaxu faqad a’rifa rabbahu» so‘zining ma’nosini go‘zal bir tarzda anglatgan (Kim o‘zligini bilsa, Allohi taoloni ham biladi). Simurg‘ni izlab kelgan qushlardan 30 nafari omon qoladi va oxiri «Simurg‘» (30 qush) o‘zlari ekanini anglab yetadilar. Boshqacha aytganda, odamlarning umr bo‘yi izlagan orzusi ularning o‘z qalbidadir. Gulshanriy 717-hijriyda «Mantiq ut-tayr»ga bir nazira yozgan bo‘lib, undan bizgacha kattagina parcha yetib kelgan. (Qarang: F. Teshner. Das futuvvat kapitel in Gulshexris alt osmanissher Barbeytug fon Atgars Mantiqut-tayr. (Olmoncha.) Turk adabiyoti namunalari. Istanbul, 1926).

«Musibatnoma» — bu masnaviyda shoir Allohni Koinotdan izlab, oxiri o‘z qalbidan topgani borasidagi tasavvufiy g‘oyani boshqacha bir tarzda ifodalagan. Bir solik (tariqat,

suluk a'zosi) pirining amri bilan ruhan (shuuriy) ko'klarga sayohat qilib, Isrofil, Mekoil, Azroil va boshqa farishtalar hamrohligida Arsh, Kursi, Lavh, Qalam, Jannat, Jahannam, Ko'k, Quyosh, Oy, Anosiri-arbaa (To'rt unsur), Tog', Dengiz, Ma'dan, Nabotot, Hayvonot, Qushlar, Iblis, Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Dovud, Iso, Muhammad, His, Xayol, Aql, Qalb va Jon bilan uchrashib suhbatlashadi. Ular birin-ketin husni ta'lil ruhidagi javoblari bilan yo'lcining umidini yo'qqa chiqaradilar. Nihoyat, u izlaganini o'z qalbidan topadi.

Bu asar Pur Muhammad tarafidan «Tariqatnoma» atalib, sulton Murod II topshirig'i bilan turkiy tilga tarjima qilingan.

«Ilohiynoma» — bu ma'naviy doston ham bir qamrovli hikoya va bir qancha kichik hikoyatlardan tashkil topgan. Qamrovli hikoyaning mazmuniga ko'ra, bir podshoh olti o'g'lidan: «Dunyoda eng sevgan narsalaringiz nima ekanini ayting», deb so'raydi. Birinchi o'g'il parilar podshohining qizini sevishini, ikkinchisi sehrgarlikni yoqtirishini, uchinchi - Jomi Jamni (Jamshid qadahini), to'rtinchisi - obihayotni, beshinchisi — Sulaymonning uzugini, oltinchisi – al-kimyoni orzu qilishini aytadilar. Podshoh farzandlariga bu dunyo havaslaridan yuksakroq orzular borligini tushuntiradi. Asosiy hikoya to'qimasiga singdirilgan kichik hikoyatlarda Attor zuxdiy va tasavvufiy mavzulardan bahs etadi.

«Bulbulnoma» — kichik bir masnaviy bo'lib, unda qushlar Sulaymon payg'ambarning huzurida: «Gulga e'timod qo'ygan Bulbul saharlari gul uchun sharqiylar tarannum etib, bizning rohatimizni buzyapti», deb shikoyat qiladilar. Sulaymon payg'ambar tabiatni ko'ndirib, Bulbulni chaqiradi va u ham payg'ambar huzurida shikoyatchilardan o'zini muhofaza etadi. Hazrati Sulaymon nihoyat Bulbulni rohatdan kechib, dard chekishga amr etadi.

«Pandnoma» - yaxshi bir axloq-odob kitobidirki, eski vaqtlarda ko'p maktablarda o'qitilardi. Attorning boshqa asarlaridan soddarrq yozilgan bu asari turkchadan tashqari, farang, olmon, lotin va hind tillariga tarjima etilgan, ko'p martalab sharhlangan. Turkcha sharhlari orasida, Shomiy (vaf. 1009) ning «Saodatnoma», Abdurahmon Abdiy poshshoning (vaf. 1103) - «Al-muf'id» (Istanbul, 1250^1267), Muhammad Murod b. Abdur-Rahim (vaf. 1264) «Mahozir»i ham Istanbulda bosilgan (Islom ensiklopediyasi. Attor).

«Tazkirat ul-avliyo» — Attorning yagona mansur (prozada yozilgan) asari bo'lib, avliyolarning tarjimai hollaridan bahs etuvchi buyuk bir kitobdir. Tarjimai holi yozilmish so'nggi avliyo Attorning hurmatiga sazovor Halloj bo'lib, boshqa boblarda u ko'p tilga olinadi. «Tazkirat ul-avliyo» turkiyga ko'p marta o'girilgan:

1. Asarning sharqiy turkchaga (uyg'urchaga) o'g'irilgan bir nusxasi Parij Milliy kutub-xonasida 100-raqami bilan saqlanadi. Parijda, Milliy kutubxonada yana bu asarning Pave de Kurteyl tayyorlagan farangcha nashri ham bor (1889—90). «Tazkirat ul-avliyo»ning arab alifbosidagi turkiy matni esa Fotih kutubxonasi (Turkiya) 2848-raqami bilan saqlanadi.
2. Asarning Oydin o'g'li Mahmudbey (hijriy 707—734) nomiga bitilgan onado'liy turkchaga tarjimasi Valiuddin Afandi kutubxonasi 1643-raqami bilan saqlanadi.
3. Yusuf b. Hizr Xoja poshsho (vaf. hijriy—891) tarjimasi («Usmonli mualliflari», II jild, 223-bet).
4. Ali-Rizo Qora Hisoriy tarjimasi («Usmonli mualliflari», 111 jild, 223-bet). Istanbul kutubxonalarida bu asar qo'lyozmalarining qanday tarjimalari borligi hozircha to'la aniqlanmagan. Yuqorida zikr etilgan qo'lyozmalardan tashqari, yana Ayo-So'fiya, Fotih, Hakim o'g'li, Qilich Ali, Layli eli, Nuri-Usmoniya, Xolis Afandi, Rizo poshsho kutubxonalarida «Tazkirat ul-avliyo» qo'lyozmalari bor. O'zbekis-tonda Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari institutida ham bu asarning bir necha qo'lyozmalari bor.

«Me'rojnomaga» mazmuni ismidan anglashilib turadi. Payg'ambar sallallahu alayhi vassallamning ko'kka ko'tarilib, Alloh huzurida bo'lishi falsafiy — irfoniy mazmunda tasvir etilgan.

«Gum-gumnoma» — kichik bir hikoyatdan boshlanadiki, Attorning har bir masnaviysida ham bunday hikoyatlar uchraydi. Hikoyada aytilishicha, Iso payg'ambar alayhissalom cho'lda bir o'likning bosh chanog'ini topib, uni duo orqali tiriltiradi va u bilan suhbatlashadi. Bu yetti iqlimga hukmron bo'lgan podshohning bosh chanog'i bo'lib, u Iso payg'ambarga hayotini, kechmishlarini, qabr azoblarini va jahannamdagi ahvolini so'zlab beradi. Bu kichik asarni V.A.Jukovskiy ruschaga tarjima qilib, nashr ettirgan. Hijriy 770 da Husam kvtib tarafidan «Gum-gum Sulton» nomi bilan kengaytirilib o'g'irilgan va hijriy 1289 da Qozon dorilfununi matbaasida «HIKOYATI Gum-gum Sulton fi nubuvvati Ilyos alayhissalom» nomi bilan nashr etilgan. Bu asar onado'lu turkchasiga ham o'g'irilgan. Zotan, bu hikoya mavzui turkiy xalqlar adabiyotida ma'ruf va marg'ubdir

(Qarang: Fuod Ko'prulu. Turk adabiyoti tarixi: Istanbul: 1926, 362-bet).

«Ushturnoma» — bu asar bilan Attor ijodining ikkinchi davri boshlanadi. Asarda voqealarni qamrovchi bir hikoya bo'lsa-da, anglatish tarzi avvalgi masnaviylarga nisbatan ancha tarqoq va cho'ziqdir. Bundan tashqari, takrordan ko'p foydalaniladi. Kitob markazida tasavvufiy ma'no berilgan bo'lib, bir turk xayolbozi (chodirxayol, qo'g'irchoq o'ynatuvchi) san'atkor qo'g'irchoqlarni sahnada bir-bir o'ynatib keyin yana sandig'iga tashlab berkitgani ramzi bilan Allohning olamdagi barcha maxluq-jonzotlarga

hayot berib, so'ng yana o'ldirishiga ishora qilinadi.

«Javhar uz-zot» — bu asarda endi qamrovli (qoplama) hikoya yo'q. Asarga hokim bo'lgan tuyg'u - fano, ya'ni vujudning mahv etilishi, yo'qolishi orqali tomchining dengizga qo'shiluvi kabi, inson juz'ining ilohiy kull - abadiy ruh bilan qo'shiluvi yo'lidagi otashin istakdir. Kitobning asosiy qismini vujudidagi ilohiylikni anglab, o'zini dengizga otgan bir go'dak - yosh bolaning namunasi, deb doimo Mansur Hallojni ko'rsatadi. Shuning uchun ham Mavlono (Jaloliddin Rumiy) «Hallojdagi nurning 500 yil o'tgandan keyin Attorning ruhida tajalliy etishi» haqida gapirgan edi. Bu asardagi ikkinchi ohang shunda ko'rinadiki, Attor ruhida asta-sekin Ali shaxsiyatini mujassam etish sezila boshlaydi. Attor uchun ilohiy asorning homili Alidir va bu asror Aliga payg'ambar tomonidan berilgandir.

«Javhar uz-zot» asari uch kitobdan iborat bo'lib, hozir so'zlaganlarimiz faqat birinchi kitobga oiddir. Asarning uchinchi kitobi «Hallojnoma» deb ham ataladi va unda Mansur Halloj shaxsiyati asosiy o'rin tutadi.

Attorning «Vuslatnoma» asarida nafis bir reja va tartib ko'rinmasa-da, u vahdati vujud g'oyalari, so'fiyona hikoyalar va majozlar bilan muzayyandir. Bu hikoyalarda ham Mansur Halloj shaxsiyati yuksak bir mavqe'ni egallaydi.

Shoirning eng kichik masnaviylaridan biri «Basarnoma» bo'lib, bunda ham so'fiyona fikrlar, fano, baqo, Alloh ruhiga va nuriga singib ketish g'oyalari ilgari suriladi. (Ahmad Yassaviyda ham «fano fi-l-loh»ga katta e'tibor berilganini eslang.)

Shoir badiiy-g'oyaviy izlanishlaridagi uchinchi davr, aytganimizday, «Mazhar ul-ajoyib» asari bilan boshlanadi. Bu masnaviyda shoirning otashin ehtiroslari pasaya boshlaydi, qofiyada ham, vaznda ham g'alatliklar uchraydi. Dostonda hazrat Ali siymosi markaziy o'rinni egallaydi. «Javhar uz-zot» masnaviysida ko'rilgan ilohiy kuy va qamish hikoyasi bu asarda ham o'zgacharoq bir alfozda takrorlanadi. Bundan tashqari, shoir dostonda ba'zi vaqf yer-mulklarni g'arazli maqsadlarda suiiste'mol qilgan ba'zi muftiylarni qoralaydi. Olmon sharqshunosi Helmut Ritter fikricha, bunday muftiylarga hujum zaminida shoirning asarlarini qoralab, fatvo bergan muftiyga o'xshash din peshvolari ko'zda tutilgan. Shuningdek, asarda shoirning falsafiylikka mayli ortib borayotganidan dalolat beruvchi hikoyalar, o'z hayoti, tarjima xrliga oid lirik chekinishlar, o'quvchisiga qaysi asarlarni o'qib, qaysilarini o'qimasligi haqida tavsiyalar beriladi. Asarda mashhur mugasavvif shayx Najmiddin Kubro ismi ko'p marta tilga olinadi (Abul Janob Ahmad ibn Umar Xevaqi). Shayx Kubro aslida Fariduddin Attorning ustozu Majiddin Bag'dodiyning ustozidir. Demak, Fariduddin Attor shayx Najmiddin Kubroga nevara shogirdidir («Tazkirat ul-avliyo» debochasiga qarang). «Nasoyim ul-muhabbat»da Navoiy yozishicha, «Va alarni Shayxi Valiytarosh debturlar. Aning uchunki, vajdu hol



g'alabotida muborak nazarlari har kimga tushsa, valoyat (valiylilik) martabasiga yetar  
ermish...»

Fariduddin Attorning so'nggi mashhur asari «Lison ul-g'ayb» bo'lib, bunda shoir  
o'zining xilvatda huzur-halovat topganini, chunki xilvatda oshiq sifatida ma'shuqi  
(Alloh)ning vasliga yetishganini izhor etadi.

Shayx Fariduddin Attorning g'oyalari, Haqqa yetishuvi yo'lidagi izlanishlarining sirlari  
hali ko'p asrlargacha adabiyotshunos, ilohiyotshunos, tarix va falsafa olimlarini  
to'lqinlantirib, ijod va ilhom sarchashmasi bo'lg'uvsidir.

*Najmiddin Komilov,  
Mahkam Mahmudov*

## MANTIQU-TAYR

---

### MUQADDIMA

#### **Ulug'vor va Qudrat Sohibi Alloh Taolo Madhida Bismillohir rahmonir rahim**

#### *BUYUK VA A'LO BORIY TAOLO TAVHIDI HAQIDA*

*Ofarin, jonofarin, ey pok Ruh,*

*Jon va iymon oldi sendan xok, ruh.*

*Xoku suvdan Odamni bunyod aylading,*

*Oxirin ham xok etib, yana barbod aylading.*

*Yerni pastu, qilding osmonni baland,*

*Biri hurdir, o'zgasida ming kamand.*

*Ul birisi aylanur davron bo'lib,*

*Ul birisi jim turar hayron bo'lib.*

*Yerga gumbaz qilding ko'kni besutun,*

*Olti kunda bor qilding barcha olamni butun.*

*Osmon nardasida senga anjum soqqadir,*

*Har tong rangi o'char, har kecha topgay qadr.  
Ruh qushin sayd etgali domdir badan,  
Xush uchib bu qushdin muxtashif ahvolda tan.  
Sirli olam naqshidan bahri dil uyg'onadi,  
Tim-qo'rquv ichra suv ham gohi tonglar yonadi.  
Dengiz bag'ri suv to'la, sohil tashnalab o'tar,  
Tomchi yomg'irdan sadafning bag'rida gavhar o'sar.  
Tog'u toshga qoyadan tig', daryodan berding kamar,  
Go'iy o'jangchiga o'xshar, yuzi yong'ay har sahar.  
Gulni o'tga solsang bir zum gil bo'lur,  
Sen jahl qilsang agar pashshalar ham fil bo'lur.  
Fir'avn boshin yedi nimjon pashsha,  
Oxiri voy bo'ldi to'rt yuz yil yashab.  
O'rgumchak to'rin yoyar g'ordagi do'sting uchun,  
Chumolidan Sulaymon olg'ay aqlning kuchin.  
Lolalardan qizarib, qon bo'lur tog' cho'qqisi,  
Tuproq bag'rining qoni la'lga aylanar bir kun...*

Jonni yaratuvchi pok Parvardigorga hamdu sanolar bo'lsin! Tuproqqa jon bag'ishlagan va imon ato etgan ham Uldir. U tuproqni suv uzra tikladi, tuproqdan bo'lganlar umrini u yelga berdi. Osmonni zabardastlik — g'oliblikda (tepada) sakradi. Tuproq — yerni pastlik darajasida tutdi. Ul biriga — osmonga doimiy harakat ato etdi, bul biriga - Yerga doim sokin, tinch turishni buyurdi. Olti kunda yetti yulduz -sayyorani vujudga keltirdi, ikki harf orqali amr etib, osmonni yaratdi. Falak har kecha u yerda nard o'ynasin deb yulduzlar soqqasi — muhrasini oltin sandiqchalar shaklida yasadi.

Tana tuzog'ini xilma-xil holatlarda qo'ydi. Jon qushining domini tuproqqa qo'ydi. Dengizni eritib o'ziga taslim qildi, tog'ni qo'rquvdan qotirib (hayron qilib) qo'ydi. Chanqoqlikdan dengizning labini quritdi (sohil quruq), toshni yoqutga va qonni mushkka aylantirdi. Yerning posboni bo'lsin deb toqqa ham cho'qqi berdi, ham bel berdi. Gohida olov ustida gul dastaladi\*, gohida daryo ostida ko'prik yasadi\*. Dushman boshida yarim pashshani to'rt yuz yil tutib turdi\*. O'rgimchakka hikmat bilan to'r to'qishni o'rgatdi va

sadri olam — Muhammad Mustafoni unda yashirib osoyishta saqpadl\*.

Chumolining belini qilday ingichka qildi, ammo unga Sulaymon qo'lida joy berdi\*. Abbas avlodiga xil'at - to'n berdi.\* Osmonga tos (to va sin) berdi. Iso bilan birga ignani ko'rgach, noiloj sir fosh bo'ldi\*. Loladan qonli qilgan tig'ni (tog' cho'qqisini), tutundan niliy gulshan qildi. Tuproqni pora-pora qilib, qon bilan yo'g'irdi, toki qip-qizil la'lni undan chiqardi. Quyosh va oy kecha-kunduz unga sajdadadir, bular o'z manglaylarini yo'lining tuprog'iga surtadilar. Bu ularning sajdadagi siymolaridir - sajdasiz siymo mavjud bo'ladimi axir!

Kunduz uning bastidan (ochiq-ravshanligidan) oqarib ko'rinsa, kecha Uning qabza (siquvi)dan qorong'ilikda kuyadi. To'qalga oltin bo'yinbog' bog'ladi, Hudhudga rahbarlik xabarini berdi. Osmon qushi yo'lida qanot qoqadi, eshigida eshik halqasiday bosh uradi. U falakka kecha-kunduzda aylanib turishni o'rgatdi, kechani ketkazib, kunduzni keltirib, rizq-ro'zi berdi (kunduzlik - yorug'lik keltiradi).

Loyga nafas tegizsa, loyni odam qiladi va ko'pik bilan tutundan butun olamni yarata oladi. Gohi itga to'rgacha yo'l beradi, gohbir mushuk orqali yo'lni ochadi. Gohi Ul, yakinlik, shermardlikni shu itga nisbat beradi\*. Gohi bir aso - tayoqqa Sulaymonlik qudratini beradi, gohida bir chumoliga so'zlash iste'dodini ato etadi\*. Gohida asoni ajdarhoga aylantiradi\* va tandirdan to'fon chiqaradi\*. Qishda kumushday qorlarni yog'diradi, kuzda daraxt shoxlaridan oltin to'kdiradi. Falakni sarkash ot sag'risiga aylantiradi, uning hilolidan o't sachrovchi taqalar yaratadi. Toshdan o'rkachli tuyalar chiqaradi, oltin sigirni zorlanib nola qilishga majbur etadi\*. Agar kishi o'qini qon ichiga yashirsa, u g'unchada qonni o'q ichiga joylaydi (hali ochilmagan qizil gul g'unchasi uchida qon to'ldirilgan kamon o'qiga o'xshab ketadi). Yosumanga to'rt toj yasadi, lolaning boshiga qonli quloh kiydiradi, gohi nargis guli boshiga oltin toj kiygizadi, gohida uningtojiga shabnamdan gavhar qadaydi.

Aqlning faoliyati (ishlashi), jonningdilbarga oshig'lig'i Undan, osmonning aylanishi, Yerningxoru ojizligi Undan, Baliq orqasidan Oygacha nimaiki bor — barcha zarralar Uning zotiga guvohlik beradi. Tuproq — yerning pastligi va falak-ning balandligi — har ikkalasi (Uning qudratiga) alohida-alohida yetarli guvohdir. U shamol (el), tuproq, olov, qonni (tiriklikni) yaratdi va (shu orqali) o'z sirrini bir-bir oshkor eta boshladi. Odam tuprog'ini loy qilib, qirq kun saqladi, keyin jonni unga joylab, orom berdi. Jon tanaga kirgandan keyin, ko'ngil undan tirildi, (so'nfa) unga akd ato etdi, toki olamni biladigan bo'ldi. Keyin ilm berdiki, Allohni tanimoqni o'rgandi. Taniydigan bo'lgach, (odam o'z) ojizligiga iqror bo'ldi, shundan keyin hayratga g'arq bo'lib, tanni ishga soldi. Bu olamni xoh dushman, xoh do'st hisobla, uning hammasi Uning yuki ostidadir. Uning hikmati hammaning yukini belgilaydi va yana ajabki, Uning O'zi barchaning asraguvchisidir. Boshidan boshlab tog'ni yerning qozig'i qildi\*. Keyin yerni daryo suvi bilan yuvdi. Yer

Sigir orqasida tik turgach, Sigir Baliq ustida, Baliq esa Havo ustidadir. Bas, havo nima ustida turadi? Hech narsa ustida turmaydi\*. Hech — hechdir, buning hammasi hech, vassalom.

Ul podshohning san'atiga fikr qilki, (butun bu borliqni) hech narsasiz saqlab turadi!

Agar bu borliqning hammasi hech (yo'klik)ning ustida bo'lsa, demak (bu dunyoning) barchasi hechdir — yo'qlikdir. Arsh suv ustida, olam esa — havo ustida. Suv va hayu dema, barchasi Allohdir! Arsh va olam tilsimotdan boshqa narsa emas, hamma Udir, qolganlari nomdir, xolos. Qarang: bu olam ham, u olam ham Udir, Undan boshqa (narsa) yo'q, agar bo'lsa, ul ham Udir.

Ey afsus, hech kimning toqati dosh bermaydi, ko'zlar ko'r, holbuki jahon Oftob (Alloh) nuri bilan to'liqdir. Agar ko'ra olsang, bu aqlni kam qilarding, barchada Uni ko'rib, o'zingni yo'q qilarding. Ajabki, hamma etagini qo'lga olgan. UZR aytib, Uni bor deydilar.

Ey, oshkorliging yashirin Zot. Butun olam Sensan, odamlar esa ko'rinmasdirlar\*. Sen hammadan qadim va hammadan oldinsan, hammani O'zingdan (paydo qilding), O'zingni hammada ko'rasan. Sening toming posbon va qo'riqchilar bilan to'la. Sen tomon qanday qilib kishi yo'l topsin?

Aql va jonga Zoting atrofida yo'l yo'q hamda sifatla-ringdan hech kim xabardor emas. Garchi jon ichida yashirin xazina ham Sensan, dilu jon ichra bor haqiqat ham Sensan. Barcha jonlar mohiyatingdan nishon topolmaydilar, anbiyo yo'ling tuprog'ida jon bag'ishlaydilar. Aql agar Sendan bir nishona (mavjudlik) anglasa, ammo haqiqating — mohiyatingga yo'l topolmaydi. Sen borliging va mavjudligingda butkul abadiysan, hammani bu ishdan qo'l tortishga majbur qilding.

Ey Rabbim, jon ichida ham, jon tashqarisida ham Sensan, nima desam u emassan, o'xshashi yo'qsan. Ey, aql dargohingda sarsonu hayron, aqlu jon yo'lingda ovorayu sargardon. Butun olamni Sen bilan ayonu aniq ko'raman, ammo olamda Sendan nishon ko'rolmayman.

Ey sirlarni bilguvchi Zot, har kimki Sendan bir nishon - belgi so'zladi, ammo u Sening nishoning emas, chunki benishonsan, garchi hamma yerda borsan\*. Falak garchi qanchadan qancha ko'zlar (yulduzlar)ni ochdi, lekin Sening yo'lingdan bir g'uborni ko'rmadi. Yer ham garchi dardingdan boshiga tuproq sochgan bo'lsa-da, biroq g'uboringni ko'rmadi.

Quyosh Sening shavqingda hushini yo'qotgan, (shu bois) har kecha ikki qulog'ini Yerga ishqalaydi. Oy ham ishqingda suv bo'libdi, har oyda hayratdan qalqon tutadi. Dengiz

Sening (ishqing) gʻavgʻosida boshdan kechib devonaday etagi hoʻl, labi esa qurib qolibdi. Togʻ yuz dovoni bilan yoʻlda qolib beligacha loyga botibdir. Olov Sening shavqingda otash boʻlib yonadi, sarkashlik va kuydiruvchilik xossasini oladi. Shamol (el) Sendan oʻzini yoʻqotib, kaftda havo tuproq ustidan uchadi. Suv (hovliqishdan) jigari qurib, qaqshaydi. Sening shavqingda boshi bilan suvga gʻarqboʻlgandir. Tuproqqoʻyingda ovorayu dardmand, xokсорlikdan boshiga tuproq qoʻyibdi.

Qancha gapirmayin, Sening sifatini aytib boʻlmayapti, na qilayki, mening maʼrifatim yetarli emas.

Ey koʻngul, agar tolipsan, yoʻl yurgin, orqa-oldingga qarab, ogoh boʻlib yur. Solih yoʻlovchilarni koʻrgin, ular Dargohga kelibdilar, hammasi birin-ketin yoʻldosh boʻlib kelibdilar. Har zarrada oʻzgacha dargoh bor, demak, har zarradan Unga tomon oʻzgacha yoʻl bor. Sen qaysi yoʻldan yurishni, qaysi yoʻl ul Dargohga olib borishini qaerdan bilasan? Uni yashirin (deb) izlasang, (U) ayondir, agar Uni ayon (deb) izlasang, U yashirindir.

Agar birga (ham nihon va ham ayon deb) olib, uni «qanday?» — deya qidirsang, unda U har ikki holatdan ham tashqaridadir. Sen hech narsa yoʻqotganing yoʻq, hech narsa izlama, yoʻq degan soʻzingni yoʻq qil. Nimani aytsang va neki bilsang — bu sensan, oʻzingni tanisang, bundan-da yuz barobarsan.

Sen Uni U bilan tani, oʻzing bilan emas. Unga tomon yoʻl Undan boshlanadi, aqldan emas\*. Vaf etuvchilarga (hamma vaqt ham) Uning vafsi munosib emas, bu ish har bir mard va nomard (nokas)ning ishi emas. Ajz (ojizlik, faqr) shuning uchun maʼrifat bilan hamsafar boʻldiki, Uni sharhlash ham, sifatini taʼriflash ham mumkin emas. Xalqning bir qismida U haqda xayol bor, xolos. Undan xabar berish maholdir. Agar gʻoyatda koʻp, yaxshi-yomon soʻz aytgan boʻlsalar ham, nimaki U haqda desalar, oʻzlaridan (oʻzlariga uxshatib) aytganlar.

U ilmdan yuqori, ayondan tashqaridir. Oʻzining qudsiyati (pokligida) nishonsizdir. Uning nishonidan kishilar benishonliqdan boshka nishon topmadilar, jonni bagʻishlashdan oʻzga chora topmadilar. Hech kimning hushyorligu devonalikda Undan boshqa («illalaziy») nasibasi yoʻq. Ikki dunyoda zarra-zarra sening fahming (tushunchang) bor. Nimaniki Alloh desang — u sening xayolingdir, xolos. U bor boʻlgan joyga kishi joni borib yetmaydi. Yuz minglab Tur (togʻ) jondan afzal, avlo, yaxshi, balanddir. Nimaiki aytishni ep koʻrsam, U undan baland (afzal)dir. Aql Uning savdosida (bilishi, tanishi) hayron boʻldi. Jon nochorlikdan barmogʻini tishladi. Jon nima? Uning ishida hayronu sarson narsadir. Koʻngil esa jigarini yeb, qonga belangan.

Ey Haqshunos, bunaqa koʻp qiyos qilma, zero, oʻxshashi yoʻq ish qiyossizdir.

Buyukligini (anglashda) aql bilan jon qaridi (nochor bo‘ldi), aql hayron, jon esa mot bo‘ldi. Kullning kullidan birorta payg‘ambar ham biror juzv ogoh bo‘lmadilar\*. Hammasi ojiz bo‘lib, yuzlarini tuproqqa surtdilar. «Mo arafnoka» deb xitob qildilar, xolos («Mo arafnoka nafsahu qad arafa Rabbahu» — «Kimki o‘zshi tanisa, o‘z Rabbini taniydi» hadisiga ishora).

Men kim bo‘ldimki, Uni tanish va bilish lofini ursam, o‘zini U bilan birga deb bilgan kishigina Uni taniydi. Chunki ikki olamda Undan o‘zga yo‘q, unda kim bilan bu savdo va havas tahsinini pishiradi? U shunday daryodirki, gavharlari to‘lqin-to‘lqin, sen pastda avjlanib buni bilmaysan(?). Kimki bu daryoning gavharini topmasa, «lo» (yo‘q) bo‘ldi va «lo» (yo‘q) dan boshqa hech narsa topmadi\*. Nimaiki, tavsif etilgan bo‘lsa, U emas. Menga buni aytish osonmi, axir?

Ishoratga (to‘g‘ri) kelmagan narsani aytma, ibratga rost kelmasa, indama. U na ishoratni qabul qiladi, na nishoni bor. Hech kimning U haqda na ilmi bor, na biror dalili (Ya‘ni, ilm Uni dalillashga ojizdir).

*Sen (orada) bo‘lmasin — kamol aslida shudir, xolos.*

*Sen o‘zlikdan kam bo‘lgin - visol shudir, xolos.*

Sen Unda yo‘qolib ket - hulullik (singib ketish) shundan iborat, bundan boshqasi behuda ezmaliqdan boshqa narsa emas.

Birlikka (faqat Allohga) bor va ikkilikdan yiroq tur, bir dil, bir qibla va bir yuz bo‘lgin.

Ey ma‘rifatsiz xalifazoda (Allohning yerdagi xalifasi Odam Atoning avlodi ma‘nosida), otang bilan ma‘rifatda hamsifat bo‘l. Haq adam - yo‘qlikdan nimaiki vujudga keltirgan bo‘lsa, hammalari Uning oldida sajdaga bordilar. Oxiri Odamni yaratish navbati yetganda, uni qizg‘anib, yuz parda orqasiga olib bordi. Dedi: ey odam, saxovat dengizi bo‘l, bular (farishtalar) senga sajda qiluvchilar, sen esa bularga masjud (sig‘inish manbai)san.

Ular orasida biri Insonga sajd qilishdan bosh tortdi, masxara (badbashara) va mal‘un (la‘natlangan) bo‘ldi va buning ma‘nosini tushunmadi. Yuzi qaro bo‘lgach, Allohga nola qidib, ey Ehtiyojsiz Alloh, meni hayf qilma va ishimni o‘nglagil. Haq taolo dedi: Ey mal‘un, Odam ham Allohning xalifasi, ham Podshodir. Bugun sen uning yuzida ko‘z bo‘lgin, bundan keyin tong-la (ertaga) sipand (isiriq) yondirgil(?). Juzv va kull jonni jismga qanday sotdi? Kishi bundan ajoyibroqtisim yasamagan. Jon balandda (osmonda), tan esa tuproqdan bo‘lgani uchun pastda edi, (lekin) pastdagi tuproq bilan pok jon qo‘shildi (jam‘ bo‘ldi). Baland va past birga qo‘shilgach, Odam (paydo bo‘lib), u sirlar mujassamiga aylandi. Ammo uning sirlaridan kishi xabardor bo‘lmadi. Har gado uning

ishidan ogoh emas (Uning ishini bilmas).

(Buni) bilmadik va tanimadik, bir lahza ko'ngil bog'lamadik ham. Jim turishdan boshqa yo'l yo'q, chunki odam uchun bir ohdeyishdan boshka iloj yo'q, chunki ular faqat daryo yuzidan ogohdirlar. Ammo uning tubidan hech kim ogohemas. Xazina esa tubdadir, dunyo - bir tilsimotdir. Oxir-oqibat bu jism bandini tilsim sindiradi. Tilsimot oldingdan yo'qolgach, xazinani topasan, jism ketgach, u (xazina ko'rinadi). Bundan keyin joning boshqa tilsimotga tushadi - g'ayb uchun sening joning boshqa bir jismdir. Shunday ketaverasan, oxiriga yetmassan, bu dardingning darmonini topolmassan.

Bu dengizning qa'ri - ichi chegarasiz, ko'plar g'arq bo'ldilar, ammo birortasidan xabar yo'q. Bahri a'zam - Buyuk Ummon deyiladigan bu dengizda olam bir zarradir va zarra olam kabidir.

Bu Ummon ko'piradi, ana shu ko'pik (to'lqin)ni olam deb bil. Shuni ham bilki, bir zarra - bir ko'pik (to'lqin)dir. Agar olam yo'qolsa va zarra ham yo'qolsa, bu Ummondan ikki ko'pik (to'lqin) yo'qoladi, xolos. Bu chuqur Dengizda toshchalar qadrlimi yo aqiq — inson bilmaydi.

Bir zarraning kamolini bilish (tanish) uchun aql, jon, din va dilni bag'ishladik. Og'zingni yum, Arsh, Kursidan so'rama, agar bittagina so'z so'ramoqchi bo'lsang ham so'rama! Aqling bitta qil ustida lol qoldi (kuydi), shu uchun (gap) so'rashdan lablaringni bog'la\*.

Qancha gapirma, qancha so'rama, kishi bir zarraning mohiyatini batamom bilolmaydi. Osmon nima? — To'ntarilgan gumbaz, ammo ustunsiz, u beqarorliqda (harakatda), ammo mustahkam turadi. Uning yo'lida o'zingni yo'qotib hayron-san - sen parda ichrasan, undan tug'ilgansan! Falak boshini yo'qotgan (ilojsiz) narsadan o'zga emas, u parda ichida nima borligini qaerdan bilsin? U (falak) necha yildirki aylanadi, bu eshik atrofida boshu oxirsiz holda aylanadi. (Falak) Parda ichidagi sirni bilmaydi, senga o'xshaganga bu Parda ochilarmshsh?

Olamning ishi hayrat va ibratdir, hayrat ustiga hayrat va yana hayratdir! Shunday ishlar borki, ularning yuzi va orqasi yo'q, bunga bosh qotirma, yuzingni devorga qaratib, qo'lingning orqasini tishla.

Yo'lni biladigan yo'lboshchilar o'z jonlarini hasratda qoldirib, ojizlik va hayratda qoldilar. Avval Odam Safilullohga nima bo'lganini ko'r, uning umri motamda o'tdi, keyin Nuhni ko'r, u xaloskorlik ishiga bel bog'lab, ming kofirlardan azob chekti. Yana Ibrohimga boq: dilini yakkayu yagona Alloh taologa bag'ishlab, olov va manjaniqni manzil qildi1. Yana motamzada Ismoilni ko'r: maqsadi yor oldida qurbon bo'lish edi. Yana sarsonu sargardon Ya'qubni qo'r, o'g'li firoqida ko'zdan ayrildi. Yana Yusufi

Siddiqning ahvolini ko‘r: qullik zindonda va quduqda boshidan nimalar kechdi? Yana sitamkash Ayyubga boq: Eshik oldida qurtlar va bo‘rilarga yem edi. Yana yo‘lini yo‘qotgan Yunusga boq: oy osmonidan baliqqorniga tushib qutuldi. Yana Musoni qo‘r: Alloh bilan ahdu paymondan boshlab Fir‘avning doyasi bag‘rida o‘sdi.

Yana Dovudga qara: jigari tafti bilan temirni mumga aylantirardi (eritardi). Yana podsho Sulaymonni ko‘r, dev uning mamlakatini qanday qilib havoga olib chiqdi (barbod qildi). Yana Zikriyoki, Alloh ishqida ko‘ngli jo‘sh urdi, boshiga arra solsalar ham indamadi. Yana Yahyoni ko‘rki, odamlar oldida tog‘oradagi sha‘mday boshi kesilgan edi. Yana Isoga qara, u juhudlardan necha marta qochib, jon saqladi. Yana payg‘ambarlar sarvari (Muhammad sallallahu alayhi vassallam) ga qara: kofirlardan qancha jabru jafu ko‘rdi. Sen buni oson deb o‘ylama, ozgina narsa ham kishini jondan ayirishi mumkin, axir. Nima deyin, boshqa so‘zim qolmadi. Shoxidan uziladigan gulim ham qolmadi. Bir yo‘la hasrat qurboniga aylandim, menda bechoralikdan o‘zga chora qolmadi.

Ey Rabbim, yo‘lingda aql — sut emadigan go‘dakday, aql Seni izlab-izlab yo‘qoldi (toliqdi). Oyoqlari qabargan menday odam bunday zotga qanday yetadi, yetganimda ham Ul poklikka qachon yetaman? Sen (Alloh) ilmga ham, bayonga ham sig‘maysan. Sen daromadni chiqimlar, ziyonu foydadan tashqarisan, Musodan Senga foyda va Fir‘avndan ham ziyon (yomon so‘z) Senga yetmaydi. Ey chegarasiz Alloh, Sendan o‘zga kim bor, Senki haddu g‘oyatdan buyuksan, sendan o‘zga kim bor? Hech narsa chegarasizlik va gumonu shubhadan tashqarida bo‘lishlikda Senga barobar emas, Sening birliging — Sening barchani kamroving va borliging-dadir. Jahon xalqi hayron qolibdir. Sen esa parda ostida yashirinsan. Axir, ey Do‘st, pardani ko‘targin, jonimni o‘rtama, bundan boshqa pardada yashirin yondirma. Hayrat dengizida birdan yo‘qoldim, bu sarsonlikdan yana O‘zing qutqargil! Osmon dengizining o‘rtasida sarson qolibman, parda ichida emas, tashqarida qolibman\*.

Bandangni bu nomahram dengiz (dunyo)dan chiqar. Sen meni shu joyga (dunyoga) keltirgansan. Sen o‘zing undan chiqar. Mening nafsini butun vujudimni egalladi, agar meni Sen qo‘llamasang, voy mening holimga! Jonim behuda ishlar, narsalar bilan bulg‘angan, men bulg‘anishlarga toqat qilolmayman. Yo bu bulg‘anishdan pok et, yana qonimga bo‘yab, tuproq ayla meni, yo marhamating eshigini ochib, g‘aybingga yetkazgin. Odamlar Sendan qo‘rqadilar, men esa o‘zimdanda qo‘rqaman, chunki Sendan yaxshilik, o‘zimdanda yomonlik ko‘rganman. O‘lgandirman, tuproqqa borurman, jonimni yana qaytar, ey jon bag‘ishlovchi Egam. Agar istamasang buni, bu o‘voralik bo‘lur, agar Dargohingdan quvsang — bu yuz o‘girishing bo‘lur.

Ey podshohim, men yuragi qonga belangan odamman, falak kabi butun vujudim aylanishda (sargardon)dir. Xuddi shunday, bir-birimizga hamsoya (qo‘shni)miz. Sen — quyoshsan, biz esa soyamiz, yoding bilan kecha-kunduz birgaman. (Qur‘onda) bir lahza



talabdan to‘xtamang, degansan. Ne bo‘lardiki, bechoralarga marhamat yuzasidan boqib, qo‘shnichilik haqiga rioya qilsang.

Dardli dil va afsuslangan jon bilan Sening ishtiyoqingda (shavqingda) bulutday ko‘z yoshi to‘kaman. O‘z dardimdan Senga so‘zlasam, yo‘qolib ketaman (yodingda), qachongacha Seni izlayin. Gumrohdirman, yo‘lboshchim bo‘l, kechikib (bevaqt) kelgan bo‘lsam ham, davlat ato et menga. Kimki sening ko‘yingda davlatli bo‘lgan bo‘lsa, Senda yo‘qolib, o‘zidan bezor bo‘ldi. Noumid emasman va ishonaman, chunki Sening marhamating cheksiz, yuz ming sham‘ingning biri mening qalbidam yongay!

#### *OJIZ VA DILXASTA ODAM HIKOYATI*

Bir intizomli, ammo hayronu sargardon odam bor edi, kecha-kunduz mudom safarda edi. Unga bir ayyor (javonmard) uchrab qoldi va qo‘lini bog‘lab, uyiga olib bordi, keyin qilich bilan uning boshini chopmoqchi bo‘ldi. Shu payt ayyorning xotini dilxasta gadoga bir parcha non berdi. Eri qilich ko‘tarib kelganda, ul bechora gadoning qo‘lida nonni ko‘rib qoldi. Dedi: ey noshud, bu nonni senga kim berdi? Dedi: bu nonni sening ayoling berdi. Er bu gapni eshitgach, dedi: seni o‘ldirish bizga harom bo‘ldi (man’ bo‘ldi). Chunki, bizning nonimizni yegan har bir odamga biz tig‘ tortolmaymiz. Nonimizni yegan kishiga jonimizni ham beramiz, men qanday qilib uning qonini tig‘ bilan to‘kayin.

Xoliqo, toki (o‘zimni topib), yo‘lingdaman. Sening dasturxoningdan noningni yeyman. Kimki birovning nonini sindirsa, u bu non haqini esdan chiqarmagay. Sening yuz ming saxovat dengizing bor, Sening noningni ko‘p yedim, buni hisobga olgin, haq berguvchi Egam. Ey olamlar Ilohi, yo‘lda qolgan bandiman, quruqlikda qonga g‘arq bo‘lgan kemani suribman. Mening qo‘limni olib, faryodimga yet, pashshaga o‘xshab qachongacha qo‘limni boshimda tutib turaman. Ey mening gunohlarimni kechiruvchi, uzrlarimni qabul qiluvchi (egam): yuz marta kuydim, yana kuydirmoqchimisan? Sendan uyalib, qonim uyushmoqda, ko‘p nomardliklar qildim, ayblarimni berkit. Men gofillikdan yuz gunohlar qildim, Sen buning evaziga yuz rahmatlar ato etding.

Ey, Podshohim, men miskin bandangni kechir, agar mandan yomonlik ko‘rgan bo‘lsang ham, afv etgin. Bilmasdan xato qildim, kechirgin, jonu dilim bilan azobdaman (pushaymonman): kechirgin! Ko‘zlarim oshkoro yig‘lamasa ham, Sening ishqingda jonim yashirin holda zor yig‘laydi.

Xoliqo, agar yaxshi yoki yomon ish qilgan bo‘lsam ham, nima qilgan bo‘lsam ham, o‘z tanim bilan qildim. Mening pasthimmatliklarimni afv et, hurmatsizligimni berkit. O‘zimga muhtalo, ammo Sening hayroningman, yomonmanmi yoki yaxshimanmi — Senikiman. Holimga boq, Sensiz yarimta uzvman. Agar Sen menga boqsang, Kull — butun bo‘laman. Qonli ko‘nglimga bir bor nazar sol, bu (dunyo)ning barcha tashvishidan olib chiq. Agar Sen meni nokas desang, hech kim mening gardimni topolmaydi. Men

kimmanki, sening oldingda qadrim bo'lsa (odam desang), Sen uchun bir arzimas (nokas) bo'lsam, shu menga yetarli, ming shukr deyman. Sening bir qora quling deyishga, Sening ko'ying itining tuprog'iga belangan qulingman, demoqqa haddim bormi? Sen uchun qullikni jonimda saqlarman, habashlar kabi tamg'ang qulog'imdadir. Agar hindu quling bo'lmasam, qanday qabul bo'layin, hindu quling bo'lsam, zangi kabi dildan bo'layin. Tamg'ali hindu qulingni sotma, uning qulog'iga halqa qilib qo'y, egam (Ya'ni, qulog'im doimo Seni tinglasin).

Ey, Rabbim, Sening fazlingdan kishi noumid emas, abadiy sening tamg'angning halqasidaman. Kimningki dili Sening darding bilan xursand bo'lmasa, u hech ham xursand bo'lmasin, chunki bunday odam Sening (yo'lingga kirgan) mard emas. Ey dardimning darmoni, bir zarra dardingdan menga ber, zero Sening dardingsiz mening jonim o'lgusidir. Kofirga — kufr, dindorga — din. Attorga esa — sening dardingning bir zarrasi kifoya!

Ey Rabbim, mening «Yo Rab» deb chekkan ohlarimdan xabardorsan, tungi motamlarim (nolalarim)ni ko'rib turibsan. Motamim haddan oshdi - Isrofil surini yubor, zulmat ichraman, bir nur yubor. Bu motamimda kafilim Sen bo'lgin, boshqa suyanchig'im yo'q, boshqa yo'ldoshimu yo'l boshlovchim yo'q. Musulmonlik nurining lazzatini ber, zulm qiluvchi nafsimni yo'qotishga madad ber. Soyangda yo'qolgan bir zarraman, borlig'imdan hech vaqo qolmagan. Oftob kabi porloq huzuringning soyasiman, koshki shu oftob nuri torlaridan vujudim eshilsaydi. Toki men bir hayronu sarson zarraday qutulib, shu nur toriga osilsaydim. Shunda bu darchadan tashqari (otilib) chiqardim, ravshan charogon olamga peshvoz chiqardim. Jonim labimga kelguncha, ko'nglimning armonli orzusi shu edi. Agar jonim chiqsa, Sendan o'zga hech kimim yo'q, oxirgi nafasimda ham jonimning yo'ddoshi Sen bo'lgin. Agar mening jonim mendan xoli qolgan paytda Sen mening yo'ldoshim bo'lmasang, ahvolimga voy! Umidvormanki, Sen yo'ldoshim bo'larsan, chunki agar istasang, buni qila olasan.

#### *HAZRATI RASUL SALLALLOHU ALAYHI VA OLIHI VASALLAM NA'TIDA*

Ey dunyo va din xojasi, vafo xazinasi, ikki olamning sarvari va to'lin oyi bo'lgan Mustafa. Ey shariat oftobi, e'tiqod osmoni, olam nuri, ikki olam rahmati.

Poklarning joni uning pok jonining tuprog'i. Jonni unga bag'ishla, dunyo uning (yo'lidagi) tuproq. Ikki dunyo xojasi va hammaning sultoni, jonning oftobi-yu hammaning iymoni. Me'roj egasi va koinot boshlig'i (sadri), Haqning soyasi, zot oftobining xojasi. Bu dunyo va ul dunyoning peshvosi, oshkoro va yashirin (narsalar) imomi. Anbiyoning eng ulugi va eng yaxshisi, soflar va valiylarning rahnamosi. Islom maqdysi va tariqat hadisi (yo'l boshchisi), g'aybning muftisi, juzv va kullning (yakkalik va umumiylikning) imomi. Nimaiki aytsam, barchasidan ulug'roqxoja, u hamma narsada hammadan oldindadir. Haqtaolo uni Arasot (qiyomat) xojasi deb aytdi.

Ikkala olam vujudidan nom topdi. Arsh ham uning nomi bilan orom oldi (tinchidi). Olam xalqi xuddi saxovat dengizidan paydo bo'lgan shabnamlar kabi u tufayli yaratildilar. Haq taolo ul pokiza nurni o'z huzurida ko'rgach, uning nuridan yuz nur dengizini yaratdi, mavjudotlar yaratilishidan maqsad uning nuri edi. Barcha ma'lum va mavjud narsalar uning asli (ildizi) edi. Haq taolo o'zi uchun Ul pok jonni, uning uchun esa jahonni yaratdi. Yaratilishdan maqsad faqat udir, undan pokroq zot mavjud emas. G'aybning qo'ynidan avval paydo bo'lgan narsa hech shubhasiz uning pok nuridir. Ul oliy nur bayroq tikkandan keyin Arshu Kursi va Lavhu Qalam ishga tushdi. Pok nuridan bir yalov - olamdir, yana bir yalov — zarralar (jismalar) bilan Odamdir. Bu muazzam nur oshkora bo'lgach, u Ulug' Alloh huzurida sajdaga bosh qo'ydi. Ming-ming yillar sajdada edi, shuncha davr ruku'da turgan edi. Yillar davomida qiyomga mashg'ul edi, tamomi umr shahodat kalimasini qaytarardi. Bu sirlar daryosining namozi nuridan, jumla ummatga namoz farz bo'ldi. Haq taolo ul nurni Quyosh va Oyday o'z yonida uzoq saqlardi.

Keyin Haqiqat daryosiga birdan ul nurni zohir etib, yo'lladi. Ul nur sirlar dengizi yuzini ko'rgach, unda izzat (ulug'vorlik) va noz (ehtiyosizlik)dan mavjlanish (jo'shqinlik) paydo bo'ldi. U talab bilan o'z-o'zining atrofida yetti marta aylandi va shu tufayli yetti osmon pargori (tsirkuli) paydo bo'ldi. Haq taolo tomonidan unga har nazar tushganda, bir yulduz paydo bo'ldi. Keyin ul pok nur orom oldi — oliy Arshga aylanib, Kursi deb ataldi. Arshu Kursi zotining aksini tiladilar (topdilar), farishtalar sifatlarini tiladilar (topdilar). Nafaslaridan (ruhlaridan) nurlar yuzaga keldi, fikrga to'liq dilidan sirlar oshkora bo'ldi. «Ruhning siri Haq Amri olamidandir, bilgin. Bas, ey ruh, nafas bilan odam ichiga kir!» — degan sado yangradi. Ul ruhlar (nafaslar) va sirlar yig'ilgach, shu sababdin ko'plab nur jam' bo'ldi. Ummatlar ham uning nuri tufayli yig'ildilar, ul jamoa (ummatlar) kull (payg'ambar) tomon beixtiyor intildilar. Odamlarning Alloh tomon jamlanishi, bir e'tiqodga kelishi uchun u qiyomatgacha mab'us (atrofiga ergashuvchilarni yig'adigan) bo'ldi. Da'vat bilan shaytonni islomga chaqirgach, shayton ham musulmon bo'ldi\*. Parvardigor izni bilan jinlarni jinlar kechasida oshkora da'vat etdi. Qudsiy malaklarni ham rasul bilan o'tkazdi. Hammasini bir kechada da'vat qilib yig'di. U hayvonlarni da'vat qilishga kirishdi. Guvohlari echki bolasi bilan echkiemar edi. Butun olam butlarini ham da'vat qildi va hammalari uning oyog'i ostiga yiqildilar. Ul pok zot jamiki zarralarni da'vat qildi.

Hech bir anbiyo bu izzat va yuksalishni ko'rmadi - biror-bir ummat uning da'vatidan bosh tortmadi. Uning nuri mavjudotning asli - mohiyati edi. Uning zoti har bir zotning matla'i edi. Ikki jahon da'vati unga vojib (zarurat) bo'ldi, oshkora va yashirin zarralar da'vati ham. Juz' va kull uning ummati bo'ldilar — uning himmati xirmonidan don teradigan bo'ldilar. Mahshar kuni amalsizlar uning shafogatiga muhtoj va intizordirlar.

Hamma ishda u ustoz edi. U hech qachon dunyolikdan hech narsaga qiziqmagan, narsa

uchun yig‘lamas edi ham. Barcha mavjudot uning e‘tiboridadir, barcha maqsadlar uning roziligi ostidadir. Har joyda olamning siri udir, har bir dilxasta qalbiga malham ham u. Uning xosiyati shu darajada ulug‘vorki, bunday ulug‘vorlikni biror kimsa tushida ham ko‘rolmaydi. O‘zini kull (umumiy) ko‘rdi va kullni o‘zi deb bildi, orqadagini ham, oldinni ham ko‘ra bildi\*.

Haq taolo payg‘ambarlikni u bilan yakunladi — xatm etdi. - Mo‘jiza, xushxulqlilik va futuvvatni ham u bilan oxiriga yetkazdi. Da‘vatini xoslar va avomga buyurdi, o‘z ne‘matini u bilan tugatdi. Kofirlarga azob ichra muxlat berdi, uning zamonida.

Uning hashamati panohida qolgan payg‘ambarlar ummatiga ham yashash imkonini berdi. Tun yarmida uni me‘roj sari yo‘lga boshladi, kullning sirini u bilan yashirin yubordi. Izzat va sharaf ichra ikki qibla edi, uning soyasiz soyasi. Haq taolo unga eng ulug‘ kitob yubordi, ham kullning kullini hisobsiz topdi. Payg‘ambarlar ehtiromi uning me‘rojida. Muhammad ularga peshvou sarvar. U ummatlari orasidagi olimlar bamisoli nabiylarday. Uning ishlarining ehtiromu e‘tirofi Tavrot va Injilda tilga olingan. Tosh undan yuksalish qadrini topdi, u yaminalloh - Allohning o‘ng tomoni ramziy xil‘atini topdi. Hurmati yuzasidan uning tuprog‘i qibлага aylandi. Ummatida masxu nasx yo‘q. Uning tufayli butlar yiqildi, uning ummati ummatlarning eng yaxshisi.

Qurg‘oqchilik yilida qurigan quduq u tufayli zilol suvga to‘ldi, oy uning barmog‘idan yorildi, quyosh uning farmonidan tashqari emas. Uning yelkalari orasida paig‘ambarlik muhri quyoshday porlab turibdi. Ka‘ba u tufayli Baytulloh sharafini topti - unga yo‘l topgan kishilar omonlik topti. Jabrail uning qo‘lidan xirqa kiydi va jubba libosida oshkora bo‘ldi. Tuproq uning zamonida kuch topdi -ham masjid bo‘ddi va Tur tog‘i izzatini qozondi. Har bir zarraning siri unga ayon edi, savodu daftar o‘qimay barcha narsalar mohiyatini bildi. Haq tili uning tili bo‘lgach, bas, zamonasining eng yaxshisi (a‘losi) udir. Oxirgi nafasigacha, uning shavqi - istagi Allohdan savol qilardi. Sirlar - roz dengizida qalbi bexud bo‘lgach, uning to‘lqini namozda sel bo‘lib oqardi. Uning qalbi tubsiz dengiz bo‘lganidan, bu chuqur dengiz ko‘p to‘lqinlangach, ey Bilol, azon ayt, toki bu tang xayoldan chiqayin, deb aytardi.

Bunday holdan holga ko‘chishlarda agar aqlni ishlatsang, yuz jondan bir jon qolmagay. Uning xilvatida aqlga yo‘l yo‘q, ilm ham bu voqeadan ogohbo‘lolmaydi. Xilvatda u Halil (Ibrohim) bilan bazm quradi, agar o‘tda kuysa, Jabrail ham unga yaqinlasholmaydi. Jonining Simurg‘i oshkoro bo‘lgach, Muso dahshatdan musichaga o‘xshab kichrayib qoladi. Muso ul janob (Muhammad mustafo)ning bisotiga (doirasiga) kirdi (Me‘roj vaqtida hazrat Musoning ul zotga tazim qilganiga ishora).

Zul-jalol sha‘mining me‘rojida Bilol kovushlarining ovozini eshitardi, Imron o‘g‘li Muso agarchi shoh bo‘lsa ham, ammo sajdagohga kovushlari bilan borishiga unga ruxsat yo‘q

edi. Bu inoyatni koʻrki, uning mansab-darajasini Haq Uning dargohi xizmatkoriga nasib etdi. Uning chokari — xizmat-koriga oʻz dargohini ochdi, kovush bilan oʻz huzuriga kirishga ruxsat berdi. Muso bu martabani koʻrgach, uning xizmatkorida bunday qadru qimmat, yaqinlikni koʻrgach, dedi: Yo Rab, meni uning ummatidan qilgin, uning himmati himoyasiga kirgiz meni!

Garchi Muso bu hojatni tilagan boʻlsada, ammo bunday oliy maqom Isoga nasib boʻldi. Koʻnglida bu xilvatni (osmonni) tark etib, xalqni Muhammad diniga daʼvat qilish fikri paydo boʻldi. Toʻrtinchi osmondan yerga tushish, Muhammad oyogʻi ostidagi tuproqqa yuzini qoʻyib, jonini unga bagʻishlashga chogʻlandi\*. Nomi ulugʻ Maseho Muhammadning xabarchisi boʻldi, shuning uchun uni Alloh Mubashshar deb nomladi.

Agar birov: «Shunday bir odam boʻlsaki, u bu jahondan ketib, yana qaytib kelsa, bizning mushkillarimizni bir-bir hal etsa, toki dilimizda hech shak qolmasaydi» deydigani boʻlsa, (bilgilki), bu olamda Muhammaddan boshqa hech bir boshqa zot qaytib kelmadi. Hech kim u kabi qalban koʻradigan tugʻilmadi, u kabi donolik darajasiga yetmadi. U - sultondir, boshqalar u tufayli (yaratilgan), u - shahanshoh, boshqalar esa uning raiyati. Bamisli «laamrak» boshiga toj boʻldi, xalq uning eshigi yoʻlida tuproq boʻldi. Uning sochining hididan jahon mushk hidiga toʻldi, dengiz uning ishtayoqida chanqadi (qirgʻoqlarga bosh urdi). Uning diydoriga tashna boʻlmagan kim bor? Tosh-yogʻ ochlargacha uning ishi bilan bandlar. U nur daryosi minbarga chiqqanda qalblar ham nur, ham durga toʻlardi. Ustunsiz osmon ham nurga toʻldi, ustun esa uning firoqida gʻamgin boʻldi. Uning vasfini qanday qilib til bilan aytay, bunda uyatdan terlab, badanimdan qon oqadi. U olam fasohati, men esa lolu hayron, bunday ahvolda uning holini sharhlay olamanmi? Uning vasfi bu nokasning loyigʻimi, axir? Uning vasf etuvchisi xalloqi olamdir, shu yetarli emasmi!

Bu jahon barcha martabalari bilan uning oyogʻi tuprogʻidir, yuz jahon uning pok jonining tuprogʻidir. Paygʻambarlar uning vasfida hayrondirlar, sirni biluvchi dono boshlar ham ovora boʻldilar. Ey, sening kulgung tufayli oftob mavjud, sening yigʻing bulutlardan yomgʻir yogʻdiradi, ikki jahon sening oyoqlaring ostidagi gard kabidir, sen yotgan gilam — eng ulugʻ joy. Ey karamli zot, gilamingdan bosh chiqar, soʻngra gilam boʻyicha oyoq uzat. Barcha shariatlar sening shariatangda mahv boʻldi, sening farʻing (qisming)da barcha asllar yoʻqoldi. Sening sharʻing va hukming toki barqaror ekan, Iloh nomi bilan sening noming hamrohdir. Anbiyo va rasullarning jami sening dininggy kelib qoʻshilishi muqarrar. Sendan oldin sen kabi yoʻq edi, sendan keyin ham sen kabi boʻlmagay. Olamdan oldin va olamdan keyin ham. Avvalu oxir ham sensan. Hech kim sening gardingga yetmadi, hech kim senday izzatga ham erishmadi.

*RASUL SALLALLAHU ALAYHI VASSALLAMNING SHAFQATXOHLIGI*

Allohi ahad Ahmadi mursalni toabad har ikki olam xojasi deb tanladi. Yo Rasululloh, juda ham ojizu dardmandman, qo‘limda yel (shamol), boshimda tuproq (sochib) turibman. Kimsasizlarga har nafasda qo‘mak etuvchi sensan, ikki olamda sendan boshqa odamim yo‘q. Men g‘ambodaga bir nazar sol, men bechora ishining chorasi (iloji)ni qil. Garchi gunoh bilan umrim zoe‘ qildim, lekin tavba qildim, uzrimni Parvardi-gordan so‘ra.

Kecha-qunduz yuz motam ichraman, shoyad gunohlarimni shafqat qilsang. Sening eshigingdan shafqat yetsa, men osiyga toat mehri yetab kelsa (koshki). Ey shafqatxonim, kunlarim tunday. Lug‘ qilib, shafqat sha‘mini yondirgin. Toki parvonaday sening jam‘ing aro, sham‘ing aro qanot qoqib yetab kelsam. Kimki sening sham‘i jamolingni ko‘rsa, paryuna kabi jon taslim etadi. Jon diydasi (ko‘zi) uchun sening chehrangni ko‘rish kifoya, ikki olam uchun sening rizoying kifoya.

Dilim dardining dorusi sening mehri, jonimning nuri sening yuzing quyoshidir. Eshigingda jonimni tutib turibman, tilimningtig‘i (ta‘rifi) gavharini ko‘r. Tilim-dan to‘kkanim har bir gavharni, yo‘lingda jon qa‘ridan to‘kkanman. Jonimningdengizi sendan nishona bergani uchun jondan gavhar to‘kaman. Mening jonim sendan nishona topgandan keyin mening nishonim nishonsizlik bo‘ldi. Ey oliyguhar, bir qur menga boqsang deb umidvorman. Shu nazar bilan meni mahv etsang, abadiy nom-nishonsizlikda tutib tursang. Bu gumonu shirku fikrlardan meni poklasang, ey pok zot. Gunohlardan yuzimni qora qilmasang, otdoshligim-ning haqini saqlasang!. Men sening yo‘lingda ado bo‘lgan go‘dakman, mening gardim qora suvday ko‘lmakka o‘xshab turibdi. Bu qora suv hamlasidan qo‘limni tutib yo‘lga boshlasang, degan umiddaman.

*YOSH BOLASI SUVGA TUSHGAN ONA HIKOYATI*

Bir onaning go‘dagi suvga tushib ketdi, shunda onaning joni halqumiga keldi. Go‘dak hayron bo‘lib, qo‘l-oyoqlari tipirchilardi, suv uning ko‘kragigacha chiqar va haydab tegirmon novi tomon eltardi. Suv orqadan surib kelar va ul aziz go‘dak suvning ketidan oqib ketardi. U tegirmon noviga yaqinlashgach, ona buni ko‘rib, ariqlabiga borib, uni tortib oldi. Ona uni bag‘riga bosib, keyin emiza boshladi.

Ey shafqatdan onalarga ulug‘ mehr bergan, bu suvga g‘arq bo‘lishlarda og‘ir nov bor. Agar hayrat girdobiga tushib qolsam, hasrattarnovi oldiga kelib qolsam, o‘sha go‘dakday suvda nochoru hayron qolib, iztirobda qo‘l-oyoqlarim tipirchilab turibdi. Ey tul go‘daklarining mushfiq va mehriboni, karam yuzasidan o‘z xalqingga boq. Ham bizning suvga g‘arq ahvolimizni qo‘rgin va bizning azobda qolgan qo‘nglimizga rahm qil. Karam siynasidan bizga sut ber, oldimizdan karam dasturxonini yig‘ishtirib olma.

Ey ta'rifu idrokdan baland, maqgovchilar sifatidan pok bo'lgan zot, sening uzangingga qo'l yetmaydi, na qilaylikki, tuprog'ingning tuprog'imiz. Sening tuprog'ing sening pok yorlaring bo'ldilar. Olam ahli sening tuprog'ingning tuprog'i bo'ldilar. Kimki sening yorlaringning tuprog'i bo'lmasa, u sening do'stlaringni dushmanidir.

Ularning birinchisi Abubakr va oxirgisi Murtazo (Ali)dir, ular sidqu safo ka'basining ustunidirlar. Ul biri siddiqlikda sirdoshing va vaziring. Boshqasi adolatda nurli quyoshing. Yana biri xilmu hayo daryosi, yana biri ilm va safo podshosidir.

#### *BIRINCHI XALIFA ABUBAKR SIDDIQ MADHIDA*

Birinchi Xoja (Muhammad Mustafo)ning birinchi yori, payg'ambarning aziz yo'ldoshi, g'ordagi hamdamu hamnafasi, dinning qalbi (sadri), siddiqi akbar, Haqning qutbi, hamma narsada hammadan saboq olgan Haq Mustafoning muborak qalbiga Kibriyo olamidan to'kkan jam'i narsalarni Abubakr Siddiq qalbiga ham soldi. U ikki olamni bir nafasda qalbiga joylagach, tosh kabi labni mustahkam yumib, xomushlikda xushnud bo'ldi. Butun tunlar boshini (yoqasiga) yashirib, (tafakkur ayladi), yarim kechada boshini ko'tarib «huv» deya o'tli oh chekardi. Uning «huv» degan ohi mushk kabi Xitoygacha borib yetardi va Xo'tan ohusining qonini mushkka aylantirardi. Shu sababdan shariat va din oftobi (Muhammad rasululloh) «Ilmni Chinda bo'lsa ham izlab toping» deb aytdi. Tili tosh va g'orlar tiliga odatlangach. og'zi hikmat toshlariga to'la bo'ldi\*. Ilohdan o'zga nomni tilga olmaslik uchun faqat toshlar uning nafasi — yo'lini tanlagan emas. Tosh o'z viqori — ulug'vorligini yashirishi kerak, toshi yo'q odamlar ishga yararmidi? Umar uning qadridan bir soch tolasiday qadr ko'rgach, «Kani edi uning ko'ksida o'sha soch tolasiday bo'lsaydim» dedi. Sen (Umar) ikkinchi navbatda xalifalikni qabul qilding, ammo Rasuldan keyin ikkinchi odam u (Abubakr) edi.

#### *IKKINCHI XALIFA UMAR FORUQ VASFIDA*

Shariat xojasi, dinni jam' etuvchi oftob, Haqning soyasi, foruqi a'zam - ulug' ajratuvchi, dinning sham'i. U (Umar) adolat va insofni haq oldida xatm etgan, farosatda mardlardan saboq olgan edi. Avvaldan «tah» (poklik: muqad-daslik) unvoni bilan Haq taolo ulug'lagan kishi u, shu bois u mutahhar (pok, muqaddas) bo'ldi. U sirot ko'prigidan birinchilar qatorida o'tadi, Payg'ambar so'zi ila u Umar (obod etuvchi) bo'ddi. Dorussalom (jannatdan) birinchi bo'lib to'n -xil'at qo'lga kiritgan kishidir, oliy maqomingta ofarin. Din ishi uning adolatidan rivoj topti, Misrning Nil daryosi zilziladan tinchidi. U jannat sham'i edi, ammo hech kimda sham'dan soya yo'q edi. Sham'da nurdan soya bo'lmaydi, uning soyasidan devlar qochib ketdi. So'z aytganda Haq haqiqati tilidan tomardi, qalbaki oltindan haqiqiysi ajralib ko'rinardi. Gohida ishq dardidan joni o'rtanardi, gohida Haqni so'zlab tili kuyardi. Payg'ambar uning zorlanib, yonib gapirishlarini ko'rgach, dedi: «Aniqki u jannat sham'idir».

### *UCHINCHI XALIFA USMON MADHIDA*

Sunnat xojasi, mutlaq nuru, balki haqiqatda ikki nurning egasidir<sup>1</sup>. Irfon dengiziga cho‘mgan zotu, dinning peshvosi Usmoni Affondir. Imon yo‘lining taraqqiysi amiralmo‘minin Usmondan boshlandi. Ikki dunyo maydoni Usmon Zunnurayn (ikki nur sohibi)dan ravnaq topti. Hayo koni va taqvo dengizi ekanligidan Mustafo uni Yusufi soniy deb atadi. Odamlarga mehribonligidan o‘zgalar ishi uchun jonini tikardi. O‘tirgan joyida boshini kesdilar, garchi hech kimga zarar yetkizmay, doimo rahmu shafqatda edi. Uning zamonida jahonga hidoyat va ilmu hunar yoyilgan edi. Uning adli bilan imon keng tarqaldi ham hukmi bilan Qur‘on (kitob bo‘lib) tarqaldi\*. Falaklarda farishtalar sayyidlar sayyidi Usmondan uyaladilar. Ham Rasul pardalar ochilganda «Haqtaolo Usmonga qahr qilmagay» dedi. U bay‘at qabul qilayotganda hamavaqt uning qo‘li o‘rnida Rasul qo‘li bo‘lardi. Hozir kishi aytdikim, men Zunnurayndan uzoq bo‘lsam-da, ammo uning qo‘lini yuzimga surtib o‘pardim. Dunyo va din peshvosi (Payg‘ambar) dedikim: «Uning oxirat azobidan zarra xavfi yo‘q».

### *AMIRALMO‘MININ ALI IBN ABU TOLIB KARAMALLOHU VAJHAHU HAZRATLARI MADHIDA*

Haqiqat xojasi (egasi), rostlik peshvosi, ilmning koni, hilm (yumshokdik)ning dengizi va din qutbi. Kavsar havzi soqiysi, yo‘l qo‘rsatuvchi imom, Mustafo ilmining vorisi, Allohning sheri. Murtazoyu Muftabo, Ahli Baytdan -Fotimaning jufti haloli, ma‘sumlik xojasi va Rasulning kuyovi. Rahbarlikni bayon etuvchi sirining egasi Zdi. U din peshvoligiga sazovordir. U har qanday masala - muammo va bandlar, mushquklilarni yechuvchi mutlaq muftiydir. Ali Haq taolo chashmalaridan biridir, shunday bo‘lgach, qanday qilib, aql uning oldida shubha-gumonga borsin? Alining joni qozilik — hukm chiqarishda ogoh ham, u Iloh zoti sirgohi ham. Iso nafasidan o‘lik tirilgan edi, u (Ali) bir nafasda kesilgan qo‘lni joyiga qo‘yib tuzatdi\*.

Tashri qabuliga erishgan bu inson Ka‘bada Rasul orqasida turib butlarni sindirish (yo‘qotish) baxtiga musharraf bo‘ldi. Zamirida g‘ayb asrori bor edi, shuning uchun ham yaqosidan yadi bayzo — oq qo‘lini chiqardi<sup>1</sup>. Agar yadi bayzosi oshkor bo‘lmasa edi, Zulfiqor u yerda (uning qo‘lida) turarmidi? O‘z ishidan gohida jo‘shib, hayajonlanardi, gohida quduqqa o‘z sirini so‘ylardi. Butun dunyoda o‘ziga yo‘ldosh -hamdam topolmasdi, o‘z ichida (sir bo‘lib) kezardi, ammo mahram topolmasdi.

### *TAASSUB TANQIDIDA*

Ey taassubga berilgan odam, har doim sen do‘stu dushman, bizniki - sizniki deb ajratasan. Agar sen ong va lab bilan lof urar ekansan, nega endi ayirmachilik - taassubdan gapirasan? Xalifalikda mayl - xohishga qaralmaydi. Abubakr va Umarning (xalifalikka) hech bir mayl-xohishlari bo‘lmagan. Agar bu ikki rahnamoda mansab mayli bo‘lganida



edi, ikkalasi ham o'g'illarini o'rinlariga tayinlagan bo'lardilar. Har ikkalasi ham agar o'z haqini talab qilganda edi, boshqalarning (xalifa bo'lishiga) mone'lik vojib bo'lardi. Ular mone'lik yo'lga kirmadilar, man' qilish zaruratini tark etish lozim deb toptilar. Agar birov man' qilish ishiga tarafdorlik qilmasa, hammani yolgonga chiqar yoki qabul qilgin. Agar sen Rasulullohsahobalarini yolg'onchi-ga chiqarsang, unda payg'ambar so'zini durust anglamabsan\*. Holbuki, payg'ambar sallallahu alayhi vassallam dedi: «Har bir yorim — sahobam yorqin yulduzdir, eng afzal va eng yaxshi asr mening asrimdir. Odamlarning eng yaxshisi mening yorlarim. Yakinlarim va sevganlarimdir».

Agar payg'ambar sallallahu alayhi vassallam aytgan eng yaxshi odamlar sening nazaringda eng yomon bo'lsa, unda seni qanday qilib «sohibnazar» (valiy) deyish mumkin? Rasululloh sahobalari nomunosib kishini (xalifalikka haqli deb topilmagan odamni) shu mansabga munosib deb qabul qilishlari mumkin deb aytishga qanday tiling bordi? Yoki shunday nomunosib odamni ular Mustafo o'rniga o'tqazishlari mumkinmidi? Sahobalar bu botil ishni hargiz qilmasdilar. Bu ularga nisbatan tuhmat! Agar ul jamoaning ixtiyor-irodalari, so'zlari rost bo'lmasa, unda Qur'on sahifalarini jamlab kitob qilganlari ham rost emas ekan-da!

Yo'q, Payg'ambar sahobalari nimaiki qilgan bo'lsalar, rost va to'g'ridir, payg'ambar so'ziga muvofiqdir. Agar bir kishini yolg'onchiga chiqarsang (ishini xato deb bilsang), o'gtiz uch ming odamni yolg'onchilikka chiqarasan. Haq yo'lidan adashmay, faqat Haqning aytganini qilgan odam, tuyaning tizzasigacha tushovini kam qilmaydi. U qanchalarning ishini Haq sari o'nglagan (odam)dir, Haqqa manzur kishidan gumon-shubha qilma. Agar Abubakri Siddiqqa (mansab) mayli bo'lganida edi, oqillar safida hech ham bo'lmagan bo'lardi. Agar Abubakrda mansabga zarracha mayl bo'lganda edi, o'z o'g'lini darra urib jazolatmas edi. Siddiq hamma vaqt yo'lda (safarda) edi, dargoh (taxtu toj) tashvishidan ozod edi. Qizi, molini, jonini din yo'lida sarfladi, bunday odam hech qachon, zulm qilmaydi, uyalgin. Rivoyatu afsonalar changidan xoli edi, chunki aqlu zakovat mag'zi edi. Minbarda odob saqlagan (odam) o'zgalarning o'rnini egallashga intilmaydi. Buning hammasining orqa-oldi (oqibati)ni qo'ra bilgan odam uni nohaq ravishda kamsitishi, unga tuhmat qilishi noo'rin.

Yana Umari Foruqkim, adolati bisyor edi, o'zi gohida g'isht quyur, gohida tikan (o'tin) yig'ardi. O'zi o'tin orqalab keltirardi, bir diram bilan to'qqiz shaharni (piyoda) kezardi. Har kun mana shunday qafas hibsidagi edi, yetti luqma non uning taomi edi, xolos. Uning dasturxonida sirka va tuzdan boshqa narsa yo'q edi, u baytulmol (xazina)dan non yemasdi. Agar yotsa, to'shagi qum edi, belidagi charm kamarini yostiq qilardi. Saqqo (suv tashuvchi) kabi suv to'ldirilgan meshni yelkasiga ko'tarib, kechqurunlari qariyalarga suv ulashardi. Kechalari uyg'oq o'girib, lashkarini qo'riqlardi. O'zini kam tutib aytardi: «Ey, insof bilan boquvchi kishi, Umarda biror ziddiyat, nifoq ko'rasanmi, kimki mening aybimni yuzimga aytsa, menga eng ulug' tuhfa keltirgan bo'ladi», derdi. Umar xalifalikni

xato qilib (qasddan, mansabparastlik qilib), zoʻrluk bilan qoʻlda saqlaganda edi, ogʻir va dagʻal namatdan tikilgan kiyimda yurmas edi. Hech vaqt yangi libos kiymas, jun xirqasini oʻzi yamab olardi. Shohligi mana shunday faqirona boʻlgan odamni xalifalikka maylu ragʻbati bor deb aytish mumkinmi? Baʼzan gʻisht, baʼzida loy tashib, imorat qurish hasharida qatnashib yurgan odam bu azoblarni ataylab mansab uchun chekardi deyish tuhmatdan boshqa narsa emas. Agar xalifalikni kibru havo, manmanlik bilan boshqarganda, saltanat taxtida oʻtirgan boʻlardir. Uning zamonida qanchadan-qancha munkir (imonsiz)larning shaharlari imonga kirib, taslim boʻldi.

Agar shuning uchun unga taassub qilayotgan boʻlsang, insofing yoʻq ekan, oʻz olovingga oʻzing qovurilib oʻl! U (Umar) zahrdan oʻlmadi, ammo sen bu hasaddan oʻlgin, uning zahrini totima-gansan, totganingda yuz bor oʻlarding! Ey Haqni tanimagan, Haqiqatni tan olmagan (kishi), bu ishni qilma, oʻzingningxojaliging, ahvolingga boqib, xalifalikni qiyos qil. Agar sening shu xojaliging (oilangga bosh boʻlishing, ishing, mansabing) yemirilsa, gʻam chekib jigaringga ming olov oʻrlaydi. Agar ul zotlardan birov xalifalikni tortib olganda edi, yuz xil ofatni boshiga olgan boʻlardir. Toki jon badanda ekan, xalqning masʼuliyatini boʻyinga olish oson emas.

#### *UMAR ROZIALLOHU ANHUNING UVAYS BILAN SUHBATI*

Umar toʻlqinlanib Uvaysning oldiga keldi va dedi: «Xalifalikni boʻynimdan soqit qildim. Bu xalifalikka agar xaridor topilsa, bir dinorga boʻlsa ham sotishga tayyorman». Uvays Umardan bu soʻzni eshitgach, dedi: «Sen tinchlan va xotirjam boʻlgin. Har kim agar yuki yoʻlda qolganlarning yukini koʻtarib oldinga intilsa, manzilga oʻzini ham, boshqalarni ham olib boradi va eng toʻrga oʻtib qoladi. Agar amiralmoʻminin xalifalikni boʻynidan soqit qilsa, yorlari ohu nola qilib keladilar. Hammasi bir boʻlib, ey rahnamo, bu ishni qilma, deb zorlanadilar, agar bunday qilsang, Alloh haqqi, xalqni sarson qilasan. Buni sening boʻyiningga Abubakr Siddiq yuklagan, u taxminan emas, balki tahqiq qilib (tekshirib), bu ishni qilgan edi. Agar sen uning farmonidan boʻyin tovlasang, unda sendan uning ruhi, joni ranjiydi».

Bu mahkam hujjat (dapil)ni Uvaysdan eshitgan Umar, masʼuliyatni yana ham chuqurroq anglab, qattiq ishga berildi.

#### *AMIRALMOʻMININ ALI KARAMULLOHNING OʻZ QOTILIGA LUTFU MARHAMATI*

Ul badbaxt (odam) qazodan bilintirmay Murtazoni tigʻ bilan yaraladi. Ali behush boʻldi, sharbat ichirdilar. Oʻziga kelgach, «Mening qonimni toʻkkan kishi qani?» deb soʻradi. Aytdi: «Sharbatni avval unga beringlar, soʻngra menga beringlar. Chunki u menga yoʻldosh boʻlmoqchi». Qotil oldiga sharbat olib keldilar, lekin u: «Bu Alining qahridir, u meni oʻldirish uchun zahar bermoqchi», dedi. Ali dedi: «Parvardigor haqqi, agar ul nobakor bergan sharbatimni ichganda, men Haq oldida usiz jannatul maʼvoga qadam

qo‘ymagan bo‘lardim». Ul nobakor kishi agar Murtazoni o‘ldirmaganda, Murtazo usiz bihishtga kirmagan bo‘lardi.

Dushmaniga shafqati shu darajada bo‘lgan odam, nahotki Abubakr Siddiqday do‘stiga kina-advovat saqlasa. Dushmanga shuncha g‘amxo‘r bo‘lgan kishini qadimiy do‘stiga dushmanlik qiladi, deb gumonga borish mumkinmi?

Abubakr Siddiqqa Ali kabi bir do‘stni Allohysi taolo boshqa yaratmaydi. Nega buncha Murtazo (Ali) zulm ko‘rgan (mazlum) edi, xalifalikdan badarg‘a qilingan edi deb javraysan? Ali Haqning sheri va boshlardagi tojdir. Sherga kim ham zulm qila olardi, ey o‘g‘il!

*AMIRALMO‘MININ ALINING QUDUQQA SIRRINI AYTGANDA, QUDUQ SUVI QONGA AYLANGAN*

Muhammad Mustafu sallallahu alayhi vassallam yo‘lda bir joyda to‘xtab, lashkarga quduqdan suv chiqarib beringlar, deb buyurdi. Bir odam quduq oldiga borib, yana zudlik bilan qaytib keldi va «Quduqto‘la qon, suv yo‘q», deb xabar berdi. Mustafu sallallahu alayhi vassallam dedi: «Anglagil, Murtazo dardu ishlari, asrorini quduqqa so‘ylamish. Quduq uning dardu hasratini eshitgach, toqat qilolmasdan suvi qonga aylandi».

Jonida shunchalik hayajon va dardi bo‘lgan odamning dilida kina va hasad bo‘ladimi? Axir u besabab chumoliga ozor bermagan-ku! Sening joning tarafkashlik, hasad ichra qaynaydi, ammo Murtazo joni bunday bo‘lmagan, og‘zingni yum! Murtazoni o‘zingga qiyos qilma, zero ul Haqparast Haq ishqida g‘arq edi. U (Alloh yo‘lida) ish bilan shunchalik g‘arq ediki, senga o‘xshaganlarning fikru xayolidan bezor edi. Sen kina-advovatga berilgansan. Murtazo esa Payg‘ambar xayli oldida jangda mardonalik ko‘rsatardi. U senga o‘xshagan tarafkashlardan o‘n chandon mardonaroqedi, biroq hech kim bilan behuda tarafkashlik jangiga kirishmadi.

Siddiq ham, Umar, Ali ham Haq eranlari edilar va haqni tilardilar, ular hech qachon o‘zaro advovatda bo‘lmaganlar. Ularning maqsadlari ahli mo‘minni birlashtirish edi, ajratish, janjal va fitnalar qo‘zg‘atish emas edi.

Mo‘minlar oldida din xayri yo‘lidagi harakatni hech kim Haydar (Ali)chalik istagan emas. Holbuki u qanchadan-qancha jang va fitnalarni ko‘rdi, fitnachi qavmlarning qanchasini zo‘r bilan bartaraf etdi.

Ey (taassubchi) o‘g‘lon, sen Alidan bexabarsan, «Ali» so‘zidan «ayn», «lom» va «yo» ni bilib olgansan, xolos. Sen o‘z joning ishqiqi g‘amidasan, Ali esa o‘zgalar joniga yuz jon fido qilishga tayyor odam edi.

Agar sahobalardan biri o'ldirilsa, pahlavon Haydar (Ali) behad g'am chekardi: nega men ham o'ldirilmadim, aziz jonim ko'zimga xor ko'rinmoqqa, deb aytardi. Rasul aytardi: Ey Ali, nima bo'ldi, sen Haqning gurzisidan, kofirlar boshiga tushadigan, ammo joning ipakdan ham muloyim.

#### *BILOLNING AHVOLI*

Bir kuni mushriklar Bilolning nozik taniga yuz cho'p urdilar, beaded tayoq zarbidan tanasidan qon oqa boshladi, ammo har zarbdan keyin «Ahad», «Ahad» deb aytardi. Agar oyog'ingga to'satdan bir tikan sanchilsa, yo'lingda sevgi va g'azab qolmagay. Sahobalar, xalifai roshidinlar ana shunday edilar, sen esa unday emassan, sen taassub va ozor berishni xush ko'rasan, shu uchun qavmni ergashtirolmaysanl. Sening ziyoningdan butparastlar qutulib qoldilar (ko'paydilar), tilingdan esa sahobalar ranjiydilar. Behuda gaplar bilan devonni qoralama, agar tilingni tiysang — yutuq seniki bo'ladi.

#### *CHAHOR YORLARNING JON FIDO QILISHDAGI ITTIFOQI*

Xoh Ali bo'lsin, xoh Siddiq bo'lsin, har birining joni Alloh-yi taolo zikru fikriga cho'mgan edilar. Agar Mustafo sallallahu alayhi vassallam bilan g'orda Abubakr bo'lsa, Murtazo kechalari payg'ambar yonida uxlardi, toki bu ulug' insonning joniga ziyon yetmasin deb, jonini unga bag'ishlagan edi. Siddiqham g'orda Mustafo yori bo'lib, jonini joniga tikkan edi. Har ikkalasi Payg'ambar uchun jonbozlik ko'rsatardilar, uni asrab joniga jon bilan hamdam bo'ldilar. Sen ana shunga taassub qil (shundan o'rnak ol), ularning mardligini qara va ibrat olginki, har ikkisi Jononga jon bag'ishladilar. Agar sen ham mard bo'lsang, ana shu mardlar qilgan ishni qil, ular kabi jon bag'ishlashni fikr qil yoki jim turib, o'zga fikru andeshadan voz kech.

Ey o'g'il, sen Ali yo Abubakrni bilasan, biroq Alloh, aql va jondan bexabardirsan. Sen bu behuda voqealar, gaplarni bahridan o'tib, Robia kabi kecha-kunduz Haqning oshig'i bo'lg'in. U bitta ayol edi, yo'q-yo'q, u yuzta erkakdan afzal edi. Oyog'i uchidan to boshining farqigacha dard edi, dard! Undan birov so'radi: «Ey ohu nolasi qabul bo'lgan zot, sen Rasululloh yorlari haqida nima deysan?» Dedikim: «Men Haq (Yor) yodidan o'zimga kelolmasman, qanday qilib yorlardan xabar berayin. Jon-dilim Haqyodida mahv bo'lgandan keyin, xalqyodi bilan nima ishim bor. Men shundaymanki, joynamoz ustida sajdaga borganda ko'zimga tikan kirib qolib, yerga qon oqdi, ammo men o'z qonimdan bexabar edim, ana shunday dardi bo'lgan kishining odamlar bilan kancha ishi bor. Haqni taniydigan bo'lganimcha, boshqalarni qiyos qilib tanirdim, endi tanimasman».

Sen bu yo'lda Alloh ham, Rasul ham emassan, bu raddu qabul (inkor va tasdiq)dan qo'lingni tort. Birovlarning ishiga aralashish, ajratish va qo'shishlar, tasdiq va inkorlardan pok bo'l, sen bir hovuch tuproqsan, bu yo'lda (Haq yo'lida) tuproq bo'l. Bir hovuch tuproq ekansan, tuproqdan gapir, barchani pokiza deb bilib, pok degin.

*PAYG‘AMBAR SALALLOHU ALAYHI VASSALAM SHAFUATI*

Payg‘ambari oxir zamon (me’roj tuni) Parvardigordan ummatimning ishini menga topshir, deb so‘radi. Toki ummatimning gunohidan hech kim xabar topmasin. Haqtaolo dedi: «Ey ulug‘ Payg‘ambarim, agar sen bul gunohni behisob ko‘rsang, unga chidash berolmaysan, hayron bo‘lib qolasan. Uyatdan yashirinib olasan. Bibi Oishakim, senga jon kabi edi, bir bo‘hton oqibatida dilingga shubha dardi bo‘lib qadaldi, sen ahli majoz so‘zlarini eshitding, so‘nfa uni avvalgiday o‘z joyiga yubording (kechirib, pokiza tutding). Shuni bilki, ummating orasida gunohkorlari ko‘p. Sen bu barcha gunohlarga chidash berolmaysan, ummatingni Allohga topshir. Agar sen jahonda ummating gunohidan boshqalar xabarsiz qolishini istasang, ularning gunohidan sen ham xabarsiz bo‘lishingni istayman. Sen oyoqni tirama va yuzingni yonga burma, ummatning ishini kecha-kunduz menga topshir. Ummatning ishi Mustafo ishiga o‘xshamaydi, bu ish sening hukmingdan o‘nglanmaydi. Hukm etishni qo‘y va tilni tiy, taassub (tarafkashlik)ga berilma va yo‘lingga qayt? Ular (qolgan payg‘ambarlar) qilgan ishni qilgin, salomat borib, o‘z yo‘lingdan qolma», dedi.

Ey, shubhaga berilgan odam. Sen ham Payg‘ambar shafuatidan umid qilsang, Siddiq kabi sadoqat bilan qadam qo‘ygin yoxud Foruq kabi adolatni ixtiyor et. Yoki Usmon kabi hayoli va halim bo‘l yoki Haydar singari saxovat va ilm dengiziga aylan. Yoki xomush bo‘lib, mening pandimni eshitib, ketaver. Oyog‘ingni ko‘tarib, boshingni saqlab yuraver. Sen sidqda Abubakru ilmda Haydar kabi mard emassan, nafs mardisan, shu bois xam har zamon kofirroqsan. Kofir nafsingni o‘ldir, mo‘min bo‘lgin, nafsni o‘ldirgan bo‘lsang, endi xotirjam va omonlikdasan. Taassub (tarafkashlik)da bu behad so‘zlarni so‘zlaysan, o‘zboshimchalik bilan payg‘ambarlik qilasan (payg‘ambar nomidan gapirasan). Shar‘ingda qabul qiladigan so‘zing bo‘lmasa, Rasulning yorlaridan so‘zlashga nima haqqing bor?

Ey Alloh, meni bunday behuda so‘zlar aytishdan, yo‘q, taassubchilar, mazhabparastlarga qo‘shilishdan saqla! Mazhabparastlikdan jonimni pok qilg‘il. Koshkiydi bu qissa devonimda (kitobimda) bo‘lmasaydi!

*BIRINCHI MAQOLA - QUSHLARNING SIFATI  
KAKLIKKA XITOB - DOSTONNING BOSHLANISHI*

Ey yo‘lboshchi bo‘lgan Hudhud, marhabo, haqiqatda, har bir Vodiyning xabarchisi bo‘lgan, marhabo. Ey, Sabo chegarasiga sayring xushdur, Sulaymon bilan suhbating ham xushdur. Sen Sulaymon sirlarining sohibisan, shuning uchun senda faxrlanish toji bor.

Devni zindonda band qilib tur, Sulaymonga munosib bo‘lib sirni saqla. Devni (nafsni)zindonband qilganingda Sulaymon bilan G‘ayb soyaboni qasdida parvoz etajaksan.\*

*MUSICHAGA XITOB*

Ey Muso sifatli janob musicha, o‘rningdan turib ma’rifat haqida musiqor (asbobini) chalgin. Musiqashunos odam jon-dildan Xilqat lahni ovozing asosini musiqa qilib oladi. Sen Muso kabi Tur tog‘ida olov — mash’alani ko‘rgansan, axir. Ham jafogar Fir’avndan uzoqlash, ham kuylashda Tur tog‘i qushi bo‘lgin, tilsiz va hayajonsizni aqlsiz angla va quloq solib, nayni eshit.

*TO‘TIGA XITOB*

Ey Tubi daraxtida o‘tiruvchi To‘ti, marhabo, sening kiyiming harir shohi, tavqing (bo‘yinbog‘ing) esa olovday qizg‘ish rangda tovlanadi. (Ammo) olov rangli tavq do‘zax uchundir, harir esa jannatdan nishona beradi. Halil (Ibrohim) singari kimki Namruddan qutulgan bo‘lsa, olov o‘rtasida ham bemalol o‘tirishi mumkin. Namrud boshini qalam boshini kesganday kesib tashla, Halilullohday olovga qadam qo‘y. Namrud vahshatidan pok bo‘lsang agar, harir kiiimingni kiy, u holda olovday bo‘yinbog‘ing qo‘rqinchli emas.

Ey olijanob Kaklik, haq yo‘lida hormay xirom et, irfon ko‘chasida noz bilan sayr et. Bu yo‘l ravishini qahqah etib, dadil yur. Baytulloh sandoni (temirchilarning temir kundasi) uzra halqa urib joy olgin. Qashshoqlikdan o‘z tog‘laringdan voz kech, toki tog‘ingdan urg‘ochi tuya chiqsin\*. Agar yosh urg‘ochi tuyani topib egallasang, sut va asal arig‘ining oqishini ko‘rasan. Agar masalliq kerak bo‘lsa senga, tuyangni hayda, u tuya o‘zi solih (komil) inson qoshiga olib boradi.

*QARCHIG‘AYGA XITOB*

Ey qanotlari chiroyli, ko‘zi o‘tkir qush, marhabo, qachongacha g‘azabli, tund bo‘lib yurmoqchisan? Azal ishqini nomasini oyoqlaringga bog‘la va bu bandni toabad yechma. Tug‘ma aqlingni Ko‘ngilga almashtir, toki abad va azalni bir deb tushungil. Mardlarcha tabiat chorcho‘basi — to‘rt unurni sindirgin va Vahdat g‘ori ichidan joy olgin. G‘orda qaror topganingdan keyin, Sadri olam (Muhammad Mustafo) g‘orda sengayorbo‘lg‘usi.

*DURROJGA XITOB*

Ey, olijanob Alast me’roji Durroj(qirg‘ovul) «bale» farqida alast tojini ko‘rgansan. «Alast» ishqini jon bilan eshitding, nafsni «bale»dan bezor qilgin. Negaki nafsning «bale»si (ha deb turishi) balo girdobidir, sening ishing axir girdobda o‘nglanadimi? Nafsni Iso eshagiday yondirib tashla, keyin xuddi Iso kabi jonni Jonongatopshirgin. Nafs eshagini yondirib, jon qushini erkin parvoz ettirgin, toki senga Ruhulloh (Jabrail) peshvoz chiqsin.

*BULBULGA XITOB*

Ey ishq bog'ining bulbuli, marhabo, ishqning dardu dog'idan bir nola qil. Dovud kabi dilning dardidan yoqimli nola et, toki oshikdar har damda yuz jonni bag'ishlasinlar. Ma'nida Dovudiy bo'g'zing (halqing)ni och, halquming kuyi bilan xalqqa yo'l ko'rsat. Shum nafs yo'liga bog'lanishni qo'y, Dovud kabi o'z temiring (vujuding)ni mumga aylantir. Agar o'sha temiring (vujuding) mum kabi yumshasa, sen ishqda Dovud kabi qiziysan.

*TOVUSGA XITOB*

Ey sakkiz eshik tovusi, marhabo, yetti boshli ilon zaxmi (yarasi)dan quyding. Bu ilon bilan birga bo'lish qoningga ta'sir etib, seni jannatdan quvib chiqardi. Tubi daraxtini yo'ldan oldirdi, tabiat bandiga solib, sening qo'nglingni qora qildi. Toki sen shu ilonni o'ldirmasang, ushbu asror (ilohiy sirlar)ga oshno bo'lolmaysan. Agar sen shu palid ilondan xalos bo'lsang, Odam seni o'zi bilan jannatga olib kiradi.

*TAZARVGA XITOB*

Ey uzoqni ko'ruvchi zebo husnli Tazarv (Tustovuq), marhabo, kelgin, ko'ngil chashmasini nur dengiziga cho'mgan holda ko'r. Ey zulmat qudug'ida qolgan, tuhmat qamoqxonasida muftalo bo'lib qolgan, o'zingni bu qorong'u quduqdan qutqar va Rahmoniy arsh (ostidan) boshingni chiqar! Yusuf kabi o'zingni zindon va quduqdan olib chiq, toki Izzat Misrida podshoh bo'lg'aysen. Agar shunaqa mamlakatni zabt eta olsang, Yusufi siddiq senga rahbar bo'lg'uvsi.

*QUMRIGA XITOB*

Damsozu xushnavo qumrining ovozi keladir. U shod borib, yana diltang(xafa) bo'lib qaytadi. Xafaligingning sababi qon ichra qolganing Zunnunning ziqligi hibsida qolganing uchundir. Ey, nafs nahangi yo'lida sargardon bo'lgan. Qachongacha badxohlik azobini chekasan, ul badxoh (yomon yo'lga boshlovchi) baliqning boshini uz, toki oyning boshini silashga (oyga ko'tarilishga) qurbing yetadigan bo'lsin. Nafsing nahangidan qutula olsang, ulug'lik masnadida (taxtida) Yunusga hamdam bo'lasan.

*FOXTAGA XITOB*

Marhabo, ey foxta (choliqushi), qo'shig'ingni boshla, toki yetti osmon boshingga gavhar (nur) sochsin. Bo'yningda vafo bo'yinbog'i bor ekan, bevafoqlik qilishing mumkin emas. Vujudingdan toki bir tuk boqiy qolar ekan, seni boshdan-oyoq bevafo deb atayman. Agar botiningga sho'ng'ib, o'zingdan qutilib chiqsang, ma'no sari aql bilan yo'l topa olasan. Aql seni ma'nolar olamiga olib kelgach, Xizr senga tiriklik suvini ichiradi.

### *QIRG'YGA XITOB*

Qah-qah qilib qarchig'ay parvoz qiladi, u boshini qutarib (mag'rur) uchib, yana boshini egib kelayotir. Boshingni pastga tushurdingmi, mag'rur (itoatsiz) bo'lma. Tumshuq qonga botganidan keyin tan berganing ma'qul. Sen dunyo o'laksasining asirisan. Shu bois ham uqbo (oxirat)dan mahrum bo'lib qolgansan? Dunyodan ham, uqbodan ham kech, keyin kuloh (toj)ni boshingdan olib qaragin. Agar ikki olam ilinjidan kechsang, sening joying Iskandar qo'li bo'lardi.

### *OLTIN QANOTLI QUSHGA XITOB*

Ey, oltin qanotli qushim, xush kelibsan, marhabo. Ishga qizg'in kirishib, olovday bo'lib yashna. Oldingga nima kelsa issig'ing bilan yondir, jon ko'zini maxluqot olamidan bir yo'la yumgil. Agar nimaki oldingga kelsa, kuydirsang, Haq taolo nuri shuncha senga ko'proq yog'iladi. Ko'ngling Haq asroridan voqif bo'lgach o'zingni ham Haq ishidan voqif et. Haq ishida yetuk qushga aylansang, unda sen qolmassan, balki (Haqqa aylanib) Haq qolur, vassalom.

### IKKINCHI MAQOLA

#### *SIMURG' TALABIDA HUDHUDNING QUSHLARGA DEGANI*

Jahon qushlari yig'ilib, majlis qurdilar va yashirin ham oshkora fikrlarini o'rta tashladilar. Dedilarki: bu zamonda hech bir shahar yoki mamlakat podshohsiz emas, shunday bo'lgach, nega bizning mamlakatimizda shohyo'q, bundan keyin biz shohsiz yasholmaymiz, shoh bizga rahnamolik qilishi, boshimizda soyabon bo'lishi lozim. Endi, kelinglar, bir-birimizni qo'llab-quvvatlab, podshoh talab qilaylik. Negaki yurt podshohsiz bo'lsa, mamlakatda va qo'shinda intizom va tartib bo'lmaydi. Shunday qilib, barcha qushlar bir joyga to'planib, shoh qidirishga jazm etdilar.

Ko'ngli Alloh yodi bilan band, Alloh diydoriga intizor Hudhud ular o'rtasida yetakchi bo'ldi. Hudhud egnida tariqatning harir kiyimi, boshida esa haqiqat toji bor edi. Uning zehni o'tkir, har narsani tez tushunardi, yomon va yaxshi ishlardan ogoh edi. Hudhud dedi: Ey qushlar, men hech shubhasiz, Alloh huzuridan keldim va g'ayb ishlaridan xabardorman, aslu naslimga ko'ra sirlar egasidirman. Minqori (tumshug'i)da «Bismilloh» yozilgan kishi ilohiy sirlarga sherik bo'lishi ham haqiqatdan uzoqemas. Uz g'amnm bilan birga yashayman, hech kimning men bilan hech bir ishi yo'q. Men jahon xalqlaridan ozodman, xalq ham, shubhasiz, mendan ozodtsirlar. Menki Podshohdardida mashg'uddirman, sipoh (qo'shin) g'ami bilan ishim yo'q. Oxirat g'amim bilan qo'rquvda g'arqman, bundan-da boshqa sirlarni saqlayman.



Sulaymondan avval soʻz aytdim, Sulaymon qavmidan oldin kelgandirman. Kimki mulkidan ajraldi (gʻoyib boʻldi), keyin bu mulkni soʻrab-surishtirmadi. Men, bu (mulk)dan qutulgandan keyin, har yoqda uning talabgorlari paydo boʻldi.

Sulaymon nomasini (Bilqisga) olib borib, qaytib keldim, Uning oldida parda orqasida turib sirlashdim (suhbatlashdim). Kimki Paygʻambar alayhissalom talabgori boʻlsa, boshiga toj qoʻysa (boshlarga toj boʻlsa) arziydi. Kimki ezgulikda Alloh yodiga tushsa, uning boshi atrofida aylanishga biror qushning parvozi yetarmi? Yillardirki, dengiz va quruqliklarda kezarman, oyogʻim yerda, ammo boshim (tafak-kurim) bilan yoʻl bosardim, vodiylar, togʻu choʻllarni kezganman, olamni toʻfon paytida aylanganman. Sulaymon bilan safarlarda birga boʻlganman. Olam maydonini chunon kezib chiqqanman. Oʻz Podshohimni tanib olganman, ammo Uning oldiga yolgʻiz borolmadim\*.

Bas, agar menga yoʻldosh boʻlsangiz, Sizga yoʻl koʻrsatay, toki ul Shohning va Uning Dargohining mahrami boʻlgaysiz. Oʻz xudbinliklaringizdan, gʻam, tashvish va dinsizlikdan qutularsiz. Unga oshiqkishi oʻzjonidan kechadi. Oshiq jonon yoʻlida yomon-yaxshidan kechadi. Jonni sarflab, yoʻlga qadam qoʻying, oyoq bilan yurib, boshni Ul Dargohga qoʻying. Hech shubhasiz bizning Podshohimiz bor, ammo Uning makoni Qof togʻi orqasidadir. Uning nomi Simurgʻ — U Qushlar sultoni, U bizga yaqin, ammo biz Undan xiyla uzoqmiz. U izzat Humoyi oromdadir (barqarordir). Uning nomini har qanday til atashga haddi sigʻmaydi. U yuz mingdan ortiqparda ichradir, u nur va zulmatdan ham balanddadir. Ikki olamda hech bir kishi Undan bahra olishga jurʻat etolmaydi. U abadul abad Mutlaq Podshohdir, oʻz izzatiga gʻarqdir.

Aql U turgan joyga parvoz etolmaydi. Ilm va aql u tur-gan joyga yetolmaydi.

Yuz ming odamlar Undan savdoyi-devona. Uning vasfu taʼrifi faqat pok jonlarga munosib. Aqlda Uni idrok etish quvvati yoʻq. Nima qilaylik, (bu yoʻlda) akd ham, jon ham xiralashadi. Uning sifatlarini koʻrolmay, koʻzlar nuri ketdi. Hech bir dono Uning kamolini koʻrgan emas, hech bir koʻzi oʻtkir ham Uning jamolini koʻrgan emas. Uning kamoliga maxluqot yoʻl topolmaydi. Ilmu donish hayf ketadi. Koʻzlar nurini yoʻqotadi. Odamlarning toifalarida Ul kamol va Ul jamol haqida yigʻishtirib kelsang, bir hovuch xayol bor, xolos.

Xayol bilan bu yoʻlni bosib oʻtish mumkinmi, mohiyga qarab mohni — baliqqa qarab oyni idrok etib boʻladimi? U yerda yuz ming bosh koptok (goʻy)day sargardon, yuz minglab hoy-hoy va hay-huvlar (yaʼni soʻzlar, ovozlari) u yerda iza yoʻqolgan. Yoʻlda qancha daryo, qancha quruqlik bor, yoʻl yaqin ekan deb sira oʻylama. Bu yoʻlni bosib oʻtadigan sherday mardlar kerak, chunki yoʻl uzoq, daryo va dengizlar esa gʻoyat sertoʻlqin, chuqur va xavfli. Bunday paytda hayronu oshufta xrla yuraman, Uning

yo'lida goh yig'lab, kulib, devonalarday boraman. Agar Undan bir nishona topsam — baxt meniki, agar topmasam, Usiz yashash menga ulug' baxtsizlik, ordir. Jononsiz jonning nimaga va kimga keragi bor? Agar sen mard bo'lsang, Jononsiz jonni saqlama.

Butun bu yo'lni jonsiporliq bilan bosib o'ta olgan marddir. Chunki bu Dargohga jondan kechganlar musharraf bo'la oladi. Mardlarcha jondan ilik yuvmoq darkor. O'shanda seni ilmiga amal qiluvchi - Allohga sodiq odam desa bo'lur. Jononsiz jon hech narsaga arzimaydi, mardlar kabi aziz joningni nisor et! Agar sen mardlar misoli joningni bag'ishlasang, unda Jonon ham senga jon nisor etajak!

#### *SIMURG' ISHINING BOSHLANISHI*

Simurg' ishining ajablanarli boshlanishi shu bo'ldiki, U yarim tunda Chin mamlakati ustidan jilva bilan uchib o'tdi. Chin mamlakati o'rtasida undan bir par (pat) tushdi va undan barcha kishvarlar: yurt va viloyatlar nurga go'lib, hayajon va g'avg'o ko'tarildi. Har bir odam ul pardan bir naqsh oldi, kimki bu naqshni ko'rgan bo'lsa, ajoyib nasiba oldi. Ul par Chin mamlakatining suratxonasidadir\*.

Agar Uning parining naqshi ayon bo'lmaganda, jahonda bu g'avg'olar bo'lmas edi. Bu san'at va go'zalliklar asari Uning farri-nuridandir. Dunyo naqsh-suratlarining hammasi Uning parining naqshi-nuridandir. Uning ta'rifi-tavsifining boshi va oxiri ko'rinmaydi. Bundan ortiq so'z aytish munosib emas. Endi har qaysingizki, yo'lga kirgan mard yo'lovchioiz, boshni shu yo'lga fido qilib, oyoqni olg'a bosing.

Barcha qushlar Simurg' dargohi haqida eshitdilar va Uning ulug'vorligidan beqaroru betoqat bo'ldilar. Uning shavqi ular joniga tahchika, hayajon soldi, har biri o'zicha besabru betoqat bo'la boshladi.' Hammasi bu yo'lga kirib, maqsadga erishish uchun chog'landilar. Uning oshig'i va o'z vujudlarining dushmaniga aylandilar. Ammo yo'l chunon yiroq va xatarli edi, kimki bu yo'lga kirsar ranju azob chekardi. Garchi har biri bu yo'lni bosib o'tish talabida bo'lsa ham, (lekin uqubatlarni ko'z oldiga keltirib) bir-bir o'z uzrlarini bayon qila boshladilar.

#### *UCHINCHI MAQOLA* *BULBULNING UZRI*

Shaydo bulbul mastlarcha o'rta chiqdi, ishqda o'zini yo'qotgan, aql ham uni tark etgan. Har ovozida ming ma'no bor, har bir ma'no zamirida bir jahon roz-sir bor edi. Maoniy asrorida nola qilardi. Qolgan qushlar uni ko'rib, so'zga og'iz ocholmasdi. Bulbul dedi: «Ishq siru asrori menda oxiriga yetgan, har kecha ishq kuyini takrorlab kuylayman. Dovuddan o'zga bir ishqiboz, boshiga ishqishi tushgan bormi, toki unga ishq

«Zaburiy»ni so‘ylab beray. Nayning zorlanib figon qilishi mening so‘zimdandir, changning nolalari kuchi nolamning zo‘ridandir. Gulistonlarning kuy-qo‘shiq-lari avji men tufayli, oshiq-lar qalbidagi hayajon mendandir. Har zamonda o‘zga bir sir oshkoro etaman. Har lahzada o‘zga ovozda kuylayman. Ishqhar lahza kuchayib, daryo kabi jonimga to‘lqin soladi. Kimki hayajonli xonishlarimni eshitsa, holimni ko‘rsa, o‘zini yo‘qotadi, hushyor oldimga kelsa, mast bo‘ladi. Yillar davomida o‘zimga biror mahram topolmayman. O‘z-o‘zim bilan suhbatdaman, biror kishiga sirrimni aytmay-man. Mening ma‘shuqam (gul) navbahorda o‘z xushbo‘ylarini olamga taratgach, men uning jamolidan dilimni yayrataman, uning tal’ati — yuzidan mushqulimni hal etaman. Ma‘shuqam so‘lib, yashiringach, bulbul nolasi ham kamayadi. Chunki, sirrimni boshqalar anglamaydi, bulbulning sirrini gul biladi, xolos. Men gul ishqida shunchalik g‘arqmanki, hatto o‘z vujudimni - borlig‘imni butkul unutaman. Boshimda gul ishqiqi savdosi yetib ortadi, zero ra’no gul ma‘shuqamdir, shu bois menda biror Simurg‘ni izlashga toqat yo‘q, bulbulga gul ishqiqi kifoya. Menga sadbarg (atir gul) kabi dildor bo‘lgach, behosil ishni nima qilaman? Gul hali dilkash bo‘lib ochilsa, mening ham ko‘nglim yayrab, yuzimga kulgi yuguradi. Gul yaproq-pardalar ostidan bosh ko‘targach, uning xandon chehrasi mening ham yuzimda aks etadi. Axir bulbul bunday xandon chehra va go‘zal labdan bir kecha ham xoli (ayriliqda) turolmaydi-ku!

#### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud Bulbulga dedi: «Ey surat bandida qolgan, buncha ham ra’nolar ishqidan lof urma! Gul yuzning ishqiqi seni zor qilibdur, har bahor yangilanib, oshufta etib o‘ziga zor qilibdur. Gul juda sohibjamol bo‘lsa ham, uning husni bir haftada zavol topadi. Biror narsa tufayli zavol topadigan ishqni komillar ishqdemaydilar va bunday ishqdan bezorlar. Gulning kulgisi garchi seni tikanga (xorlikka) tortgan bo‘lsa-da, lekin kecha-kunduz nola chekishingga sabab bo‘ldi. Guldan va uning ishqidan voz kech, zero gul har bahorda senga jilva qilib kuladi, uyal bundan. Agar senda uyat bo‘lganida edi, gulning yuziga faqat g‘azab bilan qaragan bo‘larding\*.

#### *TO‘RTINCHI MAQOLA*

#### *SHU MA’NODA HIKOYAT*

Bir podshoning oydek bir go‘zal qizi bor edi. Butun olam yigitlari unga oshiq edilar. U bir fitna manbai edi, chunki yarim uyquda bo‘lgan xumor ko‘zlari mastona boqib, dillarni maftun etardi. Yuzi kofurday oq, zulflari mushk kabi qop-qora va xushbo‘y edi. Obi hayot uning lablari armonida qurib qolgan edi. Agar jamolidan bir zarra ko‘rinsa edi, Aql o‘zini yo‘qotib, shaydo bo‘lardi. Agar shakar bu qiz labining ta‘mini totiganda edi, xijolatdan erib, yonib ketardi.

Qazoi taqdir bo‘lib, bir darvesh yo‘lda ketayotib, ko‘zi shu go‘zalga tushib qoldi. Bu sho‘rlikning qo‘lida yarimta qotgan non bor edi, uning joni novvoyda qolgan edi. Uning ko‘zi ushbu oyyuzga tushganda, qattiq noni qo‘lidan yo‘l ustiga tushdi. Ul qiz gadoning oldidan olovday o‘tib ketdi, unga qarab iliq kuldi va xushhol o‘tib ketdi. Gado ul oying kulgusini ko‘rgach, hushidan ketib, yo‘l uzra yiqildi va tuproqqa belandi. Miskin gadoning yarimta noni va yarimta joni bor edi, bir zamonda har ikkisidan ham ajraldi. Na kecha, na kunduzlari qarori bor edi. Yig‘i va o‘rtanish zo‘ridan gapira olmasdi. Ul go‘zalning kulgisini eslardi, navbahor bulutiday ko‘z yoshi to‘kardi. Alqissa, yetti yil shunday oshufta hol edi, qizning ko‘chasida itlar bilan birga yotardi. Qizning qullari va xizmatkorlari hammasi bundan voqif bo‘ldilar. Ular birgalashib, gadoni o‘ldirish rejasini tuzdilar. Shunda buni bilgan qiz gadoni xilvatga chorlab dedi: «Sen kabi gadoga menday qizning juft bo‘lishi aqlga to‘g‘ri kelmaydi. Seni o‘ldirish payiga tushganlar, qochib ket, joningni qutqar. Bunaqa ostonamda o‘tirma, tur, ket».

Ul gado dedi: «Men seni ko‘rib, ishqingda mast bo‘lgan kunimdan beri jonimdan umidimni uzganman. Men kabilardan yuz mingtasining joni yo‘lingda har soatda fido bo‘lsin. Agar menday begunohni o‘ldirmoqchi bo‘lsalar, bitta savolinga lutf etib javob ber. Meni shubhasiz boshimdan judo qiladilar, ayt-chi, nega menga qarab kulding?»

Qiz dedi: «Seni haqir va aftoda, behunar, ojiz ko‘rib, soqolingga kulgim keldi, ammo sening yuzingga kulish xatodir». Qiz shunday deb tutun kabi darvesh oldidan g‘oyib bo‘ldi. Nimaiki bor edi. yo‘q bo‘ldi, go‘yo aslida hech narsa yo‘q edi\*.

#### *TO‘TINING UZRI*

Og‘zini shakarga to‘ldirib pistoqi libos va oltin rangli tavqi bilan To‘ti o‘rtaga chiqdi. Har bir shohda uning parron toshidan nishona bor. Har yerda uning paridan yashillik qoidasi tuzilgan. So‘zlaganda guftoridan shakar tomar, shakar yeyishga ham chaqqonu uddaburo edi. Dedi: «Har bir toshyurak va nokas menga o‘xshaganga temir qafas yasaydi. Men ana shu temir zindonda qolganman, Xizr suvi orzusida o‘rtanuvchiman. Qushlarning Xizriman, shu bois kiyimim yashildir. Iloji boricha Xizr suvini ichib to‘ymoqchiman. Men Simurg‘ yonida toqat qila olmayman, menga Xizr chashmasidan bir qultum suv bo‘lsa, shunga qanoat qilaman.

#### *DEVONA VA XIZR HIKOYATI*

Bir oliy maqom devona bor edi. Xizr unga qarab dedi:  
— Ey komil mard, menga do‘st bo‘lishni xohlaysanmi?

Devona dedi:

— ...Sen bilan mening ishim yo‘q. Negaki, sen joningni uzoq saqlash, ya‘ni abadiy umr ko‘rish uchun tiriklik suvini ichgansan. Men esa jonni tark etishni istab turibman, chunki

jononsiz jonimdan halovat topolmayapman. Sen kabi jonni saqlashga tirishmayman, balki har kun jonni fido qilishga tayyorman. Yaxshisi shuki, qushlar tuzoqdan qochganday, men va sen bir-birimizdan uzoqpashaylik, vassalom.

BESHINCHI MAQOLA  
*TOVUSNING UZRI*

Keyin oltin rang bilan tovlanib, Tovus o‘rtaga chiqdi, parlaridagi naqshlar yuz ming xilda jilvalanardi. U, kelinlarday jilva qila boshladi, qanotlaridagi har bir par alohida jilolanardi. Dedi:

— G‘ayb naqqoshi mening naqshimni chiza boshlaganda, xitoyliklarning qo‘l panjalari qalam bo‘ldi, (ya‘ni xitoyliklar rasm-naqsh chizishni mendan o‘rgandilar). Garchi men qushlarning Jabrailiman, ammo taqdir shuki, mendan yomon ishlar ham sodir bo‘lgan. Men bilan bir joyda yovuz ilon do‘st bo‘ldi. Shuning oqibatida xor bo‘lib jannatdan quvildim. Mening joyimni ko‘ngil xilvati, deb tayin qildilar, oyoqlarimning kishani o‘z oyoqlarim bo‘ldi. Mana shu qorong‘u joydan jannatga eltuvchi bir rahbar topishni istayman. Men Sultonga yetishadigan qushlardan emasman, eshik qo‘riqlovchisi bo‘lolsam — shunga roziman. Simurg‘ning men bilan qanchalik ishi bor. Menga firdavsi a‘lo bo‘lsa bas. Jannatga yana bir marta yo‘l bersaydi, murodimga yetardim, dunyoda boshqa umidim yo‘q.

*HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey yo‘lini yo‘qotgan jon, ul Podshoh uyini (jannatni) istar ekansan: kelgin va Unga yaqinlash, axir uy Sulton huzuridan yaxshiroq emas-ku. Sen aytgan Xuldu Bihisht nafs uyidir, sen Ko‘ngil uyiga talpin, chunki haqiqiy maqsad - Ko‘ngil uyidadir. Haqning huzuri — azim daryo, jannat shu daryodan bir qatra, xolos. Kimdaki daryo bo‘lsa, qatraga qaramas, daryodan o‘zga narsalar savdo -tashvish va bog‘lanish, tama‘girlik, oldi-sotgiga o‘xshashdir. Daryoga yo‘l topsang, bir tomchi shabnamga yuz burib nima qilasan? Quyosh bilan so‘zlasha oladigan odam bir zarra bilan qanoatlanishi mumkinmi? Kullga aylangan kishining juz‘ bilan nima ishi bor, jonga aylanganga uzvlar parvo qilmaydi. Agar sen kullga aylangan mard bo‘lsang, kullni ko‘r, kullni talab qil, kull bo‘l va kullni tanla!

*SHOGIRDNING USTOZDAN SAVOL SO‘RAGANI HIKOYATI*

Bir shogird o‘z ustozidan so‘radi:

— Ustoz, ayting-chi, nega Odam jannatdan quvildi?

Ustozi dedi:

— Odam juda oliyguhar zot edi, u jannatga kirganda, hotifdan bir baland ovoz keldiki, ey, jannat, seni yuz xil band bilan bog‘lagan, kimki ikki olamda Bizdan tashqaridadir, Bizdan past turadigan arzimas narsani boshpana qilib oladi. Biz zohiriy ko‘ringan jam‘i narsani yakson qilurmiz. Chunki Do‘stdan o‘zgaga e‘tibor qilmagaymiz. Jonon oldida yuz mingjonning nima qiymati bor, Jononsiz jon hech narsaga yaramaydi. Kimki Jonondan boshqa narsa bilan bog‘lanib qolgandir, garchi u Odam bo‘lsa ham, zabun bo‘ldi. Jannat ahliga u yerda beriladigan dastlabki taom jigardir, deb xabar berdilar. Jannat axli siru asror ahli emaslar, shu bois jigar yeyishdan to‘xtamaydilar\*.

#### OLTINCHI MAQOLA *O‘RDAKNING UZRI*

Poklarning poki bo‘lib o‘rdak suvdan chiqdi, boshqa qushlar ichida u yaxshilik va poklik ramzi edi. Dedi:

— Ikki jahonda biron kishi mendan ko‘ra pokroq, pok yuzliroq emas. Har lahzada savob uchun g‘usl qilib, suv uzra joynamoz to‘shayman. Menga o‘xshab hech kim suv ustida tik turolmaydi. Karomatimga shubha qilolmaysiz. Qushlarning pok niyatli zohidi menman, joyim ham, to‘nim ham tozadir. Men jahonda suvsiz yasholmayman, chunki men tug‘ilganimdan suvdaman va suv mening borlig‘imdir. Agarchi dilda bir olam g‘amim bo‘lsa ham, bu g‘amlarni suv yordamida yuvib yubordim. Bu yerda har doim arig‘imdan suv oqadi. Men quruqlikda baxtiyor bo‘lolmayman. Mening taqdirim suv bilan bog‘liq, (shu uchun ham) suvdan tashqariga chiqolmayman. Suvdagi narsa suv bilan tirik, shu bois suvdan ko‘ngil uzib bo‘lmaydi. Men Simurg‘ bilan birga ucholmayman, shuning uchun vodiyning qiyin yo‘llarini kesib o‘tishim dargumon. Qiblasini faqat suv bo‘lgan kishi qanday qilib Simurg‘dan murod-maqсадiga erishadi?

#### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey suv bilan xushbaxt bo‘lgan (kishi), joning atrofini suv o‘tday o‘rab olgan. Suv o‘rtasida seni uyqu bosibdi (g‘aflatdasi). Bir qatra suv kelib obro‘yingni olib ketadi. Shuni bilki, suv yuzi yuvuqsizlar uchundir, agar sen ham yuvuqsiz bo‘lsang, suv qidir. Qachongacha suv bilan maqtanasan, suvday tiniqlikni ista, har bir yuzi yuviqsizni ko‘rib yurishing qachongacha?

#### *BIR DEVONANING SAVOLI*

Bir kishi devonadan:

— Bu ikki olam o‘ylab ko‘rsang, nimadir, - deya so‘radi.

Devona dedi:

— Ikki olamning biri yuqorida, biri pastda, ammo ma'noda go'yoki bir qatra suvday, uni yo bor deb, yoki yo'q deb o'yla\*.

Eng avval suv olamni oshkor qildi. Bu jahon bir qatra suv va u yuz ming rangi suratdadir. Suv yuziga qurilgan har bir imorat, agarchi temirdan bo'lsa ham, bir kun qulab, xarob bo'ladi. Holbuki, temirdan qattiq narsa yo'q, boqsang - u imoratni suv ustida tik tutadi. Nimaiki suv ustiga bunyod etilgan bo'lsa, u temirdan bo'lsa ham, tush kabi o'tkinchi va xayoldir. Hech kim suvning bir joyda mustahkam turganini ko'rgan emas, suv yuzasida tiklangan narsa ustivor bo'ladimi, axir!

#### YETTINCHI MAQOLA *KAKLIKNING UZRI*

Chah-chah etib, xursand bo'lib, noz bilan yurib, kaklik o'rtaga kirib keldi, u go'yo dur konidan sarmast, mag'rur holda kelardi. Tumshug'i qizil, qanotlari shafaqday edi, ko'zlari ham qaynoq qoni tufayli qizargan edi. Gohida tog'lar, goh o'ngirlarda uchardi, gohida tig' oldiga bosh qo'yardi.

Dediki:

— Men ko'p vaqtlar konlarda sayr qilganman, beqiyos ko'p gavharu oltin-javohirni ko'rganman. Tog' va o'ngirlarda uchib yurishim gavharlarning a'losini izlashimdandir. Gavharning ishqil dilimga o't solgan, bas, mana shu xush yoqadigan o't-olov mening hosilimdir. Bu o'tning tafti agar bosh chiqarsa, mayda toshni ichimda qonga aylantiradi. Utning ta'sir etib, toshni eritib, qonga aylantirganini ko'rgach, tosh va o't orasida qolganman, mahtal bo'lib, hayronlikda turibman. Isitma tafti ichra mayda toshlarni terib yeyman, uyqu toshi zarbidan yurakni o'tga to'ldiraman. Ey suhbatdoshlarim, ko'zlaringni ochinglar, mening ahvolimga boqinglar. Tosh ustida uxlab, tosh yeydigan kishini nima sababdan koyish mumkin.

Gavharni sevadigan odamning maslagi ham shundan boshqa emas. Gavhar va davlat (mamlakat) nizom-tartibni talab qiladi. Chunki gavhar (boylik) davlat bilan bog'liq, shu bois davlatga berilgan odamningjoni toqqa, kongga bog'langan bo'ladi. Men (shuninguchun) tog'ning sinashtasi va gavhar izlovchiman. Bir lahza tog' cho'qqisi va o'ngirlardan xalos bo'lolmayman. Chunki cho'qqida gavhar koni bor. Shu sabab tog'-cho'qqida gavhar izlaganim-izlagan. Ammo gavhardan, biror mohiyat - javhar topolmadim, gavharlar ichra ho'l gavhar (toza, yangi gavharni) ko'rmadim. Simurg' yo'li mushkul yo'ldir, mening esa oyog'im toshda, gavhar bo'lsa loydadir. Olov kabi boshimni toshdan ololmayman, yo o'laman, yoki gavharni ko'lga kiritaman. Gavha-rimni odamlar ko'rishi kerak. Gavharsiz odamni kim ham qadrlardi?

### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud aytdi:

— Ey gavhar kabi tovlanuvchi, turfa rangli Kaklik. Buncha oqsaysan, buncha oqsoq uzrlar aytasan (oqsoqlik uzrini qilasan)? Sening tumshug‘ing va oyoqlaring jigar qoniday qizil, sen o‘zingni gavhar deysan, ammo toshdirsan, oddiy tosh. Gavharning asli ham toshdir, faqat uni biroz bo‘yaganlar, xolos. Sen ana shu tosh savdosida (g‘avg‘osida, ishqida) diling toshday qotib qolibdi. Agar bu rangni ko‘chirib tashlasang, gavhar toshlardan bir toshdir, kimningkim rangi yo‘q, u shubhasiz, toshning o‘zi bo‘ladi. Kimdagi ruh bo‘lsa, u rangni istamaydi, chunki mard (asl inson) tosh istamaydi.

### *SULAYMON VA UZUK HIKOYATI*

Hech gavharda Sulaymon uzugidagi gavharday izzat-qadr yo‘q edi. Shu uzuk tufayli shohning shuhrati ziyoda edi. Ajabki, bu gavhar tosh yarim dong edi.\*

Sulaymon mazkur gavharni uzugiga joylaganda, yer yuzi unga qaram bo‘ldi. Shoh Sulaymon mamlakatu davlatining behisob ekanligini bilgach, yeru osmon o‘ziga qaramligini ko‘rgach, uzunligi (eni) qirq farsax (taxm.280 km.) keladigan soyabon yasatdi va shamol ham uning farmoniga bo‘ysunardi. Garchi eni qirq farsax keladigan soyaboni bo‘lsa ham, lekin bu o‘sha yarim dong keladigan tosh tufayli edi. Dedi: ushbu mamlakat, bu savlatu shon-shuhrat o‘sha tosh tufayli doimo mustahkam turadi. Men dunyo va din ishida bunday mulkka ega bo‘lishni xohlamayman. Ey Podshoh (Allohvand), men o‘z ko‘zim bilan shuni aniq ko‘rdimki, bu mulku boylikning ofati muqarrardir. Bu uqbo (oxirat) tarafida muxtasar qolsin. Bundan keyin hech kimga bunday mulku boylik berma. Mening lashkar va mulk bilan ishim yo‘q. Men zambil to‘qishni ixtiyor etaman.

Garchi o‘sha gavhardan Sulaymon shoh bo‘lgan bo‘lsa-da, xuddi shu gavhar uni yo‘lda bandi-qul qildi. Bu gavhar Sulaymonday shohga nima qildiki, senga vafo qilib, xotirjam etsa? Ul gavhar uchun qanchalik kon qazib, mehnat qilmagin, u bir toshdir, xolos. Sen esa faqat Jonon yuzini ko‘rish uchun jon bergin. Ey gavhar (asl) talab, toshdan bo‘lgan gavhardan ko‘nglingni uz va doimo yagona Javhar talabgori bo‘l!

### *SAKKIZINCHI MAQOLA*

#### *HUMOY UZRI*

Humoy soya solib qushlar oldiga chiqdi. Uning soyasi shohlarga toj bag‘ishlaydi. Shu bois ham Humoy hammadan baxtiyor va himmatbalanddir. U dedi:

— Ey dengizlaru quruqliklarning qushlari! Men boshqa qushlarga o‘xshamayman. Oliy



himmatim menga yor bo‘lib, xalqdan uzlatga chekinganman. Nafs itini har doim xor tutaman, hatto Faridun va Jamshid kabi shohlar men tufayli izzat-obro‘ topganlar. Podshohlar mening soyamning tarbiyasida yetishganlar, ammo ular tabiatan gadolar, shu bois mardliqda menga teng kelolmaydilar. Nafs itiga suyak tashlab, shu orqali ruhni bu itdan omonlikda saklayman. Nafsga mudom suyak berib turganim uchun, jonim bunday oliy maqomga erishdi. Soyasida shohlar parvarish topgan zot farmonidan bo‘yin tovlash mumkinmi? Hamma uning qanoti ostida o‘tirsin, toki soyasidan bir zarra nasiba olsinlar. Shunday ekan, sarkash-mag‘rur Simurg‘ mening do‘stim bo‘ladimi? Shohlarga taxtu toj bag‘ishlayman, shu yetarli emasmi?

#### *HUDHUD JAVOBI*

Hudhud aytdi:

— Ey g‘ururga bandi bo‘lgan jon, soyangni yig‘ishtir, o‘zingni kulgiga qo‘yma! Bu zamonda toju taxt bag‘ishlash yo‘q. Hozir sen it kabi suyak izlaysan. Koshki edi shohlarni taxtga o‘tqazmasayding, buning o‘rniga qani edi o‘zingni suyakdan xalos qilsayding? Deylik, jahon shohlari bu dunyoda sening soyang tufayli tojdor bo‘ldilar, ammo tongla qiyomat kuni hammasi balolar ichra hech narsasiz qoladilar. Agar shahriyorlar sening soyangni ko‘rmaganda edi, qiyomat kuni balolarga giriftor bo‘lmasdilar.\*

#### *SULTON MAHMUD POK NIYATLI ODAMNING TUSHIGA KIRGANI*

Savob yo‘lida yuradigan pok niyatli bir odam bor edi. Bir kecha u sulton Mahmudni tushida ko‘rdi. Sultonga dedi:

— Ey yaxshi ishlarni amalga oshirgan podshoh, durulqaror-baqa dunyosida ahvoling nechuk?

Dedi:

— Meni qiynama, jonimning qonini to‘kma, yaxshisi gapirma, bu yer sultonlik joyi emas ekan.

Bir hovuch tuproq (dunyo)dan saltanat tuzib bo‘ladimi? Jahonning egasi Haq taolo, sultonlikka U sazovor. O‘zimning ojizligim, hayronligimni ko‘rgach, sultonligimdan uyalib ketdim. Agar meni bilmoqchi bo‘lsang, parishon b^r banda deb bil. Sulton Udir, zinhor meni sulton dema. Saltanat Uniki, koshki men dunyoda bir gado bo‘lsaydim, qadrim oshgan bo‘lardi. Koshki joh (taxt) o‘rniga yuz choh (quduq) bo‘lsaydi, shoh emas, boshqotirib yuradigan oddiy odam bo‘lsaydim. Bu damda menga hech bir yoru madadkor, xizmatimda intizor turganlar yo‘q, bir-bir so‘roq berurman har zamon. Meni o‘z soyasiga olgan Humoyning qanotlari qurib ketsin. Sultonligim xayol va xato ekan.

TO‘QQIZINCHI MAQOLA  
*BURGUTNING UZRI*

Mag‘rur bosh ko‘tarib, burgut qushlar o‘rtasida paydo bo‘ldi va ma‘nilar asrori yuzidan pardani ko‘tardi. Lashkaru askaridan va kuloh-tojidan g‘ururlanib lof urardi. Dedi:  
— Men shahriyorm qo‘liga qo‘nish, ya‘ni unga mahram bo‘lib xizmat qilish shavqi bilan jo‘shib, boshqa odamlardan ko‘zimni yumganman (ularga e‘tibor qilmayman). Oyog‘im podshoh qo‘liga tegsin deb ko‘zimni kuloh ostiga berkitganman. O‘zimni odob qoidalariga shunday o‘rgatganmanki, darveshlarday riyozat chekkanman. Toki bir kun shohimning yoniga olib borsalar va xizmat rasmu qoidasidan ogoh etsalar, deb kutib o‘tiribman.

Shunday ekan, men Simurg‘ni sog‘inib tushimda ko‘rishim mumkinmi, u tomon azmu iroda qilishimga hojat bormi? Rizqimni o‘z shohimning qo‘lidan olaman, dunyoda mana shu hayot menga kifoya. Yo‘lga tushishga asosim yo‘q, chunki shoh qo‘lida izzat-ikromim bor. Kimki sulton dargohiga munosib-dir, sulton oldida nimaiki desa ma‘qul va maqbuldir. Men agar sulton e‘tiborini qozonib, shunga munosib bo‘lsam, bu bepoyon vodiylarni kezishdan afzal emasmi? Aftidan, men shoh yuzidan bahra olib, uning dargohida umrimni shodu xurramlikda o‘tkazurman. Gohida shohni sog‘inarman, gohida shavqida ov bilan mashg‘ul bo‘laman.

*HUDHUDNING JAVOB BERGANI*

Hudhud aytdi:

— Ey, majoziy dunyoga giriftor kishi, sifatdan uzoqlashib, suratga giriftorsan. Mamlakatda o‘ziga o‘xshashi bo‘lgan shohga podsholik uncha tatimaydi va abadiy emas. Saltanatga Simurg‘dan o‘zgasi munosib emas. Chunki uning o‘xshashi, sherigi yo‘q, shoh faqat Uning o‘zidir, tamom. Har bir yurtida o‘ziga o‘xshaganlar bilan talashib yuradigan itoatkoru hamfikrlari bor shoh asl shoh emas. O‘shanday shohasl shohdirkim, uningtengi bo‘lmasa, qudrat, vafo va boqiylik sifatlariga ega bo‘lsa. Dunyo shohi agar bir nafas vafodorlik qilmoqchi bo‘lsa, bir nafasdan keyin jafo qila boshlaydi. Kimki unga yaqinroq bo‘lsa, uning tashvishi ham ko‘proqdir, chunki u har doim shohdan qo‘rquvdadir, joni har lahza xatardadir. Dunyo podshosi olov kabidir, uning atrofida bo‘lganlar parvonaday yonib kul bo‘ladilar.

Ey shohlarga yaqinlashgan, qanchalik izzatda bo‘lmagil, ammo shohdan uzoqroq turganing yaxshi.

*PODSHOHNING QULGA OSHIQ BO‘LGANI HIKOYATI*

Bir oliynasab podshoh bir chiroyli qulga oshiq bo‘lib qoldi. Shunchalik oshiq bo‘ldiki, ul qulsiz bir dam o‘tirolmas yoki dam ololmasdi. Bu qulni boshqalardan ajratib, yasantirib

qo‘ygan edi va undan ko‘zini uzolmasdi. Shoh agar qasrda o‘q otish bilan shug‘ullansa, u qul qo‘rquvdan titrardi. Chunki shoh olmani qulning boshi ustiga qo‘yib, nishonga olardi. O‘q bilan olmani teshardi, shunda bechora qul sarg‘aygan giyoh yaprog‘iday titrardi.

Ahvoddan bexabar bir odam quldan:

— Qip-qizil yuzlaring nega oltinday sarg‘ayib qolibdi, shoh oldida shuncha hurmatdasan, nega ahvolding bu qadar aftoda bo‘lib qoldi?, - deb so‘radi.

Qul dedi:

— Boshimga olmani qo‘yib nishonga oladi, agar menga o‘q tegib yaralansam, u bunaqa qulim yo‘q edi, lashkarimda bundan kamchilik ham ko‘rmayman, deb aytadi. Agar o‘qi nishonga teksa, hamma bu podshohning omadi va mahorati deb aytadilar. Men shu ikki g‘am ichida qiynalurman, jonimni nimaga xatarga qo‘yganman? Hech narsaga!\*

## O‘NINCHI MAQOLA *BALIQCHI QUSH UZRI*

Shundan so‘ng baliqchi qush o‘rtaga chiqdi. Dedi:

— Ey qushlar, men va mening g‘amu tashvishim sizlarga ayon: joyim hamma vaqt daryo yoqasidir, hech kim mening ovozimni eshit-maydi. Men shunday beozor qushmanki, hech kim mendan ozor chekmaydi.

Dengiz bo‘yida dard bilan o‘tiranman. Doim g‘amli, becho-raman. Suv orzusida yuragim qondir. O‘zimga rahmim keladi, lekin na iloj? Shunga majburman. Ey qushlar, men suv ahlidan emasman, dengiz qirg‘og‘ida og‘zim qurib, tashna o‘tiranman. Dengiz yuz xilda to‘lqinlanadi, lekin men undan bir qatra icholmayman. Agar dengiz (daryo)ning suvi, ozgina kamaysa ham tashvish va behalovatlikdan yuragim kabob bo‘ladi. Menga o‘xshaganga daryo ishqi yetarlidir. Shu savdoning o‘zi menga oshib-toshib ketadi.

Hozir daryo g‘amidan boshqa g‘amim yo‘q, Simurg‘ga hech bir toqatim yo‘q. Asl orzusi bir qatra suv bo‘lgan kishi Simurg‘ vasliga yetarmidi?

## *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey, daryodan bexabar! Daryo (dengiz)da nahang baliklar va boshqa jonivorlar to‘lib yotibdi. Dengiz suvi achchiq va sho‘rdir, gohida osoyishta turadi, gohida esa to‘lqinlanadi. Dengiz o‘zgaruvchan va doim bir xil emas, suv goh chayqalib oqadi, gohida yana surilib qaytib keladi. Qanchadan qancha ulug‘lar kema yasab suzdilar, ko‘plari girdobda g‘arq bo‘lib o‘ldilar. Kimki g‘avvos kabi dengizga sho‘ng‘isa, jon g‘amidan nafasini ichiga yutadi. Dengiz qa‘riga sho‘ng‘ib nafasini chiqarmaydigan odam

o‘zini to‘lqinlar ixtiyoriga topshirgan xas kabidir. Bunday odamdan vafo tilab bo‘la-dimi, birov dildorim deb undan umidvor bo‘la oladimi? Agar sen ham o‘zingni dengaz qiryug‘iga olmasang, bu hunaring oxir-oqibat seni halok etajak. Dengiz o‘zi Do‘st shavqida to‘lqinlanayotganday, gohida po‘rtanali, gohida to‘fonlidir. Dengiz ana shunday notinch ekan, demak u o‘zini topolgani, o‘z maqsadiga erishgani yo‘q. Shunday ekan, sen qanday qilib dilingga orom topasan?

Shuni bilki, dengiz Uning ko‘yidan bir buloqdir, xolos. Sen Uni izla, Uning yuzini ko‘rish shavqida talpin.

#### *BIR KISHINING DENGIZGA SAVOLI*

Qalb ko‘zi ochiq bir odam dengiz qirg‘og‘iga keldi. Dedi:

— Ey dengiz, nega suvingning rangi ko‘k, nega motam kiyimini kiyding, ostingda olov bo‘lmasa ham, qaynab turasan?

Dengiz bu ezgu fikrli odamga javob berib dedi:

— Do‘st firoqida iztirobu motamdaman. Nomardligimdan, uning yo‘lida mard bo‘lolmadim, shu sabab Uning dardida ko‘k kiyim kiydim. Lablarim (qirg‘oqlarim) qurigan, o‘zim behushman. Uning ishq olovida suvlarim qaynab jo‘sh uradi. Agar Uning kavsaridan bir qatra topsaydim, eshigida abadiy tirik turgan bo‘lardim. Bo‘lmasa Uning yo‘lida ming-minglab kishilar lablari qaqqshab, qurib jon beradilar.

#### *O‘N BIRINCHI MAQOLA*

##### *BOYQUSHNING UZRI*

Boyqush devonalarga o‘xshab o‘rtaga chiqib dedi:

— Men vayronalarni tanlagan kishiman. Xarobazorda tug‘ilgan ojizu nochorman, oxiri xarob bo‘lib nom-nishonsiz ketaman. Garchi yuzlab obod joylar toptim, ammo ularni tashvishli va o‘zimga muxoliflikda ko‘rdim. Kimki biror jam‘iyatda o‘tiradigan bo‘lsa, oxirida mastlar kabi xarobotga (so‘fiylar yig‘iniga) borishi aniq. Vayronalarda ranju mehnat bilan yashayman, chunki vayronalarda xazina yashiringan bo‘ladi. Xazina ishqiy vayronaga yo‘lladi meni, zotan xazinaga faqat xaroblik orqali yo‘l bordir. Hamma odamlardan dardimni uzoqqa olib ketdim, shoyadki o‘z xazinam — ganjimni tilsimsiz toparman deb o‘yladim. Agar oyoqlarim xazinaga botsa, bu sarkash ko‘ng-lim yana undan qutulardi.

Simurg‘ga bo‘lgan ishq afsonadan boshqa narsa emas, chunki bu ishqqa giriftorlik har qanday devonaning qo‘lidan kelmaydi. Men Uning ishqiga chidaydigan mardlardan emasman, shu vayronam va undagi xazina ishqiy menga kifoya.

## HUDHUDNING JAVOBI

Hudhud aytdi:

— Ey xazina ishqidan mast bo‘lgan, deylik, xazinani qo‘lga kiritding. Bu xazina ustida o‘zingni bir o‘lik deb faraz qil, ketgan umring, ishlaring, bosgan yo‘llaring hayf bil. Ganj ishq, oltin ishq kofirlik alomatidir, kimki oltinga butga sig‘inganday sig‘insa, u - butparast, Ozar qavmidandir. Zarparastlik kofirlikdir, axir sen oltin buzoqqa sig‘ingan Somiriy qabilasidan emassan-ku? Kimning qalbi oltin ishq bilan yaralangan bo‘lsa, qiyomat kuni aft-angori sarg‘ayib, shu oltin shakliga kiradi.\*

## OLTINLI ODAM VA UNING O‘G‘LI

Bir kishining bir qutichada oltini bor edi, uni yashirib, hech kimga aytmay o‘lib ketdi. Bir yildan keyin o‘g‘li uni tushida ko‘rdi: «Surati sichqonga o‘xshardi, ko‘zlari esa to‘la yosh edi. Oltini yashirilgan joyning agrofida sichqon kabi gir aylanardi. Farzandi undan: «Bu yerga nega kelding, ahvolingni tushuntir», deb so‘radi. Otasi dedi: «Bu yerga oltinlarni yashirgan edim, birov uni topdimi-yo‘qmi, bilmoqchiman». O‘g‘li so‘radi: «Nega sichqon suratiga kirding?» Dedi: «Kimningkim qalbidan oltin ishq joy olsa, u sichqon suratiga kirar. Ey o‘g‘il, menga boqib ibrat ol va oltin-kumush, xazina-boylikka dil bog‘lama».

## O‘N IKKINCHI MAQOLA

### SA‘VANING UZRI

Nimjongina, tani ozurda, titrab-qaqshab Sa‘va o‘rtaga chiqdi. U boshdan-oyoq yonayotgan olovday beqaror edi. Dedi:

— Men hayron, ojiz bir qushchaman, hushim o‘zimda emas, quvvatu qudratim yo‘q. Qo‘llarim soch tolasiday ingichka, oyoqlarimda mador yo‘q, zaiflikdan chumoliday bo‘lib qolganman. Menda qanot ham, par ham yo‘q. Shu ahvolda Simurg‘ huzuriga yetamanmi, ey aziz? Simurg‘ oddiga bu ojiz qushcha qachon borib yetadi, Sa‘va Simurg‘ga yetadi deb kim aytadi?

Dunyoda Uning talabgorlari ko‘p, men kabi nochizga uning vasli yo‘l bo‘lsin. Uning visoliga yetishishga qudra-tim yo‘q, bu yo‘lni bosib o‘tishga majolim ham yo‘q. Agar men Uning dargohiga yuz bursam, yo‘lida yo o‘laman, yoki yonib ketaman. Men unday baland maqomga loyiq emasman, Yusufimni quduq ichidan izlarman, xolos. Quduqlarda Yusufimni yo‘qotganman, o‘shani topsam - murodimga yetardim. Agar Yusufimni quduqda topsam, u bilan oygacha uchib chiqardim.

### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey, zebolik va sho‘xu shanglikdan o‘zini ojizu zaif sanayotgan tannozi, sening so‘zlaring agar diqqat qilib qaragam, lofu yolg‘ondan boshqa narsa emas. Men bu nayranglarga uchmayman. Oyoqlaring bardam qo‘y, so‘zlamay og‘zingni yum. Agar boshqalar o‘rtanar ekan, sen ham o‘rtan, yon! Misol uchun agar sen ma‘noda Ya‘qub bo‘lsang ham, hiyla qilsang o‘g‘ling Yusufni bermaslar. G‘ayrat o‘tida yonganlar oshiqdirlar, Yusufning ishq olim uchun haromdir.

### *YA‘QUBNING YUSUF FIROQIDA AZOB CHYEKKANI*

Yusuf otadan ajralgandan keyin, otasi Ya‘qub uning firog‘ida ko‘zi ko‘r bo‘ldi. Ko‘zlaridan qonli yosh oqardi, Yusuf nomi tilidan tushmasdi. Jabraail alayhis salom Ya‘qubning oldiga kelib, dedi:

— Agar bundan keyin yana Yusuf nomini takrorlasang, nomingni mursal payg‘ambarlar qatoridan o‘chiramiz.

Haq amri shunday bo‘lgandan keyin Yusuf nomi tilidan yo‘qoldi. Yusuf nomi garchi suyanchig‘i edi, ammo bu nom tilidan ketib, dilidan mustahkam joy oldi. Bir kecha Yusufni tushida ko‘rdi, uni o‘z oldiga chaqirmoqchi bo‘ldi. Biroq Haq farmoni esiga tushdi, ojizu aftoda bo‘lsa ham tilini tiydi. Ammo toqati tugab, dilidan dardli oh chekti. U uyqusida joyidan qo‘zg‘olganda,

Jabraail kelib, dedi:

— Alloh deydi, Yusuf nomini tilga olmagan bo‘lsang ham, lekin dardli oh chekting, sening ohingning sababi kimligini bilaman. Sen haqiqatda tavbani yengdirding, endi foydasi yo‘q.

Aql bu ishda sudu savdo (foyda-zarar) bilan ish ko‘radi, ammo qara, ishq bizni ne ko‘ylarga soladi...

### *O‘N UCHINCHI MAQOLA* *BOSHQA QUSHLARNING UZRI*

Shundan keyin boshqa qushlar ham birin-ketin o‘z uzrlarini bayon qila boshladilar. Har biri nodonlikdan bir uzr-bahona keltirardi, hech kim (uy)ning to‘ridan gapirmadi, balki dahlizu poygaktan ovoz kelardi. Qushlarning uzrlarini birma-bir aytsam, gap cho‘zilib ketadi. Shu uchun o‘quvchidan uzr so‘rab, umumlashtirib aytaman. Qushlarning har

birida ko‘pdan-ko‘p uzrlar bor edi, bundaylar Anqo (ko‘zga ko‘rinmas qush, ya’ni Simurg‘) sari uchishga loyiqmi axir? Kimki Anqoni jonidan istasa, u qo‘lini jonidan yuvib, mardlarcha olg‘a intiladi. Kimdakim oshiyoni (uyasi)da o‘ttiz dona (ozug‘i) bo‘lmasa, u bu safarga azm etolmaydi. Bir donachalik hafsalang, himmatu g‘ayrating bo‘lmasa, sen Simurg‘ bilan hamxona bo‘lolmaysan, bir xum mayni ichib bo‘shatgan pahlavon kosadan may ichib to‘yarmidi? Zarraga toqat qilolmagan odam oftob vasliga qanday qilib yetishasan. Pok zotning nazariga tushish uchun kishi nazari avval yerda (tuproqaa)gi yuz minglab soyalarga tushishi lozim. Arzimas qatraga g‘arqbo‘lsang, daryoda boshdan-oyoqcho‘milasanmi? Bunda asl javharni tanish kerak, hid bilan qanoat qilib bo‘lmaydi. Bu ish har qanday yuvuqsizning qo‘lidan kelmaydi.

Barcha qushlar holdan xabardor bo‘lgandan keyin, ketma-ket Hudhudga savol bera boshladilar. (Chunonchi): «Ey, bizga rahbar bo‘lish ilmini o‘rgangan zot, sen ulug‘vorlik va donolikni xatm qilgansan. Biz bir hovuch zaif va notavonlarmiz, na qanoatimiz, na tanu jonimiz bor. Baland maqom Simurg‘ga qanday yetamiz, agar bizdan biror kishi yetishsa, uni qanday bilamiz, taniymiz? U yangi (boshqacha) bo‘ladimi? Uning biz bilan qiyosu nisbatini ayt, qanday bo‘ladi, axir kishi ko‘r bo‘lsa, sirlarni anglab yetishi mumkinmi? Agar biz bilan U (Simurg‘) orasida bir o‘xshashlik (nisbat) bo‘lsaydi, har birimizda U tomon rag‘bat bo‘lardi. U — Sulaymon, biz esa chumolimiz, sen qaragin: U qaerdayu biz qaerdamiz! Chumoliday quduqtubida banddamiz, shu ahyudda biz balanddagi Simurg‘ga yeta olamizmi? Bu biz zaiflar qo‘lidan kelmaydi, Podsho qachon gadolarning yori bo‘lgan?

#### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud shunda ularga qarab dedi:

— Ey, umri besamar o‘tganlar, badniyat, ko‘ngli buzuqlarda ishq bo‘larmidi? Ey, gadolar, qachongacha xomxayollar: shubha-gumonlar ichida yurasiz, oshiqlik bilan badniyatlik tuyg‘usi bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Ishq bilan dunyoga ko‘z ochgan kishi har doim betoqat va joni iztirobda bo‘ladi. Shuni bilingki, Simurg‘ niqob ochib, quyoshday yuz ochgan chog‘da tuproq yerga yuz ming soya soladi, keyin pok soyaga nazar soladi. U O‘zining soyasini olamga bag‘ishlaydi (sochadi): bu soyadan har lahzada qanchadan-qancha qushlar paydo bo‘ladi. Olam qushlarining hammasining suvrati, bilsang, Uning soyasidir. Buni bil, buni bilganing-dan keyin Ul Hazratga nasabingni to‘g‘rila. Agar bilmagan bo‘lsang, endi ko‘rgin, bilgin va tanigin. Bilib, taniganing-dan keyin Uning izzat-hurmatini joyiga qo‘y!

Kimki Unga aylansa, u Unga g‘arq bo‘lgan hisoblanadi. Alloh haqi, Haqqa aylandi u, desang ham xato bo‘lmaydi. Mustag‘raq (g‘arq bo‘lgan) kishini hululiy deb bo‘lmaydi, bu so‘z kaltafahmlikdan boshqa emas. Kimning soyasi ekaningni bilganingdan keyin, xoho‘lik bo‘l, xohtirik - sen ozodsan. Agar Simurg‘ namoyon bo‘limganda, biror-bir qush soyali-nurli bo‘lmasdi. Yana agar Simurg‘ yashiringanda, jahonda hech bir soya

(tajalliy nuri) ham bo‘lmasdi. Bu yerda (dunyoda) soya har narsani paydo qiladi, lekin buning boshlanishi — ibtidosi u yerda (Iloh olamida)dir.

Agar senda Simurg‘ni ko‘ruvchi ko‘z bo‘lmas ekan, demak oinaday munavvar ko‘ngil ham bo‘lmaydi. Agar Ul jamolni ko‘ruvchi ko‘z bo‘lmasa, Jamoli ishtiqliyoda sabr qilolmaymiz. Jamoli bilan bog‘lanib ishqbozlik qilish qiyin, o‘zining lutfi kamolidan oina yasamoq kerak bo‘ladi. Ushbu oina-ko‘zgu — bu qalbdir, qalbgga boq, shunda ey sohibnazar kishi, o‘z qalbingda Uni ravshan ko‘rasan!

### *GO‘ZAL SHOH HIKOYATI*

Husnu jamolda tengsiz bir podshoh bor edi. Go‘yo yuzida ilohiy ruh aks etganday edi. Tong uning yuzidan bir shu‘la, muqaddas xushbo‘yliklar esa uning huzuri bog‘idan esgan bir shabada. Olamning go‘zalligi, nafosati uning asroridan bir sahifa, zeboligu dilbarlikda uning diydoridan bir oyat kabi edi. Bu go‘zal shohning ovozasi olamga tarqaldi, barcha uning husniga oshufta bo‘ldilar, uning yuzini ko‘rish ishtiyoqida jonbozlik ko‘rsatib, g‘avg‘o ko‘tardilar. Uning nomini tilga olish mumkin emas edi, chunki nomini tilga olish bilan dilda sho‘rish qo‘zg‘olardi.

Podsho yuziga parda tutib yurardi, chunki agar yuzini ochsa odamlar uning quyoshday husniga toqat qilolmasdilar. Hech kim jur‘at qilib, podshoga boqolmas, jur‘at etgan kishining boshini tanasidan judo kilardilar. Uning jamoli haqida o‘ylagan, fikr yuritgan odamlar ham xarob bo‘lardilar, chunki uning ishq kirgan ko‘ngilni tinchitib bo‘lmas edi. Mabodo yuzini ko‘rgan kishi bo‘lsa, shu zahoti jon berardi, toqat qilolmasdi.

Erkaklar ham, ayollar ham unga maftun edilar, uning asrori - rozini bilish shavqi barchaning qalbini band etgan edi. Ko‘rmaslikka sabrlari chidamas, ammo ko‘rishga ham toqat qilolmasdilar. Odamlar uni qo‘rishga tobu tokat kilolmagandan keyin, fakat nomini eshitish bilan lazzat topadigan bo‘ldilar. Zero, agar shoh o‘z yuzini ochsa, hech kim uning yuzi shu‘lasiga chidab turolmas edi. Jahon xalqlari uning yo‘lida majnunday ovora bo‘ldilar, barchaning yodida-xayolida o‘sha edi.

Podsho bu holni ko‘rib, ulkan bir ko‘zgu yasashni buyurdi. Ko‘zgu tayyor bo‘lgach, shoh kelib unga qarar, yuzining shu‘lasi ko‘zguda aks etib, bu aksdan nur atrofga tarqalardi va odamlar shu nurdan bahramand bo‘lib, shodu xursand edilar.

Ey inson, sening Podshohing ham Hilol - Oy qasridir, qasr esa quyosh nuridan ravshandir. O‘z Podshohingni ko‘nglingda tanigin, al-hosil Arshni zarrada ko‘rgin! Bu bepoyon olam sahrosida vujudga kelgan har bir surat, har bir libos Go‘zal Simurg‘ning soyasidir. Ammo soya Simurg‘dan ayri emas, sen buni tasavvur qilolmaysan ham. Soya bilan Simurg‘ bir-biriga sirdosh va mahramdirlar, bir-birini qo‘msaydilar, izlaydilar,



qidiradilar, bilsang. Agar Simurg‘ga yetishsang, parda ichida oftobni ko‘rasan, shunda soya bilan Simurg‘ birlashadi, sen o‘zingni ham Quyosh o‘rnida ko‘rasan.\*

#### *G‘OYIB BO‘LGAN ISKANDAR*

Jahongir Iskandar bir kun bir mamlakatga elchilar yubormoqchi bo‘ldi. Bir necha odamga bir xil kiyim kiydirdi va o‘zi ham o‘shalarning libosidan kiyib oldida, elchilarga qo‘shilib jo‘nadi. O‘sha mamlakat odamlaridan-hech kim Iskandarni ko‘rmagan edi, agar birortasi men Iskandarman desa ham hech kim ishonmasdi...

Iskandar esa hammani ko‘rib turar va hammaning ahvolidan xabardor edi. Shohning har bir ko‘ngilga yo‘l topishga imkoni, ixtiyori bor edi. Ammo gumroh dillarga yo‘l topish qiyin. Gumrohlarning yo‘li gumrohlik va g‘aflat, adashish yo‘lidir. Shoh garchi hujra tashqarisida begonaday bo‘lib tuyulsa-da, lekin hujra ichida hammaga mahram — hamxona edi.

#### *SULTON MAHMUD VA AYOZ*

Ayozga yomon ko‘z tegib, kasal bo‘ldi, shu bois Sulton oldiga borolmay, undan uzoqlashdi. Ayoz notavonlik to‘shagida yotar, bemorlik unga azob berar, nola chekardi. Sultonga xabar berdilar. U o‘zining bir xodimini Ayoz oldiga yuborib, dedi: — Avval mendan salom yetkaz, ahvolini so‘ra, so‘nfa degilki, ey mening aftodahol shohim, men hozir sendan uzoqdaman, sening g‘amu anduhingda sendanam nochorroqman. Sening dard chekib qiynalishing o‘ylasam, jonim bo‘g‘zimga keladi: bilmadim, sen kasalmi yo men? Agar tanim hamnafas do‘stdan uzoqda bo‘lsa ham, ammo mushtojonim sening bilan birgadir. Sening jonu taningni sog‘ ko‘rish ishtiyoqidaman, bir nafas ham sendan g‘oyib emasman. Yomon ko‘z badkirdorlik qilib, senday nozaninni bemor etibdur.

Xodimga shunday deb, keyin qo‘shib qo‘ydi:

— Tez yo‘lga tush, olov kabi borib, tutun kabi sur‘at bilan qaytgin. Zinhor yo‘lda to‘xtama, bulut kabi yuqoridan yugur va chaqmoqni ushlab chopgin. Agar yo‘lda bir soat hayallasang, ikki olamni senga tangu tor etarman.

Xodim zudlik bilan yo‘lga tushib, shamolday bir zumda Ayozning oldiga yetib keldi. Qaysi ko‘z bilan ko‘rsinki, Sulton Ayoz oldida o‘tirgan edi. Xodim bundan aqlu hushini yo‘qotib, hayratda qoldi. Xodimning vujudi titrar edi, go‘yo behushday oh urib yiqiddi. Ichida:

— Sulton meni osadi yoki boshimni kesib qonimni to‘kadi.

Sulton oldida u:

— Yo‘lda hech joyda to‘xtaganim, o‘tirib dam olganim yoxud birov bilan so‘zlash-ganim

yo‘q, ey podshoh, sen ko‘rinmas zarra kabi qanday qilib mendan oldin kelding? Shoh so‘zimga ishonadimi yo‘qmi - bilmayman, ammo agar yolg‘on gapirsam kofir bo‘layin! - deb hasrat bilan qasam ichardi.

Sulton dedi:

— Bunda sening gunohing yo‘q. Sen axir oshiqlar yo‘lini qachon bilarding? Mening Ayozi tomon yashirin (o‘g‘rincha) yo‘lim bor. Chunki uning yuzini ko‘rolmay turolmayman. Oramizdagi sirli yo‘l bizni o‘zaro bog‘laydi, oramizda jonlarimiz mag‘ziga tutash sirlarimiz bor, axir. Agar men odamlardan sirni yashirsam, botinda jonimni uning yo‘lida garovga qo‘yganman. Tashqarida u haqda xabar olib turaman, ichkarida esa parda ichida undan ogohdirman.

#### O‘N TO‘RTINCHI MAQOLA

#### *QUSHLARNING YO‘L SAFARI HAQIDA HUDHUDGA SAVOLLARI*

Qushlar Hudhudning so‘zlarini tinglab, ko‘hna sirlarni yaxshi anglab yetdilar. Hammalari o‘zlarini Simurg‘ bilan bog‘liq deb bildilar. Shu bois U tomon sayr etishga rag‘bat bildirdilar. Shu ma‘noda o‘zaro yana ittifoq tuzdilar. O‘zlarini hamdard va hamovoz deb his etdilar. Hudhuddan boshqa yo‘lni biladigan bo‘lmagani sababli u bilan xiyla suhbatlashdilar. Undan:

— Ey tajribali, dono ustoz, bu yo‘lda nimalar bizni kutadi, qanday qilib bu yo‘lni bosib o‘tamiz? Bunday oliymaqomga ko‘tarilish tartibi - qoidasini biz ojizlar batamom bilmaymiz, siz ko‘rsating, - deya so‘radilar.

Rahbar Hudhud daf‘atan dedi:

— Kimki oshiq bo‘ldi, u jonining g‘amini yemaydi.

#### *HUDHUD JAVOBI*

Xoh zohid bo‘lgin, xoh badaxloq fosiq bo‘lgin, ammo oshiq bo‘lsang, jon tarkini qiluvchi chin oshiq bo‘lgin. Sening qalbing joning dushmaniga aylansa, albatta jonfidolik bilan yo‘l oxiriga yetasan. Bu yo‘l mingjonga arziydi, jonni baxshida qil, shundan keyin ko‘zni ochib diydorlashgin. Agar seni iymondan chiq desalar yoki jonni topshir deb xitob qilsalar, sen buni ham, uni ham topshir — iymonni tark et va jonni bag‘ishla!

Agar biror kishi:

— Bu kofirlik-ku, desa, sen aytgin:

— Ishq kufri imondan yuqoriroq, afzalroqdir. Ishqning kofirlik va mo‘minlik bilan nima ishi bor, oshiqlarning tanu jon bilan nima ishi bor?

Oshiq dunyo xirmoniga o't qo'yadi, agar boshi ustidan arra tortsalar, tanasini, ma deb tutadi. Ishq dardini didning qoni biladi, ishq qissasi uzun va mushkuldir, u har kimga nasib bo'lmaydi.

Ey soqiy, jomni jigar qoni bilan to'ldir, agar darding bo'lmasa, bizdan qarz ol! Ishqning dardi bedarmon, ko'z yum, goh jonning pardasini yirt, gohida uni parda qilib tik!

Ishqning bir zarrasi butun olamdan afzal va azizdir, uning bir zarra dardi barcha oshiqlardan qimmatli. Ishq azaldan koinotning mag'zi —mohiyati bo'lib kelgan, ammo dardsiz ishq— komil ishqemas. Qudsiy farishtalarda ham ishq bor, ammo ularda dard yo'q. Dard faqat odam bolasiga yuklatilgan, faqat Odam bunga munosib, faqat Odam unga chiday oladi. Kimningki ishqda qadami mustahkam bo'ldi, u kufr va islomdan ham voz kechdi. Ishq faqr tomon eshik ochadi senga, faqr esa senga kufr tomon yo'l ko'rsatadi. Ishqning kofirlik bilan qarindoshligi bor, aslida kofirlik - darveshlikning mag'zi-mohiyatidir." Senda bu kufr va iymon qolmasa, dunyoviy tanu diling yemirilib, joning ham qolmaydi. Shundan keyin bu ishda (Yor huzuri, vaslida) shunday darajaga erishasanki, ilohasroriga hamdam ruhga aylanasan, komil eran bo'lasan.

Sen eranlar kabi yo'lga qadam qo'y va qo'rqma. Kufr va iymondan ham kechgil va qo'rqma. Nimaga bolalarday qo'rqasan, bolalikni tashla, balog'at sari intil, bu ulug' safarga shermardlar singari shaylan!

Agar yo'lda senga yuz xavfu xatar, uqubat yetkazuvchi g'ovlar uchrasa ham, qo'rqma. Mardonavor intilsang, murodingga yetasan.

#### *SHAYX SAN'ON VA TARSO QIZI QISSASI*

Shayx San'on o'z zamonasining piri murshidi edi. Ilmu irfon, karomatu kashfda yagona edi. Uning kamoli haqida so'z aytish ortiqcha, chunki Makkaning o'zida ellik yil shayxlik qilgandi, to'rt yuzta muridi bor ediki, har biri tariqatda bir yorqin siymo edi. Ammo o'zi ham, muridlari ham riyozat va toatdan to'xtamas edilar, kecha-kunduz Allohni yod etib yashardilar. Shayxning ilmi va amali barobar bo'lib, yashirin va oshkora ravishda ishora va asror ko'rsatib turardi. Ellik marta haj qilgandi, bundan tashqari umra hajini ham umr bo'yi kanda qilmadi. Biror sunnatni tark etmadi va namozu ro'zani behad ko'p ado etar edi. Barcha peshvolar bu peshvo shayxni o'zlaridan baland hisoblardilar. Bemorlar va kasalmand odamlar undan shifo topardi. Xullas, shodligu g'amda xalq bilan birga va madadkor edi u.

Davrining yagonasi bo'lgan bu ulug' murshid bir kecha tush ko'rdi. Tushida ko'rsaki, Rumda sayr etib yurgan emish va bir but-sanamga sajda qilayotgan emish. Ko'ngli bedorlarning bedori, ogohlarning ogohi bo'lgan bu ulug' shayx ko'rgan tushidan g'amgin bo'ldi:

— Ey attang, imon eltay deb shuncha jon chektim, nahotki toatlarim Allohvandi karimga ma'qul bo'lmadi? Doyunlar oshib, manzilga yetaman degan odam oxirgi dovonda butun ishlari abas ekanini sezganday, nahotki men ham parvardigor marhamatidan noumid bo'lib qolsam?

Oqibat, Shayx San'on muridlarini yig'ib, Rumba borishni niyat qilganini aytdi. Bu tushningta'birini bilmoqchiman, dedi u. To'rt yuz muridi ham shayxga ergashib, Rum safarida unga yo'ldosh bo'ldilar. Ka'badan Rum mamlakatigacha uzoq yo'l bosishga to'g'ri keldi.

Billo nihoya, shayx bilan muridlari bir necha oy yo'l yurib, oxiri Rum mamlakatiga yetib keldilar. Ular bir shaharning ko'chalaridan o'tayotganda, baland ayvonli hashamatli bir binoga ko'zlari tushib, unga yaqinlashdilar. Baland ayvonda bir go'zal nasroniy qiz o'tirardi. Ruhoniy qiyofali (monax qizi) bu nasroniy qiz husnu jamolda tengsiz, nafosat olamining quyoshiday porlab turardi. Uningjamoliga qara-ganning ko'zi qamashar, aqlu hushi shoshar edi. Halqa-halqa zulfi oshiqlar domi, fatton ko'zlari, kamon qoshlaridan yuraklarga sinon o'qini otar, qip-qizil yoqutday lablari cho'g' bo'lib dilni o'rtar, og'zi obi hayotday jonbaxsh edi. Sochlarining har tolasini ming musulmonni kufrga yo'llab, beliga zunnor bog'lashga majbur etardi. Olovday lovullab turgan yuzining yarmini bir dasta sochlari berkitib turar, go'yo quyosh bulut pardasi ortidan boqqanday edi. Qizning bugun vujudi dilkash va malohatli, dilbar va halovatbaxsh edi. Nafosat haykaliday muhtasham ayvonda o'tirar, sochiga taqilgan bir dona gavhar kunday porlar, yuziga tortilgan qora harir to'r goh-gohida shamoldan lipillab, ochilganday bo'lardi.

Qizga yaqinlashganda, Shayx San'on otini to'xtatib, unga tikildi. Ne ajabki, shu payt tarso qizi yuzidan harir qora parda ko'tarildi - bulut ortidan quyosh charaqlab chiqqanday olam munavvar bo'ldi. Shayx San'on bu go'zal chehrani ko'rdi-yu, o'zini yo'qotdi, holsizlanib, a'zoyi badani bo'shshdi. Avva-lida sir boy bermaslikka harakat qilib ko'rdi, ammoyshq otashi nishona urib, atrofidaqilarga sirini oshkor etdi. Bu qiz o'sha Makkada shayx tushiga kirgan sanam edi.

Shayxning vujudi titrar, ichga olov tushganday betoqat bo'lar edi. Uning ixtiyori inoni qo'ldan ketgan, dili dilbar ixtiyoriga o'tgan edi. Shayx ellik yillik toat-ibodati, obro'e'tibori, imon-e'tiqodini tarso qizi ishqiga almashdi-qo'ydi, tarsozoda uning imonini sotib olgan, imonu din o'rniga rasvolik va badnomlik in'om etgan edi. Shayx San'on hammasiga ko'nika boshladi. Ko'nglidan umidini uzdi, chunki ko'ngil endi unga itoat etmas edi. Jonini ham jononasi uchun qurbon qilishga tayyor turardi. Shayxning so'zi ham, sozi ham ishq bo'lib qoldi. O'zga gap qulog'iga kirmas, o'zga narsalar mutlaqo e'tiborini tortmas edi. Tarso qizi uning muhibi, qiblasiga aylandi.\*

Shayxning muridlari bu holni ko'rib, qattiq qayg'urdilar, nima qilishlarini bilmay hayron

qoldilar. Sarsonu rargardon bo‘lib, goh shahar kezar, goh shayx oldida yig‘ilib, uni bu yo‘ldan qaytarishga urinardilar. Ammo shayx San‘onga gap ham, nasihat ham kor qilmas, olamni unutgan edi u. Qalbi tarso qizi farmonida bo‘lgach, boshqaning gapi qulog‘iga kirarmidi? Oshufta oshiqning podshosi ham amru farmon beruvchisi ham ma‘shuqadir. Bu dardning bedavoligini ishq dardiga chalinganlar biladi, bedardlar buni qaerdan bilsin? Shayx uchun kecha va kunduz barobar edi. Kunduz kechaday qorong‘i, tun esa firoq zulmatiday uzun va vahimali edi.

Shayxning ishq tug‘yon urib, o‘zini ham, olamni ham unuta boshladi, boshiga tuproq sohib, o‘z holiga o‘zi motam tutdi. Ko‘ziga uyqu kelmas, goh nola chekar, gohida o‘rtanib yonardi. Qopqora tunlarning zulmati - firoq zulmati poyonsizday edi.  
— Ey Alloh, — deb nola qilardi Shayx San‘on, - nahotki, bu tunlarning oxiri ko‘rinmasa, nahot mening quyoshim porlab chiqmasa? Yo falak mashali o‘chdimi abad, so‘ndimi tiriklik olovi? Behad ko‘p tunlarni riyozatda o‘tkazgan edim, ammo bunday zulmat tunlarni ko‘rmagan edim. Sham‘day yonib ado bo‘lyapman, jigarim yonib, ichimdagi olov alanga urmoqqa! Nafasimdan o‘t chiqadi, ey parvardigor! Ishq meni o‘z qonimga tashna qildi-qu, yo‘q-yo‘q, bosh-oyog‘imni qonga beladi. Bir kechada yuz kechaning azobini tortayotirman, bilmadim, kunduzim qanday o‘tar ekan? Tun odamzod uchun shuncha mashaqqatlimi, shuncha azob ekanmi, endi bildim buni. Kecha-kunduz isitma ichidamanki, qachon kunduz boshlanib, qachon kech kirishini anglamasman. Magar vujudim tarhini tuzganda parvardigor shu bir kecha uchun asrab qo‘yganmidi meni? Dunyoda g‘am shuncha ko‘pmi, ishq shunday beintiho qudratmi? Bu qiyomatning alomatimi yo ohimdan gardun sham‘i xiralashdimi yo dilbarimdan uyalib, quyosh parda ichiga kirib ketdimi?

Kuydimu yondim bu tun azobidan, ilojin topolmadim ishq dardining, endi toqatim ham qolmadi bu g‘avg‘olarga. Tog‘day sabotim-sabrim qani, hashamatu matonatim qayon ketdi, o‘tkir zehnim, zakovatimdan ayriddim: qilni qirq yorib, ne-ne mushkil masalalarga javob topgan aqlim xiralashdi. Biroq oshiq uchun aql nima kerak, ishqqa aqlning kuchi yetarmidi? Yorni izlab eshigiga boray desam, oyog‘im qimirlamaydi. Ovoz chiqarib, mahbubamni chaqiray desam, tilim so‘zga kelmas, qon oqaverib ko‘zlarim ko‘rmaydigan bo‘ldilar.

Aql ketdi, sabr ketdi, ketdi jon, Bu ne savdo, ne azobu ne fig‘on?!

Shayx San‘onning muridlari yig‘lashib, uning qo‘nglini ko‘tarmoqchi bo‘ldilar. Yaqin mahramlaridan biri dedi:

— Ey shayxi kibor, o‘rningdan tur, vasvasani o‘zingdan uloqtir, tahorat olib, namoz qil, shaytoni la‘inni quvgin nari.

Shayx dedi:

— Ey bexabar, bu kecha jigar qoni-la yuz dafʼa tahorat qildim, yuz rakaat namoz qildim Allohga, mahbubim visoliga etkizgin deb.

Boshqasi dedi:

— Tasbehing qani, tasbehsiz shayx shayx boʻladimi? Tasbehni qoʻlga olib zikrga tush.

Shayx dedi:

— Belimga zunnor bogʻlash qulay boʻlsin uchun qoʻllarimni tasbehdan boʻshatib oldim.

Boshqasi dedi:

— Ey moʻysafid, agar gunohu xato sodir boʻlgan boʻlsa, tavba qil, parvardigor rahm qiluvchidir.

Shayx dedi:

— Allaqachon tavba qilganman, ammo shayxlik oru nomusidan, qilu qolidan tavba qilganman.

Boshqasi dedi:

— Pushaymon emasmisan, shayx? Axir musulmonlikdan emas bu ishing.

Shayx dedi:

— Ha, nega shu paytgacha oshiq boʻlmadim, deb pushaymonman.

Boshqasi dedi:

— Seni dev yoʻldan uribdi, badbaxtlik oʻqi bilan qalbingni pora qilibdi.

Shayx dedi:

— Toʻgʻri aytding, ishq devi bizning koʻraga olov qoʻyadi, aytgin, yana ham gurkiratsin olovini. Oh, qanday chiroyli olov qalar u!

Boshqasi dedi:

— Xabar topgan oshnolar, birodarlarimiz nima deydi, bundan ogoh boʻlganlar shayxi kabir gumroh boʻlibdi, demaydilmarmi?

Shayx dedi:

— Men nomu nang, yaʼni obroʻ-izzat talashishdan qutuldim, riyo shishasini toshga urib chil-chil qilib sindirdim.

Boshqasi dedi:

— Kel, doʻstlaringga qoʻshilgin, bu kecha Kaʼbaga qarab yoʻl olaylik.

Shayx dedi:

— Agar Ka’ba bo’lmasa, dayr (nasroniylar ibodatxonasi) bor-ku. Qaragin, men hushyori ka’bam dayrda mastdir, ya’ni ma’shuqam nasroniylar ibodatxonasida yashar husni bilan mag’rur.

Boshqasi dedi:

— Qadimiy yori do’stlaring sendan xafa, ko’ngillari yarim bo’lib, sarson-sargardon yuribdilar, axir.

Shayx dedi:

— Tarso qizi qanday go’zal! Ko’nglim boshqa aloiqlar, ranjlardan begona. Mening do’stim dayrda, parda ortida.

Boshqasi dedi:

— Tur, yo’lga tush. Makkaga borib uzrxohlik qil, tavba keltir.

Shayx dedi:

— Boshimni ul nigorning ostonasiga qo’yib, uzr so’rayman. Boshqa narsa kerak emas, meni yo’ldan urma, tanho qo’y!

Boshqasi dedi:

— Ey shayx, bu yo’l — do’zax yo’li. Ogoh bo’lmagan odam do’zaxiydir.

Shayx dedi:

— Mayli, menga do’zax hamroh bo’lsin, illo bir emas, etti do’zax mening ohimdan kuyar.

Boshqasi dedi:

— Jannatdan noumid bo’lma, ey shayx. Jannatdan umidvor bo’lsang, bu yomon ishni qilma.

Shayx dedi:

— Jannat mening yorimning yuzidir. Agar jannat kerak bo’lsa, uning ko’yi-ko’chasiga boraman.

Boshqasi dedi:

— Ey shayx, Allohdan uyalgin, haqtaolodan insofu adolat, hayo va imon tila.

Shayx dedi:

— Bu o’tni mening vujudimga haqning o’zi soldi, men buni o’z ixtiyorim bilan o’zimdan ketkizolmayman

Boshqasi dedi:

— O‘zingga kelib, hushingni yig‘, xotirjam‘ bo‘l, yangidan imon keltirib, musulmon bo‘lgin.

Shayx dedi:

— Mendek hayronu zordan kufrdan boshqasini so‘rama, kofir bo‘lgan odamdan imon talab qilasanmi?

Shayx San‘onga so‘z ta‘sir qilmadi. Muridlarning qalbi qonga to‘ldi. Ular oldinda yana qanday hodisalar yuz beri-shini bilmasdan hayron edilar. G‘ayb pardasi ortida ne hikmatlar bor, qismat kimning boshiga nima soladi — noma‘lum edi.

Tun yorishib, yorug‘lik sultoni — quyosh lashkarini tortib chiqib keldi. Shunda xilvatda o‘ltirgan Shayx San‘on tarso qizi uyi tomon yo‘l oddi. Qizning uyiga kirmoqchi bo‘lgandi, ammo xizmatkorlar uni quvib haydadilar, orqasidan itlarni qo‘yib yubordilar. Shayx noiloj tashqariga chiqib turdi, tashqarida nigori uyining tuproq yo‘lida o‘tirib oldi. Yorim chiqarmikan deb ikki ko‘zi to‘rt edi. Ma‘shuqasi dargoxi yo‘lidagi tuproqni ko‘ziga surtar, kecha-kunduz uy yonidan ketmas, dashnom-ta‘nalarga, malomatlarga chidab, sabru trqat bilan qizning tashqari chiqishini kutardi. Oqibatul amr, sillasi qurib, kasal bo‘lib qoldi. Nola-fig‘on o‘tgan-ketganlarning bag‘rini ezar, odamlar atrofiga to‘planib, qiziqish bilan tamosho qilardilar, achinardilar. Bu yuqeani eshitgan qiz bir kun tashqariga chiqdi va shayxni ko‘rib, undan so‘radi:

— Agar sen chindanam oshiq bo‘lsang, bu yo‘lga mardonlardek kirishgan bo‘lsang, quyidagi to‘rt ishni bajarishing kerak: birinchidan, butga sajda qilasan, ikkinchidan, Qur‘onni o‘tga solib yondirasan, uchinchidan, sharob ichasan, to‘rtinchidan, imondan qaytasan.

Shayx dedi:

— Mayli sharob ichaman, qolgan uchtasi bilan hech bir ishim yo‘q. Jamoling haqi may ichishga roziman, husningni mayga qo‘shib icharman, ammo qolgan uch shartni bajara olmayman.

Qiz dedi:

— Mayli, turgin, may beray, ich, qoningni qizitib, hushingni zoyil etsin, keyin ko‘ramiz.

Shayxni dayri mug‘on — ibodatxonaga olib kirdilar. Murillarning fig‘oni osmonu falakka ko‘tarildi. Shayxni bir majlisga olib bordilar. Qiz unda tengsiz husnini namoyish qilib, mezbon kabi mehribonliklar ko‘rsatardi. Shayx bu husnu jamolni mushohada etib, aqlu hushidan bir zarra qolmadi, oh chekib, bir go‘shada o‘tirdi. Shayx o‘zini qizning yonida ko‘rdi: uning la‘l lablari, xushbo‘y zulfi bilan o‘rtoqlashdi, qizning kulgilarini



ko'rdi, qiz qo'li-dan boda olib ichdi, mahjubasi sochlarini ushlab siladi. Din ilmida yuz xil kitobni to'rt mazhabda tushirgan edi. Qur'onni yoddan bilardi. Ammo hammasi birdan yodidan ko'tarildi, boda kelib barini barbod berdi. May uning zamiridagi lavhni yuvib, xotiradagi yozuvlarni o'chirib tashladi. Ul sanam qo'ldan boda ichib, shayxning butun ixtiyori qo'ldan ketdi. May ta'sirida sarxush bo'lib, qo'lini qizning bo'yniga solmoqchi bo'ldi. Qiz dedi:

— Ey shayx, sen ma'no odami emas ekansan, ishqda mudtsao ahli - da'vogar kishi mard emas. Muddao ahlining haqiqiy ishq bilan ishlari yo'q, oshiqlikni kufr ustuvor saqlaydi. Agar ishqda qadaming mahkam bo'lsa, bu halqa zulfimning mazhabiga kirmokchi bo'lsang, mening fikru odatimga iqtido qil, o'shanda men bilan o'tirib, qo'lingni bo'ynimga solasan. Agar iqtido qilmas ekansan, mana tayog'ing va mana rido (to'ning), ol-da, jo'na!

Shayx San'on endi oshiq bo'lib qolgan, ishq domiga giriftor odam edi. Oshiq shayx mast bo'lib, dilini qo'ldan berib, o'zi ham butkul behush va bexud ahvolda edi. May eski va o'tkir edi, shayxning miyasiga tez ta'sir etdi, may eski, ishq - yosh, oshiq esa qari edi. Ammo dilbar oshiqning oldida hozir edi, shunday bo'lgach, sabr qilib bo'ladimi?

Shayx dedi:

— Ey oy yuzligim, toqatim qolmadi, men bedildan yana nima istaysan, ayt. Hushyorligimda butparast bo'lmagan bo'lsam ham, biroqmastlikta butga sig'inib, Qur'onni ham yondirishga tayyorman.

Qiz dedi:

— Mana, endi mening odamim bo'lding, mening mazhabim, tab'imga bo'yin egding. Shu paytgacha sen ishqda xom eding, endi pishding, vassalom! Bu xabar barcha tarsolar orasiga

tarqaldi, shunday ulug' shayx tarsolar mazhabiga kiribdi deb shodlandilar.

Shayx San'onni mast holidan ibodatxonaga olib keldilar va beliga zunnor bog'ladilar. Shayx o'z dinidan ko'nglini uzdi. Ka'bani ham, shayxlikni ham butkul esdan chiqardi.

Shayx tarso qizga qarab dedi:

— Ey dilbar qiz, nima degan bo'lsang, qildim, barcha shartlaringni bajardim, xo'sh, bizning oramizda mone'lik qiladigan yana nima qoldi? Ishq tufayli may ichdim, butga sajda qildim. Ishq yo'lida ko'rgan azoblarimni hech kim ko'rmasin. Ellik yil shayxlik qildim, ko'nglimda roz daryosi

mavj urardi. Ammo ilmdagi puxtalik ishqda abjadxon — alifbo sabog'iday gap ekan. G'aybning sirshunosi ishq yo'lida sargardonu ovora ekan.

Qiz yana dedi:

— Ey asiri ishq bo‘lgan pir, sen juda faqir - qashshoqsan, ammo mening qalinim katta - kuching yetarmikin? Men ko‘p miqtsorda oltin va kumush talab qilaman, oltining bo‘lmasa, ishingning natijasi bo‘lmaydi. Shuning uchun mendan umidingni uz, quyosh kabi yolg‘izlik yo‘lini tanla,

mardlar kabi sabr qilib, tanholikka chidagin.

Shayx dedi:

— Ey sarv qaddu siymbarim, aytganlaring to‘g‘ri, lekin meni sendan o‘zga odamim yo‘q bu shaharda. Bu so‘zlaringni qo‘y. Sening ishqing yo‘lida bor-budimdan ajralganman, barcha yoru muridlarim ham mendan yuz o‘giranlar, mening dushmanimga aylanib qolganlar. Sen bilan do‘zaxga borishga ham tayyorman, ammo sensiz bihisht men uchun do‘zaxdir.\*

Oqibat ul go‘zalning shayxga rahmi keldi, shayxning sidqu vafosi mustahkamligini yana sinash maqsadida dedi:

— Qalin puli o‘rniga menga bir yil cho‘chqalarimni boqib berasan. Bir yil o‘tgach, sening xohishing amalga oshadi. Birga umr o‘tkazamiz.

Ka’ba shayxi, piri kibor shayx San’on cho‘chqaboqarlik kasbini qabul qildi. Voqean, har bir odam ichida yuz cho‘chqa bor, kishi ichidagi cho‘chqani o‘ldirishi kerak yo zunnor bog‘lashi kerak. Sen bu ish faqat shayx San’on boshiga tushgan deb gumondasan. Lekin bu xatar har bir kishi ichida bor. U har zamon boshini chiqarib, odam bolasini bezovta etadi. Agar sen o‘zingdagi cho‘chqadan ogoh bo‘lmasang, tariqat yo‘liga kirgan solik emassan, meni ma’zur tut. Ey mard, agar tarikatga qadam qo‘ymoqchi ekansan, bu yo‘ldagi butlar, cho‘chqalar kabi ming turli balolardan qo‘rqma. Agar tariqat yo‘li shunday azobli bo‘lmaganda, Shayx San’onday din odami rasvo bo‘lib, Rum shahrida g‘avg‘o ko‘tarmas, sargardon bo‘lmas edi.

#### *SHAYX SAN’ON MURIDLARINING CHORA TOPOLMAY KA’BAGA QAYTISHLARI*

Shayx San’onning muridlari nima qilishlarini bilmay hayron qoldilar. Shayxning shaydo va oshiqligini, tarso qizi uchun tarsolar diniga kirib, musulmonlikni tark etganini ko‘rib, uning yonidan ketdilar, g‘amgin va diltang bo‘lib, attang-afsus deb shayxdan yuz o‘girdilar. Muridlar orasida shayxga yaqin bir kishi bor edi, u shayxning oldiga kelib dedi:

— Ey ishqda inonu ixtiyorini qo‘ldan bergan pir, biz endi Ka’ba tomon qaytamiz, nima istaging bor, ayt. Balki biror ko‘rsatma berarsan bizga. Yoki hammamiz sen kabi tarsolik ko‘yiga kirib, rasvo bo‘lishimiz kerak, yoxud bu erdan ketib, sening bu ahvolingni ko‘rmay, uzoqroq turganimiz ma’qul. Ka’baga borib, xotirjam ibodat bilan

shugʻullanganimiz bu yerda koʻrayotganimizdan yaxshiroq emasmi?

Shayxdedi:

— Qaerga borsalaring boringlar, meni tinch qoʻyinglar. To tanimda jonim bor ekan, nasroniylar dayri mening joyimdir. Menga shu nasroniylarning ruhoniy qizi (rohiba) boʻlsa bas. Agar siz ham oshiq boʻlganingizda menga hamdamu hamroz boʻlardingiz. Ey azizlar, qaytib boringlar, mening holim nima kechishini Alloh biladi. Agar mendan soʻrasalar, rost gapni soʻzlang, shayx Sanʼon oshiqu xasta deng, koʻzlarida qonli yosh, shakar yesa zaharga aylanadi deb ayting. Hech bir musulmon boshiga bu savdoni solmasin. Agar meni taʼna bilan tilga olsalar, dard koʻrmagan bedardlardir ular.

Shayx Sanʼon shu gaplarni aytib, yuzini yorlaridan oʻgirdi, vidolashmadi ham ular bilan. Tayogʻini olib, choʻchqala-riga qarash uchun dalaga yoʻl oldi. Muridlar esa uning orqasidan yigʻlab qoldilar, har qancha «ey shayx, qayting», dedilar, ammo shayx eʼtibor qilmadi. Goʻyo muridlarni hech koʻrmaganday, ular mutlaqo begona kishilarday edilar uning uchun. Shayx beparvo choʻchqaboqarlikni davom ettirar edi.

Shundan keyin muridlar barchasi Makkaga qarab yoʻlga tushdilar, jonlari kuyar, yuraklari achir, ammo ilojsiz edilar. Muridlar Makkaga borib yetdilar, lekin hech kimga hech bir narsa demadilar. Shayx ahvolidan soʻz ochmadilar. Pirsiz, rahbarsiz edilar, pirlari Rumda tarso boʻlib qolgan edi.

Pir yoʻlini yoʻqotgandan keyin muridlar nima qilsin, pir kaʼbadan yuz oʻgirgach, muridlar Kaʼbaga qarab yuzlanishlari ajab.

Ey ishq, nimalar qilding sen, ey falak, odam boshiga ne koʻrgiliklarni solasan sen?

Shayx Sanʼonning yana bir zakovatli muridi bor edi. Shayx Rumba ketgan vaqgda u Makkada emas edi. Shayx yoʻkdi-gida safardan qaytib, Makkaga kelgan va shayxni kutib, xilvatda oʻtirardi. Muridlarning shayxsiz qaytib kelganini koʻrib, koʻngli buzildi va ulardan piring ahvolini soʻradi. Birodarlar unga shayx boshiga tushgan savdoni bir-bir hikoya qilib berdilar. Shayxning oshiq boʻlgani, tarsolarga qoʻshilib, mayxoʻrlik qilgani, hozirgi vaqtda choʻchqaboqar boʻlib yurganini aytib berdilar.

Zakovatli murid birodarlaridan bu qissani eshitgach, gʻamgin qiyofada dedi:

— Ey, noahlu bevafo yorlar, yorlik va doʻstlikka muvofiq ish qilmabsizlar, aksincha, nomardlarning ishini qilibsizlar. Sadoqatli murid, jon payvandli yor boʻlsangiz ogʻir paytida quniga yarang edi, birga boʻlib, dardiga malham boʻling edi. Agar oʻz shayxingizning yori boʻlsangiz, har qanday sharoitda uning yonida boʻlmogʻingiz lozim, axir. Uyalinglar, shumi sadoqatu vafo, pir haqqini ado etish? Agar shayxingiz beliga zunnor bogʻlagan ekan, siz ham darhol belga zunnor bogʻlang edi, agar tarso boʻlsa,

hammangiz unga qo‘shilib tarso bo‘ling edi. Siz qilgan ish esa yorlik va muvofikdik emas, balki munofiqlik va dushmanlikdir. O‘z yorining do‘sti bo‘ladigan odam, yori agar kofir bo‘lsa ham yorlikni tark etmasligi kerak. Shayx dengizga cho‘kib, nahang komiga tushibdi, siz esa qo‘rqib, uni tashlab qochibsiz.

Hammasi o‘zlarini oqlash uchun: biz shayxni ko‘p marta ogohlantirdik, birga yurib, dardiga sherik bo‘lmoqchi bo‘ldik. Ammo shayx bizdan bezor edi, bizni ko‘rishdan og‘rinardi. Oldidan bizni quvib haydadi. Chunki bizning yorligimizdan unga hech foyda yo‘q edi, bizning Makkaga qaytishimiz ham uning hukmi farmonidir, dedilar. Zakovatli sodiq murid esa dedi:

— Sizning muridmiz deyishga haqqingiz yo‘q, nomard- larning ishini qilgansizlar. Haq nazdida piringizga zulm qildingiz. Shu bilan haq yo‘lidan ham qaytdingiz.

Muridlar bu so‘zni eshitgach, o‘z-o‘zlarini koyiy boshladilar. Noto‘g‘ri ish qilganlarini anglab yetdilar.

— Biz hammamiz haq dargohi deb talabgor bo‘lib yuribmiz, shayxga ham, o‘zimizga ham zulm qilibmiz. Endi qog‘ozdan ko‘ylak kiyib — qanot chiqarib, Rumga uchaylik, purning huzuriga yetaylik, - dedilar barisi bir og‘izdan.

#### *RUMGA QAYTIB KELGANLARI*

Barcha muridlar Makkadan chiqib, Rum sari yo‘lga ravona bo‘ldilar. Xato qilganlarini anglab, haqdargohiga zoru nola qilib, uzr so‘rardilar. Shu taxlit har biri qirqkecha-kunduz maqomdan bosh tortmay, duo qildilar, shafolat tiladilar. Yashil kiyim kiyib yurgan muridlar endi motam tutib, ko‘k liboslarni kiydilar. Oxirul amr, ularning duosi qabul qilindi: safo va sidq o‘qi nishonga tegdi — tong saharda bir mushk hidli xushbo‘y shabada esdi, kashfu karomat olami oshkor bo‘ldi. Avvaldan pirga sodiq bo‘lgan zakovatli murid Muhammad Mustafoni tushida ko‘rdi. Ko‘rsaki, hazrati Rasululloh sallallohu olihu va ashobihu vassalam, ikki qora zulfini yoyib, xiromon kelar va tabassum qilardi. Kimki uni ko‘rsa madhu sano yog‘dirardi unga. Mustafoni ko‘rgan murid joyidan sapchib turdi va dedi:

— Ey, Rasuli Akram, qo‘limni olgin, sensan xalqqa rahnamo - haq yo‘lini ko‘rsatuvchi nabii barhaq, Bizning shayximiz yo‘ldan ozdi, uni tuz yo‘lga boshla.

Mustafo unga dedi:

— Ey, himmati baland ummatim, bor, shayxingni banddan ozod etdim. Shayx bilan haq orasida shu paytgacha gardu g‘uborlar bor edi, qora dog‘ ko‘rinardi. Men bu g‘uborni uning yo‘lidan ko‘tardim, uni zulmat ichra doimiy qolib ketishga qo‘ymadim. Shafolat yuzidan bir shabnam ato etdimki, shayxning hayotiga ham bu fayzu safo kiritadi. Sen shunga ishonki, olam-olam gunoh bo‘lsa ham, bir tavba tufayli kechiriladi.

Payg‘ambar sallallohu alayhi vassalam bu so‘zlarni dediyu, zakovatli murid nazaridan

g'oyib bo'ldi. Murid bu tushning ma'nosidan shunchalik xursand bo'ldiki, o'zidan ketib qoddi. O'ziga kelib, shunday bir na'ra torttiki, go'yo osmonda guldirak gumbirlaganday bo'ldi. Barcha hamrohlarini bundan xabardor etdi, ularga yaxshilik xushxabarini yetkazib, jadal yo'lga kirdi. Hammalari shodu xurramlikdan ko'zlarida yosh, otliq va piyoda dashtu biyobonlarni bosib, shayx manziliga yetdilar.

Shayxni ko'rdilarkim, avvalgiday cho'chqaboqarlik qilardi, ammo beqarorlikdan qurib, qoq suyak bo'lib qolgan edi, go'yo bir dasta olovday yonardi. Shayx o'zining sodiq muridini ko'rdi, ahvoli o'zgardi. Qalbida bir ilohiy uchqun lip etib yondi, Haq bilan rozlasha boshladi. Noqus -qo'ng'iroqni ham, zunnorni ham tashladi. Shayx San'on yorlari - muridlarini uzoqdan ko'rib, go'yo o'zini nur ichra sezdi. Xijolat chekib, to'nini pora-pora qildi, afsus-nadomat chekdi. Gohi oh-nola etar, gohida hasratidan tanidagi qoni muzlab qolganday bo'lardi.

Qur'on hikmatlari, ilohiy asror va hadislar sunnati xotirasidan butunlay ko'tarilgan edi, lekin birdan hamm&si yana yodiga tushdi, johillik va bechorshshkdan qutuldi. Xijolat va uyatdan gul kabi dil qoniga belangan edi. Do'stlari uni bu ahvolda ko'rib, oldiga yugurib bordilar, Tanfi Taologa ming-ming shukr qildilar. Shayxga dedilar:

— Ey, sirlarni pardasiz ko'ruvchi zot, quyoshingni to'sib gurgan bulut tarqaldi. Kufr ketdi, imon qaytib keldi. Rumning butparasti hakparast bo'ldi yangidan. Mustajobu shafolat daryosi mavjlandi, sening uchun Rasulullohning o'zi oraga kirib, shafe' bo'ldi. Buning shukronasini olam oxirigacha qilsang ham ado bo'lmas, tur. shukrona qil, motamning ni.ma keragi bor? Tozalaguvchi olov qalbinggga kirdi, endi keraksiz narsalarning hammasini o'tga tashlab kuydir!

Qissani shu yerda tugataman, chunki yana ulug' yo'l azimati boshlandi, Shayx San'on tahorat olib poklandi, namoz qildi va hirqasini egniga kiydi. So'ngra Makkaga qarab safarga otlandi, ulug' hashamatli karvon Ka'ba sari borardi.

#### *TARSO QIZINING TUSH KO'RISHI VA SHAYX ORQASIDAN BORISHI*

Shayx San'on Rumni tark etib, Makkaga qaytgandan keyin tarso qizi tush ko'rdi. Tushida oftob qo'yniga kirgan emish. Shunda oftob tilga kirib, shayxningorqasidan yo'lga tush, dedi. Shayx majoz tariqasida sening yo'lingga kirgan edi, sen esa uning ketidan borsang, haq yo'liga kirasan.

Sen uni yo'ldan urgan eding, endi uning yo'liga kir, shayx qaytib haq yo'lini topdi, sen ham hamrohi bo'lgin.

Tarso qizi uyqudan uygongach, qalbida bir nur shu'lalana-yotganini his etdi, go'yo oftob ichidan porlab turardi. Ko'nglida ajib bir dard paydo bo'ldi va qarorini oldi. Endi qizning vujudini ishq otashi qamrab oldi. Ko'nglidagi otash shunday o'rtar ediki, hech narsaga

qo‘li bormas, hech narsa bilan ovunmas edi. Qizning boshiga ish tushgan edi, bu - muhabbat edi. Bu dardni birovga aytib bo‘lmas, rozdonu hamdami ham yo‘qedi. Ilgarigi holidan asar qolmadi, o‘zini bir ajoyib olam ichra ko‘rdi: bir asror zavqidan sarmastu sarxush bo‘lib, buni tabiiy holat tushunchalari bilan anglatib bo‘lmasdi. Ohurib, kiyimlarini yirtib, tashqariga otildi, sochlarini yozib, devonalardek lahza-lahza bexud bo‘lardi. Qiz toqat qilolmay, shayx va muridlari orqasidan yo‘lga tushdi. Qizning ahvoliga odamlarning rahmi kelar, chunki u ojiz, beqaror edi. Qiz zorlanib derdi: — Ey, barcha mushkullarni oson etuvchi parvardigor! Bir ayol boshim bilan qaerga boraman. Balolar girdobiga giriftor bo‘ldim. Agar shayxni qiynagan bo‘lsam, meni qahring dengiziga tashlama, uzr so‘rayman, rahmli Alloh. Xato qildim, ammo tavba keltirib, gunohimni bo‘ynimga oldim, menday miskin bechorani qiynama. Dilni qo‘ldan berdim, bedil jonimni azobga qo‘yma. Agar mabodo o‘lsam, birov madadkor bo‘lmas, xoru zorlikdan o‘zga martabam yo‘q mening.

Tarso qizi voqeasini Shayx San’onga yetkazdilar, tarso qizi tarsolikdan chiqibdi, bizningdinga kirib, musulmon bo‘libdi, endi u senga oshiqi beqaror deb aytdilar. Shayx buni eshitib, qizning oldiga bordi va u bilan suhbatlashdi.

Muridlar unga ta’na qilib:

— Yana but oldiga bordingmi, tavbang qayoqda qoddi, azoblaringni unutdingmi? - dedilar.

Shayx San’on qizning ahvolini ularga tushuntirdi, tarso qizi haq yo‘liga kirganligini bildirdi. Muridlar buni eshitib, hayron bo‘ldilar va qizga rahmlari keldi. Bu safar shayx muridlari, suhbatdoshlarini olib qizning oldiga bordi, ular o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, qanoat hosil qilsinlar deb shunday qildi. Ular qizni bir ahvolda ko‘rdilar, uning yaqosi chok, boshi ochiq edi, bir jonsiz jasadday tuproqqa belanib yotardi. Qiz o‘z dardining sababchisi shayxni ko‘rgach, yurakdan ohi otashnok chiqardi. Shayxga nazar tashlar, ko‘zlari esa tinmay yosh to‘kardi. Shayxga qarab dedi:

— Sening ishqing tug‘yonidan jonim quymoqqa, bundan buyon bu dardni yashirolmayman. Bu dardning boisi nima, parda orqasidagi sirni menga tushuntir, pardani ko‘tarib ogoh et, meni islom yo‘liga boshla endi!

Shayx San’on unga shahodat kalimasini o‘rgatdi, qiz imon keltirib musulmon bo‘ldi. Bu voqeadan barcha ashobu yorlar orasida g‘avg‘o ko‘tarildi. Oxir-oqibat, ul sanam haq yo‘lini topib, imon zavqidan xushnud va munavvar bo‘ldi.

Qiz dedi:

— Ey shayx, toqatim toq bo‘ldi, firoq toqatiga chidolmasman. Bir uyum tuproq bo‘lmish bu olami fonyidan ketarman tezda, ey olam shayxi, alvido’u alvido’!

Ul oy shu gapni aytdiyu jonni jonofaringa topshirdi, yarimta bo'lgan jonini jononga fido etdi. Bu majoz dengizida bir qatra edi u. Haqiqat daryosi tomon ketdi yana. Hammamiz ham shul sanam kabi olamdan safar etamiz bir-bir. Ishq yo'li shunday yo'ldir, buni ishqdan, darddan ogoh kishilar anglagay. Nafs bu asrorni eshitmaydi va anglamay-di, benasiblar bu qo'yga kirolmaydi. Buni jonu dil qulog'i bilan eshitib olmoq kerak, botin olami bu sirni biladi, tana-vujud buni qaerdan anglasin!

Qizning o'limi Shayxga qatgiq ta'sir etdi, joni achidi, yorining yuzi berkilgach, ko'zini olamdan olib qochdi. G'amzada va motamzada shayx o'z do'stlariga dedi:

— Ey, do'stlarim, biz oshiqning holini ko'ring, ahvolimizga nazar tashlang. Qushim ovimga ilingan edi, uni qanotim ostiga olgan edim, ammo u uchib ketdi, biling, endi men ham bu dunyoda qolmoqchi emasman. Bu jahondan jannat sari safarga chiqaman, jononim izidan ketmoqchiman.

Agar qiz tongda vafot etgan bo'lsa, Shayx San'on tush paytida jon berdi. Oshiqu ma'shuqlar tobutini izma-iz ko'tardilar. Shayxning qabrini qizning qabri yonidan qazidilar, ikkalasini yonma-yon tuproqqa qo'ydilar, oshiq va ma'shuqning piri xutba o'qidi, jon ila jonon birlashdi-lar, oshiq va ma'shuq birga edilar. Go'yo ular birga tirik edilar, vasl nashidasini, birlashish lazzatini tatib ko'rardilar. Go'yo vasldan behush bir-birlarini og'ushga olib yotardilar ular. Ikki qabr ustida ikki tik qomat sarv daraxti o'sdi. Parvardigori bokaram o'z lutfi bilan ul yerda zilol suvli chashma ato etdi. Bul chashma suvidan necha farsax yerlar obod bo'lib, yam-yashil ko'karib turardi. Ahli dillar kelib, qabrlarni ziyorat qilar, oshiq-ma'shuqlar ruhiga fotiha o'qirdilar. Go'yo bu yerda to'rt fasl ham bahor edi, aylanasi bog'-rog'lar, chamanzorlar bilan o'ralgan edi. Har doim daraxtlarning mevasi pishib turar, yer yuzida jannat paydo bo'lganday edi. Ka'ba yonida edi, ul manzil, xosu avomning ziyoratgohiga aylandi.

Attorning qissasi bir mohchehra qiz uchun emas. Alloh sirridan bandasi ogoh emas.

Bir pokdin inson huzurida muhabbat haqida so'z borar edi. O'tirganlardan biri dedi:

— Men oltin oshig'iman, pulni, boylikni sevaman. Oltin ishki vujudimda jon kabidir. Agar ko'limda zar gulday ochilib, charaqlab turmasa, men ham gul kabi kulib turolmayman. Dunyo ishqni meni g'amlardan ozod qildi, odamlar orasida obro'li-e'tiborli bo'ldim. Zarparastman, zardir-oltindir mening sig'inganim, Allohim. Shunda pokdin, Allohparast odam unga qarab dedi:

— Ey, aslga emas, suratga oshufta bo'lgan, surat bandiga tushgan odam, ko'nglingdan safo saharining nuri yiroq, sen chumoliga o'xshaysan, kavaklardan boshqa narsani bilmaysan. Kecha-kunduz deyunaday chopasan, suratga giriftorsan. Ma'noni izla, suratga o'ralmagin, asl moxiyat ma'nodir, surat arzimas dir, hechdir. Oltin ko'rinishda bo'yalgan toshdir, sen yosh bola kabi rang-bo'yoqlarning oshuftasisan. Sening oltinlaring biror ishga yaramaydi. Qiyomat quni bu oltinlar hech kimga yordam berolmaydi. Sen

o'yinchoqlardan lazzat topasan, nurning nuridan shodsan. Sen aslga intilmaysan, nurning manba'ini istamaysan. Joni pokingni oltin bandidan xalos et, ey jon, axir, mohiyat — mutlakiyat oshig'i bo'lmog'i kerak.

### *OSHIQ DARVESH HIKOYATI*

Bir darvesh bir shahzodaga oshiq bo'ldi. Kecha-kunduz shahzoda yodida ohu nola chekar, ammo shahzodani hech ko'rmagan edi. Odamlar darveshga tanbeh berib, nasihat qilardilar:

— Sen qaerdayu podsho qaerda, agar bu ishing podshoning qulog'iga yetsa, seni qattiq jazolaydi, o'z xuningga o'zing zomin bo'lasan, - der edilar. Ammo darvesh bu gaplarga e'tibor qilmas, shahzodani o'z qiblasini, ka'basi deb bilar, uning husnu jamolini maqtar, beqarorligini, oshiqligini izhor etar edi.

Podsho bu gapni eshitib, ranjidi va darveshni ushlab, qatl etishga hukm etdi. Darvesh bu gapni eshitib, xafa bo'lish o'rniga shod bo'ldi, na'ra tortib, boshini toshlarga ura boshladi, aql-hushini yo'qotdi. Shu holda uni qatlgohga olib bordilar. Darvesh qatlni uyushtiruvchi hokimdan bir muddat muxlat so'radi, bir rakaat namoz o'qib olayin, dedi. Hokim ijozat berdi.

Darvesh ko'zidan issiq otashli yoshlarini to'kib, yuzini tuproqqa qo'yib dedi:

— Ey Allohi hoziru nozir, ey parvardigori qodiru qahhor, shohimning umrini uzun, davlatini fuzun et, uning hech bir gunohi yo'q. Ammo jonim tanimdan chiqishdan oldin menga shahzodani jamolini bir bor ko'rsat, buni menga nasib et. Hech bo'lmasa, axir bir bor uning yuzini ko'rayin, keyin o'lsam mayliga, mayliga uning oldida jon berayin, jonimni unga topshirib, Ismoil singari qurbon bo'layin. Bir emas, ming jonim bo'lganda ham unga bag'ishlagan bo'lardim. Ey parvadigor, minglab odamlarning hojatini chiqarasan, mening ham hojatimni chiqar...

Parvardigor ul darveshning nolasini eshitdi va podshoh ko'ngliga rahm soldi. Hokim shoh oldiga odam yubordi va darveshning o'lim oldidan aytgan iltimosini bildirdi. Faqir darveshning holati va so'zi shohga ta'sir qildi, shohning qalbida ham dard paydo bo'ldi. Shoho'g'lini chaqirib, dedi:

— Darveshdan yuz o'girma, uni o'zingga yaqinlashtir, hozir esa vazir bilan birga o'sha bechora oshiq oldiga boringlar va uning ko'nglini ko'taringlar.

Shahzoda otasining so'ziga kirib, darvesh oldiga yo'l oldi. Go'yo gavhar sadaf tomon, daryo esa qatra tomon yo'l olganday bo'ldi. Yo'q, quyosh tuproq oldiga kelganday bo'ldi. Shahzoda dor ostiga, darvesh oldiga yetib kelganda, butun yig'ilgan xaloyiq hayratdan qichqirib yubordilar. Qiyomat qo'pganday bo'ldi. Shahzoda gadoni tuproqqa belangan holda ko'rdi. Darvesh go'yo mahv bo'lgan, yo'qolgan edi. Uning jismi qariybki ko'rinmas, xalq nazaridan yashiringanday edi. Shahzoda bechora darveshni bu holda



ko‘rib, ko‘zlariga yosh oldi, rahmi keldi.

Voqean, kimki ishkda sodiq va sobit bo‘lsa, ma’shuq huzuriga keladi, oshiqu ma’shuq bir-biridan ajralmasdir, ishq bor joyda husn, husn bor joyda ishq mavjud. Darvesh shahzodaning ovozi eshitgan bo‘lsa-da, lekin yuzini ko‘rmagan edi. Shahzoda otdan tushib. gadoning yuzini tuproqdan ko‘tardi va tizzasiga qo‘ydi. Gado shohining yuzini yaqindan ko‘rdi. Gado bir olov, shahzoda esa bir daryoi rahmat edi. Olov nur daryosiga yetgan edi. Gado shahzodaga qarab dedi:

— Ey, shahriyor, muncha zor etding!

So‘ngra bu baxtu saodatni yetkazgan Allohga shukr etdi va bir na’ra tortib, jonini jabborga topshirdi. Go‘yo u olamda yo‘q edi. Bir sham’ lip etib o‘chganday bo‘ldi. Dilbarining visoli ma’lum bo‘lgach, mutlaqfoni bo‘lib, yo‘qoldi-ketdi. Buni soliklar bilurlar, ishq ne kuylarga solishi, ne-ne mo‘‘jizalar ko‘rsatishi ularga ma’lumdir.

Mardlarning bari yo‘lda fano bo‘ldilar, Haqqa foni bo‘lib, Haqdan ogoh bo‘ldilar. Ey vujuding yo‘qlikka yo‘g‘rilgan, sening lazzating alam bilan omuxtadir, bir muddat ostin-ustun bo‘lmaguncha, oromu xotirjamlikni ko‘rmaysan. Ishq — kimyo, seni poklovchi xumdon. Muncha fikrga g‘arqsan. Aql - qo‘rquv keltiradi, aql mardlikni bo‘g‘adi, aqlni qo‘y. Xumdonga kir, men kabi o‘zingdan kechgini, bir nafas o‘z olamingni tark et. Menga qaragin: menki, men emasman, men yo‘qman, mendan boshqa ham qolgan emas. Men istagan narsa aqldan ham, xayru sharrdan - yaxshi va yomondan ham balavdshir. Menga faqr oftobi nurini sochgach, ikki olam ko‘zimga tariqcha qimmatsiz bo‘lib qoldi, ul quyoshning shu’lasini ko‘rganimdan keyin men batamom yo‘qoldim, qatra daryoga qo‘shilganday bo‘ldi. Neki izlagan bo‘lsam, topgan bo‘lsam oqar suvga otdim. Bir qatra edim -yo‘qoldim. Garchi yo‘qolish har kimning qulidan kelmasa ham, ammo menday bir kishining barhaq foni bo‘lishi yetarlidir.

#### O‘N BESHINCHI MAQOLA

#### *QUSHLARNING SIMURG‘ TOMONGA BORISHGA AHD QILGANLARI*

Hammalari bu qissani eshitgach, jondan kechish kerak bo‘lsa ham Simurg‘ni izlab topishga qasd qildilar. Simurg‘ qushlar diliga g‘ulg‘ula solib, beqaror qildi. Jonlaridagi shavqu zavq, ishq olovi ming karra ziyod bo‘ldi. Simurg‘ni izlab yo‘lga kirishga azm etdilar, azmu qarorlari qat’iy edi, hammalari bunga tayyor bo‘ldilar. Ammo ularning rahnamo pirlari yo‘q edi. Yo‘lda hammalari kelishib:

— Bizga yo‘l ko‘rsatadigan piri murshid kerak, u mushkullarimizni hal qilsin, ahdu paymonda biz bilan sobit tursin, biz o‘zbo-shimchalik qilib yo‘lga tusholmaymiz. Bu yo‘lda qiyinchilik-lar behad ko‘p uchraydi, buni biladigan, tubsiz dengizdan olib o‘tadigan sohibnazar, dono odamga muhtojmiz. Shunday odam hukmu farmoniga so‘zsiz

bo‘yin egamiz, u bizning yukimizni yengil qilib, eson-omon Qof tog‘iga olib boradi, o‘sha yerda Simurg‘ soyasi bizga tushadi, biz zarralar kabi Quyosh shu‘lasiga qo‘shilamiz, - dedilar.

Ko‘p o‘ylab, oralaridan shunday kishini tanlashga kelishdilar va buning uchun qur‘a tashlashga qaror qildilar. Qur‘a kimning nomiga tushsa, u barcha qushlarga rahnamo bo‘ladigan bo‘ldi. Shundan keyin hammalari bu tadbirga rozi bo‘ldilar va ko‘ngillari tinchidi. Hammalari jim bo‘lib, qur‘a tashlashni kutdilar. Shundan keyin qur‘a tashlandi va u Hudhudga tushdi. Barchalari uni o‘zlariga rahbar deb bildilar, nima desa shuni bajaradigan bo‘ldilar. Hammalari Hudhudning boshliqligini tan olib, unga itoat etishga ahdu paymon qildilar. Hudhud, shunday qilib, qushlarning peshvo va rahbari bo‘lib saylandi. Hukm uning hukmi, amru farmon ham unga tegishli bo‘ldi. Qushlar uning hukmi uchun jon fido qilishga rozi edilar.

Shunda rahnamo Hudhud lashkarning bahodir sarkardasi-day oldinga chiqdi va uning boshiga toj kiydirdilar. Yuz minglab qushlar unga ergashib, yo‘lga tushdilar, go‘yo yeru ko‘kni bulut qoplaganday edi. Vodiyning boshlanishi ko‘ringach, qushlarning fig‘onu nolasi osmondagi oygacha borib yetdi. Bu yo‘lning haybati jonlarga larza soldi, qushlarning vujudini dahshat olovi qopladi. Qushlarning qanotlari, parlari, oyoq va boshlari go‘yo uzilib ketganday bo‘lib, bir-birlariga urildilar, bir-birlarini bilmasdilar va sezmasdilar ham. Hammalari jondan qo‘l yuvganday bo‘ddilar, yuklari og‘ir, yo‘l esa olis edi. Ajabki, ushbu yo‘l sayrdan xoli, unda zarracha na xayr (yaxshilik) va na sharr (yomonlik) sezilardi. Bu yo‘lda jimjitlik va orom bor edi, unda fazo-makon (kenglik) ham, kamayish (qisqarish) ham yo‘q edi.

Bir solik (yo‘lovchi) Hudhuddan:  
— Yo‘l nega bo‘m-bo‘sh? - deb so‘radi.

Hudhud dedi:  
— Bu Podshohning buyukligidir.

#### *BOYAZIDNING KECHASI SHAHARDAN TASHQARI CHIQQANI HIKOYATI*

Shayx Boyazid Bistomiy bir kecha shahardan tashqari chiqdi va dunyoni odamlarning g‘ala-g‘ovuri, g‘ul-g‘ulasidan xoli holda ko‘rdi. Tun oydin edi, to‘lin oy olamga shunday nur taratardiki, go‘yo tun kunduzday yorug‘ edi. Osmonni g‘uj-g‘uj yulduz bezagan, sokin va halovatbaxsh edi. Go‘yo oy, yulduzlarning har biri hech g‘ulg‘ula qilmay, sokinlikda, ohista o‘z ishi — vazifasini ado etardi. Shayx sahroda qancha yurmasin, dashtu sahroda hech bir jonzot qimirlaganini qo‘rmadi.

Shunda uning ko‘nglida bir qo‘zg‘olon boshlandi. Dedi:  
— Yo Rab, ko‘nglimga hayajon, sho‘rish sol! Sening bunday ulug‘vor va balandu keng,

behudud olaming bor, ammo nega u bunday jimjit, nega mushtoqlar, oshiqlardan xoli?

Shu payt g'aybdan sado keldiki:

— Ey yo'ning hayronu sarsoni! Podshoh har kimga ham yo'l bermaydi. Bu eshikning qadru izzati, ulug'vorligi shuni taqozo etadiki, har gado bunga yo'l topolmaydi. Bizning ulug'vorligimiz nur sochganda, uyquda yotgan gofillarni uzoqlashtiradi. Odamlar orasidan mingdan biri bu dargohga yor bo'layin, deb yillar davomida intizor kutadilar.

## O'N OLTIIHI MAQOLA

### *QUSHLARNING O'Z RAHBARLARI BILAN KENGASHISHLARI*

Barcha qushlar yo'ning vahimasi va qo'rqividan patlari va qanotlari qonga belangan holda oh chektilar. Yo'ni ko'rar-dilar, ammo bu yo'ning oxiri yo'q edi, dardni ko'rardilar, ammo bu dardning darmoni — davosi ko'rinmas edi. Bepoyon-lik, ulug'vorlik shamoli bu vodiya shunday esardiki, go'yo osmonningbeli singanday edi. Bu shunday sahro ediki, falak tovusi bor narsani hech bir shubhasiz sinayotganday edi? Bunda bir lahza yo'l bosishga dunyodagi boshqa biror qush toqat qila olarmidi?

Qushlar yo'ni ko'rib, uning bepoyonligidan qo'rqib, hammalari bir yerga to'planib, Hudhud oldiga keldilar va undan nasihat so'radilar. Unga qarab dedilar:

— Ey yo'ni bilguvchi zot, odobsiz kishi majlis to'riga chiqa olmaydi. Sen ko'p muddatlar Sulaymon huzurida bo'lding, Sulton saroyida izzatda eding, shu bois shohga xizmat qilish rasmu odatlarini bilasan, xatar qaerdan keladi yoki amonlik qanday holatda qo'lga kiradi - hammasini bilasan, yana bu yo'ning past-balandini ko'rgansan ham jahonni aylanib chiqqansan - yaxshi-yomonni ko'rib, tajriba yiqqansan. Bizning fikrimiz shuki, modomiki sen bizning imomimiz, mushkullarni hal qiluvchi ahdlashgan yo'l boshchimiz ekansan, bu soat minbarga chiqib, o'z qavmingga va'z aytsang, bizni yo'l qiyinchiliklaridan ogoh etib olga yetaklasang. Podshoh-larning rasmu odobini tushuntirgin, axir jaxlu nodonlik bilan bu yo'lga kirib bo'lmaydi-ku! Har bir qushning dilida bir mushkul-muammo bor, sen bularga javob qil, toki ko'ngillari tinchib, xotirjam bo'lsinlar. Xotirjam bo'lmasdan yo'lga tushib bo'lmaydi. Sendan har birimiz o'z mushkulimiz-ni so'raylik, shu orqali ko'ngillardan shubhalarni supurib tashlaylik. Avval ko'nglimizdagi mushkullarni hal qil, shundan keyin biz to'la ishonib, chin azmu iroda bilan yo'lga qadam qo'yaylik. Axir bu uzoq yo'ning nima ekanligini biz qaerdan bilamiz, shubha-gumonlar bizni qamrab olmoqda. Ko'nglimiz shubhalardan qutulgach, tanimizni yo'lga boshlay-di, hatto shunday qilginki, tan bilan dilni ham unutib, boshni ul dargohga bag'ishlaylik.

## HUDHUDNING QUSHLARGA NASIHAT QILGANI

Shundan keyin Hudhud minbarga chiqib, chiroyli ohang bilan nutq soʻzlay boshladi. Boshiga toj kiygan Hudhud taxtga oʻtirdi, uning pok yuzini koʻrgan har bir kishi oliy baxtga erishdi. Yuz minglab qushlar uning oldida saf tortib turdilar. Bulbul bilan qumri birgalikda qorilik qilish uchun sirdoshlarday oldinga oʻtib oldilar. Ular sirdoshgina emas, balki xushovoz hamdirlar. Har ikkalasi nola chekib xonish qilganda, qushlar orasida gʻulgʻula qoʻzgolib, ovozlari jahonni tutdi. Bundan har bir qushda bir holat yuz berdi, ularning hushi goh oʻzlari bilan boʻlsa, gohida behush yiqildilar. Shundan keyin Hudhud soʻz boshladi, pardalar-ni koʻtarib, maʼnolarni oshkor etdi.

## OʻN YETSHINCHI MAQOLA BIR QUSH MUSHKULOTINING BAYONI

Bir qush savol berib dedi:

— Ey, ilmu saboq oʻrgangan kishi. sen nimang bilan Haq oldida bizdan afzalsan, bizning ilmu odobimizdan sening ilmu odobing, xizmatu martabang nimasi bilan baland? Sen bizga oʻxshamaysan, biz senday emasmiz. Oʻrtamizdagi bu tafovut nimadan hosil boʻldi?

Hudhud dedi:

— Ey savol berguvchi, bizga bir karra boʻlsa-da, Sulaymonning nazari tushgan. Men bu martabani oltin-kumush evaziga topganim yoʻq, bu davlat menga Podshoning bir nazaridandir. Bu davlatni kishi toat-ibodat bilan topolmaydi. Zero Iblis bunday toatni ming yillar amalga oshirgan edi. Ammo toat-ibodatning hojati yoʻq, deguvchi kishiga ham har sohada laʼnat yogʻiladi. Sen bir nafas ham toatni kanda qilma, biroqoʻz toatingga bino qoʻyib, ortiqcha baho ham berma. Sen umringni toat bilan shunday oʻtkazki, toki shoh Sulaymon senga nazar qilsin. Sen Sulaymonga maqbul boʻlsang, nimaniki afzal deb aytsam, undan-da afzalroq boʻlursan.

## MAHMUD VA BALIQ OVLOVCHI YOSH BOLA HIKOYATI

Shoh Mahmud bir kun lashkardan ajralib, ot ustida yolgʻiz daryo boʻyini kezib yurardi. Uzoqdan daryo qirgʻogʻida bir yosh bola suvga qarmoq tashlab oʻtirganini koʻrdi. Bola nihoyatda gʻamgin va tashvishli koʻrinardi. Podshoh bolaga salom berib, yoniga kelib oʻtirdi. Podshoh bolaga qarab dedi:

— Ey oʻgʻil, nega gʻamgin va parishonsan, sen kabi munchalik motamzada kishini koʻrgan emasman?

Bola dedi:

— Ey dilovar amir, biz oilada yetti goʻdakmiz, otamiz qazo etgan, onamiz esa toʻshakdan

turolmaydigan bemordir. Qashshoqlikdan azobdamiz, ilojsizmiz. Biror rizqu ro‘zi topamanmi, deb sahardan shomgacha daryo yoqasiga kelib, qarmoq tashlab o‘tiranman. Birorta baliq ilinsa shod bo‘laman, chunki bizning bundan boshqa yeydigan narsamiz yo‘q.

Podshoh dedi:

— Ey g‘ayratli bola, agar xohlasang, senga sherik bo‘lib ko‘maklashaman.

Bola rozi bo‘ldi va shoh qarmoq olib suvga tashladi. Shunday qilib, go‘dakning qarmog‘i shohlik davlatiga erishdi (shoh qo‘liga o‘tdi) va ajoyibi shuki, o‘sha kuni yuzta baliq ovlandi. Bola bu qadar ko‘p baliqni ko‘rib, shuncha davlatim bormi, deb xursand bo‘ldi. — Ey g‘ulom, ajab tole‘ing borkim, shuncha baliq tuzog‘ingga (qarmog‘ingga) ilindi, - derdi ichida.

Shoh dedi:

— Ey, o‘g‘il, kam bo‘lma. Agar baliq ovlovchingning kimligidan xabar topsang, buning sirrini anglarding. Sening davlating mendandir, zero, sening baliqchi sheriging podshoh bo‘ldi.

Shoh bu gapni aytib, jo‘nash uchun otiga mindi. Go‘dak shohga qarab:

— O‘zingga tegishli qismini ajratib olmaysanmi? - dedi.

Shoh dedi:

— Bugungi ovning barchasi seniki, ertangi ov esa — meniki bo‘ladi. Agar sen xoxlasang, bizning ovimiz ertaga bo‘ladi, shuni ham bilki, men ovimni boshqaga beradiganlardan emasman.

Ertasiga shoh saroy ayvoniga chiqqanda, esiga o‘sha sherigi keldi. Bir sipoh borib daryo labidan bolani olib keldi, shoh sheriklik qoidasiga amal qilib uni o‘z o‘rniga taxtga o‘tqazdi.

Bir kaltafahm aytdiki:

— Ey shoh, bu bir gadovachcha-ku, taxtga o‘tirishga munosibmi?

Podshoh dedi:

— U kim bo‘lsa ham, bizning sherikdir, va‘dalashganmiz va rad etmay bunga vafo qilamiz. Shunday deb, bolani o‘zi kabi sulton qildi.

Bir talabgor go‘dakdan so‘radi:

— Bunday izzat-ehtirotni qanday qilib qo‘lga kiritding?

Go‘dak dedi:

— Shodlik kelib, g‘am chekindi, chunki bir sohibdavlat mardning menga nazari tushdi — uning e‘tiboriga musharraf bo‘ldim.\*

*QOTIL VA HABIB AJAMIY*

Odam o‘ldirgan bir qotilni podshoh qatl etdi. O‘sha kecha uni bir so‘fiy tushida ko‘rdi: u jannatda shod-xurram yurardi.

So‘fiy dedi:

— Axir sen qotil, gunohkorsan, odamlarning qonini to‘kkansan. Qanday qilib sen bu martabaga erishding — jannati a‘loga yetishding?

Qotil dedi:

— Podsho jallodi qonimni to‘kayotganda, qatlgoh yonidan buyuk so‘fiy Habib Ajamiy o‘tayotgandi. Soliklarning bu ulug‘ piri yashirincha menga bir qarab qo‘ydi. Ana shu bir qarash tufayli men bunday izzatu sharafga erishdim.

Kingaki davlat ko‘zi tushsa, u saodat taxtiga o‘tiradi. Agar senga bir ulug‘ erning nazari tushmas ekan, sen o‘z vujudingni taniy olmaysan. Ming yil xilvatda yolg‘iz o‘tirsang ham, pirsiz yo‘l topolmaysan. Pirsiz yolg‘iz yo‘lga tushma, ko‘rlar kabi o‘zingni daryoga otma. Pir senga yo‘lboshchidir, barcha ishda sening suyanchig‘ing, panohingdir. Sen axir to‘g‘ri yo‘l bilan o‘nqir-cho‘nqirlar, quduqlarni ajratolmaydigan ko‘zi ojizsan, asokashing - rahnamong bo‘lmasa, yo‘lni bosib o‘tolmassan. Sening ko‘zing ko‘r, yo‘l esa uzoq, pir sen uchun qalavuz — yo‘lchidir. Kimki bir sohibdavlat soyasida bo‘lsa, yo‘lda xijolat chekmaydi, kimki bir davlatga bog‘lansa, qo‘liga tikan olsa ham, u guldastaga aylanadi.\*

*MAHMUD VA O‘TINCHI CHHOL HIKOYATI*

Sulton Mahmud lashkari bilan ovga chiqdi. Bir muddat u lashkaridan ajralib chetga chiqdi va atrofni kuzatdi. Bir o‘tinchi cholni ko‘rdiki, eshagiga o‘tin ortib, haydab borardi. Birdaniga o‘tinlari eshakdan tushib ketdi va chol nima kilishini bilmay, boshini qashladi. Mahmud o‘tinlari ag‘anab ketgan, o‘zi bu noilojlikda qolgan bechora odamni ko‘rib, unga yaqinlashdi va dedi:

— Ey, beqaror odam, yordamlashib yuboraymi?

Chol xursand bo‘lib, rozi bo‘ldi:

— Ey, otliq mard, menga yordam bersang, Alloh senga yordam beradi, bundan men foyda ko‘raman, ammo senga ziyon yetmaydi. Yuzingdan yaxshiliging ko‘rinib turibdi, yuzi yoqimlilardan lutfu karam kelsa ajablanmas-lik kerak.

Shohning qalbida karam jo'sh urib, otdan tushib, sochilib ketgan tikanli o'tinlarni nozik qo'llari bilan qayta bog'lab, eshakka ortdi va mahkam qilib bog'ladi.

Keyin uchqur otiga minib lashkari oldiga kelib dedi:

— O'tinchi cholni ikki tomondan shunday o'rab olingki, toki menga yuzlanmaguncha boshqa yo'l topmasin, - dedi. Lashkarlar cholning orqa-atrofini o'rab oldilar va u shoh o'tovi tomon yurishga majbur bo'ldi.

Chol o'ziga-o'zi:

— Bu zolim lashkar menga boshqa yo'llarni to'sdi, nima qilsam ekan, shohga ro'baro' bo'lishdan boshqa chora yo'q endi, - derdi. Chol eshagini haydab podshoga yaqinlashdi, shohni ko'rib tanidi va xijolatda qoldi. Soyabon ostida o'ziga tanish yuzni ko'rib, uyatdan qiynalib, boshin yerga qo'ydi. Ichida dedi:

— Yo Rab, holimni kimga aytay, Mahmudni o'z hammolim — xizmatkorimga aylantirib qo'yibman-ku!

Shoh unga qarab dedi:

— Ey mening darveshim, mening oldimda nima uzring, nima talabing bor?

Chol dedi:

— Mening ishimi ahvolimni bilasan, o'smoqchilab, o'zingni bilmaslikka olma. Men bir ayolmand, o'tin, tikanaklar terib, sotib kun ko'ruvchi cholman. Kecha-kunduz cho'lu tog' kezib, tikan yig'aman. Tikan sotib non olaman, agar qo'lingdan kelsa, menga bir parcha non ber.

Sulton dedi:

— Ey zahmatkash qariya, tikanlaringning narxini ayt, sotib olaman!.

Chol dedi:

— Ey shoh, buni mendan arzonga olma, bir hamyon oltindan kamiga sotmayman».

Lashkar ahli cholga o'dag'aylab dedilar:

— Og'zingni yum, ey ablah, bu tikanlaring ikki pulga qimmat, arzonroq narx qo'y!

Chol dedi:

— Hay, mayli, bu tikanlar ikki pulga qimmat bo'lsin, ammo bunday yaxshi xaridor kam uchraydi. Xushbaxt bir inson bu o'tinga qo'l tekizdi va bu tikanlar gulzor gullariga aylandi. Kimki bundayin tikanni sotib olmoqchi bo'lsa, har bir alohida tikan novdasini bir dinorga sotib oladi. Bu inson qo'liday qutlug' qo'l tikanimga tekkuncha behad azoblar ko'rdim. Garchi bu arzimas bir tikandir, ammo Uning qo'lidan olganim uchun ming jonga arziydi.

O‘N SAKKIZINCHI MAQOLA  
*BOSHQA QUSH MUSHKULOTI*

Boshqa bir qush dedikim:

— Ey, hazratim, men bir notayunman, qanday qilib yo‘lga tushaman. Men juda ojizman, quvvatim yo‘q, bunaqa uzoq yo‘lga toqat qilolmayman. Vodiy uzoq, yo‘li azobu uqubatli, men birinchi manzildayoq o‘lib qolaman. Yo‘lda olovli tog‘lar ko‘p, har kim ham bunga chidash berolmaydi. Bu yo‘lda yuz minglab boshlar chavgon to‘piday yumalab ketdi, bu talab yo‘lida qancha-qancha qonlar to‘kilib, ariqday oqdi. Yuz minglab oqillar bu yerga bosh qo‘ydilar, bosh qo‘ymaganlar esa boshdan ajraldilar. Mardlar hech ikkilanmay, hayodan boshlariga soyabon olib yashiringan bu yo‘lda men miskin bechora nima qilardim. Bir zarraday yo‘qolib ketaman, azm etib yo‘lga tushsam, muqarrar o‘laman.

*HUDHUDNING BU QUSHGA JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey, ojizu behafsala! Qachongacha dilingda qo‘rquv va tahlika bilan yurasan? Sening bu olamda nima qadring bor? Tirikliging bilan o‘liming barobar. Dunyo boshdan oyoq najosatdir, xalq shu najosat uzra talashib yurib o‘ladilar oqibat. Yuz minglab xalq sariq qurt kabi dunyoda zor-zor dard bilan o‘lib ketadilar. Biz agar bu vodida azob bilan o‘lsak, bu najosat uzra xoru zor bo‘lib o‘lgandan yaxshi emasmi? Bu talab agar sendan va mendan xato bo‘lsa ham, agar g‘amdan o‘lsak bu ham ravodir. Dunyoning xatolari ko‘pdir, bir xato ikkinchi xatoni inkor qiladi. Agar birovga ishq badnomlik keltirsa, lekin bu axlatkashlik va qon olishlik kasbidan afzaldir.

Yuzminglab odamlar kissavurlik va makru hiyla bilan mashg‘ullar — pastkash dunyo o‘laksasi ustida talashadilar. Deylik bu savdo kissavurlikchalik emasdir, sen kamrog‘ini tanla, bu mening uchun kamroq g‘amdir. Qachongacha bu savdo daryosiga diling g‘arq, hamma narsani makru hiyla, kissavur-lik bilan o‘lchaysan. Agar birov buni g‘urur yoki havas desa, shunday joyga yetasanki, hech kim yetmagan bo‘ladi. Bu havas orzular g‘ururi yo‘lida jon berish, uy va do‘konga ko‘ngul bog‘lashdan ko‘ra yaxshiroq.

Buning hammasini eshitdik va ko‘rdik ham, ammo bir nafas bo‘lsin o‘zimizdan qutulolmadik. Ishimiz xalq bilan uzoq bog‘lanish bo‘ldi, qachongacha bu tilanchilik, bu sig‘inish-lar? O‘zimizdan va halqumdan o‘lib poklanmasak, jonim halqumdan poklanmaydi. Kimki u xalqqan butkul qutulmasa, yo‘lning erani va bu pardaning mahrami bo‘lolmaydi. Bu pardaning mahrami ogoh jondir. Halqumiga suyangan tirik kishi mard bo‘lganmi? Agar sen ish (so‘fiylik yo‘li) eranidirsan, oyog‘ingni dadil qo‘y. Xotinlarga o‘xshab ojizlik oshkor etma. Shuni qatiy ishonch bilan bilginki, bu talab agar



kofirlik bo‘lsa ham, ammo asl ish shudir, bu yuzaki, yengil-yelpi ish emas.

Ishq daraxtining mevasi benavolik, qashshoqlikdir. Agar kimningki mevasi - mol-mulki bo‘lsa, bu yo‘ldan chiqsin. Ishq agar bir ko‘ngildan joy olsa u kishining jonida orom qolmaydi, borlig‘ini berishga tayyor bo‘lib qoladi. Bu dard eranlarning qoniga kirib boradi, boshini pastga qilib, pardadan tashqariga olib chiqadi. O‘zligiga bir nafas ham yo‘latmaydi, nafsni o‘ldiradi va qon bahosini talab qiladi. Agar suv bersa, faqat judolik, man’ etish suvini, agar non bersa, judolik alamidan pishirilgan patirni beradi. Zaiflikda chumolidan ojizroqdir, chunki ishq lahza-lahza zo‘rayib boradi — vujudini yemiradi. Mard kishi xavfu xatar dengiziga tushgach, jigar qonisiz bir luqma non yemaydi...

#### *ABUL-HASAN XARAQONIY HIKOYASI*

Shayx Xaraqoniy Nishopurga keldi, yo‘lning azobi uni xasta qildi. Bir go‘shada jandasiga o‘ralib olib, och holda bir hafta yotdi. Birov uning holidan xabar olmasdi. Hafta oxirida Allohga nola qilib dedi:

— Ey Iloh, bir burda non ato et, to yeb quvvatga kiray.

G‘aybdan oyuz keldiki:

— Nishopur maydonini supurib, tuproqdan tozala, agar maydon tuprog‘ini batamom supurib olsang, yarim arpa miqdorida oltin topasan, shunga non sotib olasan!

Xaraqoniy dedi:

— Agar supurgi va g‘alvirim bo‘lsaydi, non tilashimga hojat qolarmidi? Jigarim qurib, suv qolmadi, jigarsiz bo‘lsa ham non ber menga, qonimni ichib quritma.

G‘aybdan yana ovoz keldiki:

— Bu osondir, agar non kerak bo‘lsa, tuproqni supurgil!

Shayx odamlar oldiga borib, supurgi va g‘alvir so‘rab iltijolar qildi. Tuproqni supurib, sur‘at bilan ishlardi va supurgan tuproqlarni g‘alvirdan o‘tkazardi. Oxirgi tuproqni supurib, elaganda, o‘shal oltin parchasini topti. Oltinni ko‘rganda, nafsni quvnab ketdi. Novvoy oldiga borib non sotib oldi. Novvoy non berganda, supurgi bilan g‘alvirni shamol olib ketdi. Qariya bundan xafa bo‘lib, fig‘on qildi.

Dedi:

— Menday omadsiz sargardon dunyoda yo‘q, endi tovon to‘lash uchun oltinim ham yo‘q». Shunday deya, u devonalarday yo‘l yurardi, oxir bir vayronaga borib o‘tirdi. Shu vayronada xoru zor g‘amgin o‘tirgan edi, qarasa supurgi bilan g‘alviri yonida turibdi.

Shayx shodu xurram bo‘lib dedi:

— Ey Allohim, nega bunday dunyoni menga qorong‘u qilding? Topgan nonimni jonimga

zahar qidding, jonimni qaytadan olganday bo'lding.

G'aybdan ovoz keldiki:

— Ey, yaxshilikni bilmagan odam, non nonxo'rishsiz (nonga qo'shib yeyiladigan narsalar) yaxshi emas. Nonning o'zini qo'yingga solding, men nonxo'rish qo'shib qo'ydim, minnatdor bo'!

*DEVONA VA UNING ALLOHDAN JUBBA (PO'STIN) TILAGANI HIKOYATI*

Alloh yo'lga ko'ngil bergan bir devona bor edi, odamlar orasta kiyingan, u esa yalang'och edi.

Dedi:

— Yo Rab, bir po'stin bergin, puxta-mahkam bo'lsin, boshqalar kabi meni ham xursand qilgin.

G'aybdan ovoz keldiki:

— Ey, devona, senga issiq quyoshni ato etdim, isin.

Devona dedi:

— Yo Rab, qachongacha azob berasan, nahotki senda quyoshdan yaxshiroq po'stin bo'lmasa.

Dedi:

— Bor, yana o'n kun sabr qilsang, shaksiz senga bir po'stan berurman.

O'n kun o'tkandan keyin bechora devonaga birov bir po'stin keltirdi. Po'stinning yamoqlari juda ko'p edi, chunki u ko'p darveshlarning qo'lidan baxsh bo'lib o'tgan edi.

Devona dedi:

— Ey sirlarni bilguvchi zot, shu o'n qun ichida jandalarni bir-biriga yamab tikdingmi. Xazinangdagi to'nlarining yonib ketdimikin, bu jandalarni bir-biriga ulab keltirding. Yuzminglab jandalarni bir-biriga tikibsan, bunday tikuvchilik hunarini kimdan o'rganding?

Uning dargohiga borish oson emas, Uning yo'lida tuproq bo'lmoq lozim. Bu dargohga juda ko'p kishilar uzoqlardan keldilar, ular ham olov va ham nurdan kuyib, yana yashnadilar. Kimki umri oxirida maqsadiga erishdi, o'zi hasratga aylanib, maqsadni ko'rmadi.

*ROBIYA ADAVIYA VA UNING XAJI*

Robiyakim, uni «tojul rijol» - erkaklar toji der edilar, Ka'ba yo'lida yetti yil yonboshi bilan (sudralib) yurdi. Ka'baga yaqinlashganda, to'liq hajni topdim, deb ichida gumon qildi. Haj kuni Ka'ba tavofiga niyat qilganda, xotinlarga xos uzri voqe' bo'ldi (hayz ko'rdi). Shu bois yo'ldan qaytdi va Allohga nola qilib dedi:

— Ey Zuljalol, Ka'ba tavofi umidida yetti yil yonboshlab yo'l bosdim. Endi yettim deganda, yo'limga bunday tikan paydo qilding. Yo menga O'z uyingdan joy ber yoki o'z uyimga qaytishga yo'l qo'yma — men Ka'bani tavof qilmay ketmayman.

Robiya kabi oshiq bo'lmasang, bu voqeaning sirrini ham, qadrini ham bilmaysan. Toki sen bu fasllar — suratlar dunyosida ekansan, rad va qabullar to'lqini bo'lib turadi. Gohida Ka'ba oldida yuqingni beradi, gohida dayr ichida ishingni o'nglatadi. Agar bu girdobdan boshingni tashqari chiqara olsang, har nafasda haqiqiy jam'iyat, osoyishtaliklarni ko'rasan. Bo'lmasa shu girdobda giriftor bo'lib qolasan. Charxi falak bilan birga tegirmon toshiday aylanaverasan. Bunday holatda bir nafas bo'lsa-da, xotirjamlikdan umid yo'q, sening vaqting bir pashshaning umrichalik qimmatga ega emas.

*PASHSHA VA BURGADAN QIYNALGAN DEVONA HIKOYATI*

Bir vayrona burchagida bechora va g'arib bir devona yotardi. Bir nomdor shayx uning yoniga bordi.

Shayx dedi:

— Sening siymongda bir ulug'lik ko'rib turibman. Bu ulug'liging barobarida o'zingga yarasha suhbatdoshlaring — jamiyating ham bormi? Jamiyati bor odamda osudalik ham bo'ladi.

Devona dedi:

— Odamlar bilan qanday suhbat qilayinki, burga bilan pashshadan qutulolmayman. Mening «suhbatdoshlarim» shular. Kunduz kunlari pashsha azob bersa, kechalari burgalar qonimni so'rib uyqu bermaydi. Namrudning boshiga yarim pashsha qo'nib, uning Allohdan qaytgan boshining mag'zini yeb tugatdi. Men shu zamon Namrudimanmi, Alloh mening boshimga pashsha, chivin va burga lashkarini yuboribdi.

*O'N TO'QQIZINCHI MAQOLA*

*BOSHQA BIR QUSHNING UZRI*

Boshqasi aytdi:

— Behad gunohkorman, gunohli odam u yerga qanday yo'l olsin? Pashsha kabi

bulgʻangan kishi Qof togʻidagi Simurgʻ nazariga arziydimi?

Begunoh kishi yoʻldan bosh tortgandan keyin u Podshoga yaqinlashishga erishadimi?

#### *HUDHUDNING UNGA JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey, gofil, Undan noumid boʻlma, har zamon Undan lutfu karam tila. Bu ishni oson deb bilib, sidqidil-dan tilamasang, mushkuling oson boʻlmaydi, soxta tavbalar bilan u tomon eshik ochilmaydi. Ammo agar gunohing boʻlsayu, sidqidildan sadoqat koʻrsatib, iltijo qilsang, U tomon yuz eshiklar qarshingda ochiladi.

#### *GUNOHKOR ODAM HIKOYATI*

Bu odam koʻp gunoh qilgan edi, gunohlaridan uyalib, tavba qildi va toʻgʻri yoʻlga kirdi. Ammo nafsi gʻalaba qilib, tavbani unutib, yana shahvatga berildi. Yana bir muddat yoʻldan adashib, har xil gunoh ishlarni qilardi. Shundan keyin dilida shunday bir dard paydo boʻldiki, xijolatdan oʻzini qaerga qoʻyishni bilmasdi. Harakatlari natija bermasdi, tavba qilay desa, yana buzib qoʻyaman, deb qoʻrqardi. Kecha-kunduz qozonda qovurilayotgan bugʻdoy donasiday dilida oʻt, koʻzlaridan qonli yosh oqizardi. Agar yoʻlida chang-gʻuborlar qoʻnsa, uning koʻz yoshi yuvib tashlardi. Bir kuni saharda qulogʻiga gʻoyibdan ovoz kelib, mushkulini oson etdi.

Ovoz dedi:

— Allohvandi jahon deydiki, ey falonchi, avvalda tavba qilding, afv etdim. Sen tavbani buzding — jazolashim mumkin edi, lekin jazolamadim. Ikkinchi marta tavba qilding va yana buzding. Muhlat berdim, gʻazab qilmadim. Endi xayolingda yana tavba qilish bor, ey bexabar. Yana tavba qilib, Men tomon qayt, eshiklarim ochiq, sen - jinoyat qiluvchi, Biz - kechiruvchimiz.

#### *JABRAIL VA BUTPARAST ODAM HIKOYATI*

Bir kecha Ruhul-amin (Jabrail) sidra daraxti ustida edi. Alloh huzuridan «Labbayka» ovozini eshitdi. Bir banda bu zamonda chaqirardi. Uning kim ekanligini birov bilmasdi. Shuni bilamanki, bu oliyqadr bandadir, uning nafsi oʻlib, dili tirilgandir.

Jabrail bu bandani koʻrish niyatida olamni kezib chiqdi. Avval yetti osmonni qidirdi, lekin topmadi. Keyin Yerga tushib, daryo va togʻlar, shahar-qishloqlarni kezdi, ammo uni topmadi. Yana Hazrati Parvardigor tomon uchdi, yana «Labbayka» ovozini eshitdi. Bu bandaning izzatidan hayratga tushib, yana olamni kezib chiqdi. Ammo ul bandani koʻrmadi.

Soʻnfa Parvardigorga murojaat qilib, dedi:

— Ey Alloh, bu bandang tomon menga yo‘l ko‘rsat.

Haq taolo dedi:

— Rum tomon safar qil, cherkov (dayr)ga kirgin, topasan.

Jabrail Rumga bordi va ul bandani ko‘rdi: u butga qarab, iltijolar bilan sidqi-dildan zor-zor yig‘lardi.

Jabrail Allohga murojaat etib so‘radi:

— Ey hech narsaga muhtoj bo‘lmagan Zot, pardani ochib menga bu sirni ayon qil. Dayrda butga xitob qilib o‘tirgan kishiga Sen lutf ko‘rguzub, «Labbayka» deb javob qaytarasan, buning boisi nimada?

Haq taolo dedi:

— Albatta u ko‘ngli qora odam, o‘z adashganini shu bois bilmaydi. Agar nodonlik va g‘aflat tufayli u yo‘lini yo‘qotgan bo‘lsa, ammo Men oldinni ko‘ruvchi donoman, yo‘lni alashirmayman. Endi (sadoqatini ko‘rib) unga Dargohi oliygacha yo‘l ko‘rsataman, Bizning lutfu marhamatimiz unga uzrxoh bo‘ladi.

Shunday deb Alloh bandaning joniga yo‘l ochdi va Alloh nomini tiliga solib, Haqni tanitdi. Shuni bilki, bu banda ham imon millatidan bo‘ldi, Ul dargohga boradiganlar illatsiz — nuqsonsizdirlar. Agar bu Dargohda hech narsang bo‘lmasa, hech narsadan tashvish chekmaysan, xotirjam bo‘l. Hamma vaqt ham zuhdu taqvo qabul bo‘lavermaydi. Uning dargohida juda oz, hatto yo‘q narsani ham arziri deb hisoblaydilar.\*

#### *SO‘FIY VA BAG‘DODDAGI ASALFURUSH HIKOYATI*

Bir so‘fiy Bag‘dod qo‘chalaridan o‘tardi, shunda bir odamning:

— Asalim bor, arzonga sotaman, - degan ovozi eshitdi.

So‘fiy uning oldiga borib dedi:

— Ey falon, hech narsani hech narsaga berasanmi?

Asalchi dedi:

— Nari tur, sen devonamisan, hech jahonda hech narsaga bir narsa beradimi?

G‘oyibdan ovoz keldi:

— Ey so‘fiy, turgan joyingdan bir qadam pastga tushib, xonaga kir, men hech narsa uchun istagan narsangni beraman. Allohning rahmati munavvar quyoshdir, u barcha zarralarni yoritadi. Uning rahmatini ko‘rkim, bir kofir kishi uchun Payg‘ambar bilan ham e‘tirozga bordi.\*\*

*HAQ TAOLONING QORUN TO‘G‘RISIDA MUSOGA XITOB*

Haq taolo dedi:

— Ey Muso, Qorun senga yetmish marta zorlanib yalindi. Sen esa unga hech javob bermading. Agar u bu zorliklarni Menga qilsaydi, uning jonidan shirkni chiqarib yuborardim, tanasiga din to‘nini kiydirardim. Ey Muso, uni yuz dard bilan azoblab o‘ldirding, yo‘lning tup-rog‘iday xor qilib, tuproqqa topshirding. Sen uni yaratmagan-san, toki azobi bilan ko‘ngling tinchisa.

Rahmatu marhamatsizlarga rahmu shafqat qilguvchi Zot rahmat ahlini ne‘mat bilan siylaydi. Allohning rahmat daryolari, fazlu karami cheksiz, gunohkorlar uzr tilasa, qo‘zining yoshi bulutdan yomg‘irday yog‘ilsa — kechiradi. Kimdagi shunday marhamat bo‘lsa, u bulg‘anishlarga qarab o‘zgarmaydi. Kimki gunohkorlarni ayblasa, u o‘zini jabru sitam etuvchilar qatoriga qo‘shadi.

*BADBAXT ODAM O‘LIMI VA ZOHIDNING TUSHI HIKOYATI*

Gunohlar ichida o‘lgan mufsid - badkirdor odam tobutini ko‘tarib borardilar, buni ko‘rgan bir zohid badkirdorga janoza o‘qish noravo deb o‘zini chetga oldi. Kechasi zohid uni tushida ko‘rdi: u jannatda shodu xurram oftobday porlardi.

Zohid dedi:

— Ey qul, bu oliy maqomga qanday qilib erish-ding, tirikligingda nuqul gunoh ishlarni qilarding, boshingdan oyog‘inggacha bulg‘angansan axir?»

Dedi:

— Sening menga ta‘nang va rahmsizligingni ko‘rib, Parvardigor menga rahm qildi. Bu rahmat men oshuftaga ta‘sir etdi. Ko‘rgilki, ishq ichra yonish ne hikmatlar qilur, ham inkor qiladi va ham rahm etib kechiradi. Uning hikmati qarg‘a qanotiday qorong‘i kechada, go‘dakning qo‘liga chiroq tutqazib yuboradi. Keyin kuchli shamolni qo‘zg‘atib, uning chirog‘ini o‘chir, deb buyuradi. Keyin yo‘lovchi bo‘lib go‘dakni yo‘lda tutib, chiroqni nega o‘chirding, nodon deb aytadi. Shu tufayli bolani yuz savolga tutadi, unga itobu po‘pisa qiladi va yana yuz mehru shafqat ko‘rguzadi. Agar hamma uchun faqat toatu namoz buyurganda, ishqu muhabbatga giriftorlik bo‘lmasdi. Hikmat faqat shu bilan tugamaydi, uning chegarasi, qolipi, muqarrar qoidasi yo‘q. Uning yo‘lida yuz ming hikmat mavjud, undan bir qatrasini - bahri rahmatdir.

Ey, o‘g‘il, bu yetti osmon — yetti charxi pargor kecha va kunduz sen uchun ishlab turadi. Ruhlar — farishtalar toati sen uchun, jannat va do‘zax sening qahrining va lufu mehriyning aksidir. Farishtalar barchasi senga sajda qildilar, olamning xossalari juzvdan kulligacha

vujudingda mujassam etilgan. O‘zingga kamsitish va tahqir ko‘zi bilan qarayverma, chunki sendan afzalroq maxluqot yo‘q. Sening jisming - juz’, ammo joning Kullning kullidir. O‘zingni pastga urib, ojiz sanama. Sening qulling porlab, juzving paydo bo‘ldi, joning harakatga kelib, sur‘at ko‘rsatdi va a‘zolarining yuzaga keldi. Tana jondan judo emas, balki uning juzvidir, jon Kulldan judo emas, balki uning uzvi - a‘zosidir. Ahadning bu yo‘lida adad-sanoq yo‘q, abadul abad juzvu kull deb ajratish nodurust. Sening zavqing oshsin deb yuz minglab rahmat buluti ustingdan yomg‘ir yog‘diradi. Kullning yuksalish vaqti kelganda, sen uchun gul rangba-rang kiyimlar kiyadi. Malak-larning barcha ishlari — faoliyati seni deb amalga oshadi. Ularning barcha toatini Parvardigor senga tuhfa etishni xohlaydi.\*

#### *ABBOSA VA QIYOMAT KUNI HIKOYATI*

Abbosa dedi:

— Qiyomat kuni qo‘rquv va haybatdan xalqhar tomonga qocha boshlaydilar. Osiy gunohkorlar, g‘ofil va johillarning yuzi bir soat ichida qop-qora bo‘ladi. Odamlar noiloj hayron, har biri o‘zgacha bir holatda parishonu hayajon ichida bo‘ladi.

Shunda Haq taolo yerdan to‘qqiz falakkacha malaklarning yuz ming yillar qilgan toatlari savobini ul pok qavmdan butunlay olib, xokiylar - odamlar boshi uzra sochadi.

Malaklar faryod qilib deydilar:

— Ey Alloh, bu xalq nega bizga sherik bo‘ladi - savobimizni oladi?

Haq taolo deydi:

— Ey ruhoniy xilqatlar, sizga bundan ziyon ham, foyda ham tegmaydi, ammo xokiy bandalar — tuproqdan ato etilgan xilqatlarning ahvoli og‘ir. Axir non ochlar uchun emasmi?!

#### *YIGIRMANCHI MAQOLA BOSHQA QUSHNING UZRI*

Boshqa qush aytdi:

— Muxannas (xunasa — jinsi noaniq) zotdirman, har zamonda boshqa bir shoxda qo‘nadigan turlanuvchi qushman. Gohrindman, gohzohid, gohida mastman. Gohida bormanu yo‘qman va gohida yo‘qdaymanu borman. Nafsim gohida xarobotga eltadi, gohida jonim munojotga chorlaydi. Gohida dev bilan oshnolik qilaman, gohida esa farishta devdan qutqarib, qaytarib keladi. Man ikkisi orasida hayrondirman, mana shunaqa zindon qudug‘ida qolgan odamman, nima qilay?

### *HUDHUDNING UNGA JAVOBI*

Hudhud aytdi:

— Ey, yo‘l tahlikasidan hayronu zor kishi. Shohning hukmi hammaga ham shundaydir. Har bir odamda bu xislatlar mavjud. Chunki bir sifat egasi bo‘lgan kishi bo‘lmaydi. Agar boshidan hamma pok bo‘lsaydi, anbiyoning yuborilishi shart emas edi. Agar toatingda ko‘ngling mustah-kam bo‘lsa, asta-sekin, toqatli tarbiyalanish bilan islohga kelasan (o‘zgarasan). Nafs umr davomida sarkashlik qilmasin desang, tanni orom va huzurlarga garq etma. Ey gaflat tandiri sening joying bo‘lgan odam, boshdan oyog‘ing Matlub bilan band bo‘lsin. Qip-qizil qonli yosh dil asrori nishonasi, ammo ko‘p yeyish - bu dilning zangidir. Agar sen nafs itini parvarish etsang, vujuding ham, ruhing ham xunasalikda qolib, gavharing namoyon bo‘lmaydi.

### *SHIBLIY BAG‘DODIY VA UNING YO‘QOLISHI HIKOYASI*

Shayx Abubakr Shibliy Bag‘dodda necha marta yo‘qoldi. Hech kim uni topolmasdi. Uning suhbatini sog‘inib, ko‘p izladilar, oxiri birov uni muxannasxona (xunasalar yig‘iladigan joy) da ko‘rdi. Shayx ana shu beadablar guruhi orasida ko‘zida yosh o‘tirardi.

So‘fiylardan biri dedi:

— Ey sirlarni izlovchi ulug‘ shayx, bu yerda nima qilasan, bu yer sening joyingmi?

Shayx Shibliy dedi:

— Bu qavm fosiq va badaxloqlikda shu darajadagi, dunyo yo‘lida qaysi erkak, qaysi xotin ekanligi noma‘lum. Men ham shularga o‘xshaganman, ammo din yo‘lida shundayman. Na dinimda mardlik qo‘rsata olaman, na ayollarday ojizu zorman. O‘zimning nojavonmardligim ichra yo‘qoldim, chunki mardligimdan uyalaman. Kimki o‘z jonini bag‘ishlasa, o‘z yaralarini Yor dasturxoniga aylantiradi. Chin erkak o‘zini past tutib, yiqilganlarning izzatu ulug‘vorligi uchun g‘amxo‘rlik qiladi. Agar sen nazarda bir tukdan ortiq ko‘rinsang, o‘zing uchun butdan ham battarsan, chunki o‘zingga but kabi sig‘inasan. Agar sen uchun maqtoov va tanqidlar farqlanib tursa, ya‘ni maqtoovdan xursand bo‘lib, tanqiddan ranjisang, but yasaydigan butgarsan, xolos. Agar Haqqa banda bo‘lsang, but yasovchi bo‘lma, Ezid taolo yo‘liga kirgan mard bo‘lsang, (butparast) Ozar bo‘lma!

Xos va avom o‘rtasida bandalik maqomidan balandroq maqom yo‘q. Bandalik qil, bundan ortiqni da‘vo qilma, Haqodami bo‘l, izzatni o‘zingni ulug‘lashdan qidirma. To‘ning ichida yuz but bo‘lsa, yana o‘zingni xalqqa nechun so‘fiy qilib ko‘rsatasan? Ey xunasa, mardlar to‘nini yech, o‘zingni bundan ortiqsargardon qilma!\*



*IKKI SO‘FIYNING O‘ZARO XUSUMAT QILIB, QOZI OLDIGA BORGANLARI*

Xirqa kiygan ikkita so‘fiy o‘zaro janjal qilib, qozixonada hozir bo‘ldilar. Qozi ularni bir burchakka olib borib, dediki:

— Jangu xusumat so‘fiylikka yarashmaydi. Egningizga Allohga taslimlik to‘nini kiyib olgansiz, nima uchun bu xusumatni boshladingiz? Agar sizlar jangu jadal, qasdu kina odami bo‘lsangiz, bu liboslarni yechib tashlang. Va agar bu to‘nlar bilan birga bo‘lsangiz nizo va janjal qilmang. Men bir qoziman, ma‘naviy (so‘fiy) odam emasman. Ammo bu kiyimlardan qattiq uyalaman. Bunday xirqa kiygandan ko‘ra, parda ichiga yashirinish, ya‘ni paranji yopinish afzal.

Sen ishq ishida na xotin, na ersan, jaholat bilan birga bo‘lasan, shunday bo‘lgach, ishq sirrini hal etolasanmi? Agar bu maydonga kirishga azm etgan ekansan, boshni berib, jon tarkini etishga tayyor bo‘l! Va agar ishq yo‘lining sirriga muftalo bo‘lsang, o‘zingga balodan zireh kiyib ol. Sen bundan boshqa da‘vat qilib bosh ko‘tarma, bo‘lmasa rasvolik botqog‘iga botib ketasan.\*

*BIR KAMBAG‘ALNING MISR SHOHIGA OSHIQ BO‘LGANI HIKOYATI*

Misrda nomi shuhratga burkangan podsho bor edi. Bir kambag‘al darvesh shu podshoga oshiq bo‘ldi. Darveshning oshiqliği xabari shohga kelib yetgach, uni o‘z huzuriga chaqirtirdi. Shoh darveshga dedi: «Nega podshohga oshiq bo‘lding, endi ikki yo‘ldan birini tanla: yo bu diyoru shahrni tark etasan, yoki mening ishqimda boshingdan judo bo‘lasan. Senga haq gapni aytyapman: yo boshingni jallod kundasiga qo‘y, yoki musofirligu ovoragarchilikni bo‘yningga ol».

Darvesh chin oshiqlik nima ekanini bilmasdi. Shu bois shahardan chiqib ketishni tanladi. Benavo darvesh saroydan chiqishi bilan, shoh o‘z a‘yonlariga buyurdi: «Uni tutib boshini kesinglar!» Shoh yaqinlaridan biri dedi: «Axir uning hech gunohi yo‘q-ku, shohim nega uning boshini kesishga buyuradilar?» Shoh dedi: «Chunki u oshiq emas edi, bizning ishqimiz yo‘lida sodiq emas edi. Agar u chin oshiqlik ishini bilganida edi, bu yerda boshini kesishlarini xohlagan bo‘lardi. Kimda-kim, boshi Jonondan ko‘ra aziz bo‘lsa, oshiqlik unga haromdir. Agar u Mendan bosh kesishni xohlaganda edi, shoh toju taxtidan kechib, uning oldida bel bog‘lab, xizmatda bo‘lardi va darvesh olamning podshosi bo‘lardi, ya‘ni o‘z o‘rniga — taxtga o‘tqazardi. Ammo u ishqda quruq da‘vo qilardi, xolos, shu bois bundaylarning boshi kesilishi yaxshi. Har kimki ishkda da‘vo qilur, ammo sodiq emasdir, u shaksiz beburd va buzuqidir. Buni shu uchun aytdimki, har qanday past beburd kishi bizning ishqimizda behuda lof urmasin, yolg‘on so‘zlamasin».

YIGIRMA BIRINCHI MAQOLA  
*BOSHQA QUSHNING MUSHKULI*

Boshqa bir qush dedi:

— Nafsim dushmanimdur, undan qanday qutulaykim, u qaroqchiday men bilan birgadir. It nafsim hech amrimga itoat etmaydi, undan jonimni qanday qutqarishni bilmayman. Sahroda bo‘ri menga oshno bo‘ldi - bo‘ysindi, ammo bu chiroyli it (nafs) menga itoat etmaydi. Bu bevafo itni nima qilishni bilmay hayronman, qanday qilib uni bo‘ysundirish yo‘lini topolmayapman.

*HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey, qo‘ynida itni erkalab, parvarish etayotgan kishi, bu it seni tuproqqa qorib poymol etibdir. Sening nafsing ham ahval (bir narsani ikkita qilib ko‘rsatuvchi) va ham a’var (bir ko‘zli)dir.

U ham it, ham kohil (dangasa, battol), ham kofirdir. Birov agar seni yolg‘ondan tilyog‘lamalik qilib maqtasa, nafsing bu maqtovdan yashnab ketadi. Yolgondan bunday yashnab semiradigan bu it hech ham yaxshilikka yuz o‘gurmeydi. Yoshlikdan bu nafs iti tarbiyalanmagan va natija ko‘rinib turibdi. Go‘daklikdan Allohga dil bermay g‘aflatda bo‘lgansan. Yigitlikda esa Haqdan yana ham begona bo‘lgansan, yoshlikda o‘yin-qulgi, beparvolik, devonalyqda kuning o‘tgan. Oxirida qariganda joning qiynalib, taning zirqiraganda bilding-ki, umring shu nafs ketidan ergashib o‘tibdi. Mana shunday jaholatda o‘tgan umr bilan qanday qilib nafs itini rom eta olasan. Ko‘p bandalar dunyoda shu it bilan birgadirilar, ular aslida itning bandasi — qulidirlar. Yuz minglab qo‘ngil g‘amda o‘ddi, ammo bu kofir nafs o‘lmasdan kelmoqda.

*GO‘RKOVNING HIKOYATI*

Bir go‘rkov uzoq umr ko‘rdi. Bir kishi undan so‘radi:

— Menga ayt-chi, sen umr bo‘yi go‘rkovlik qilding. Tuproq ostida nima ajoyibotlar ko‘rding?

Dedi:

— Shuni ko‘rdimki, nafsimning iti yetmish yil go‘r qazidi, ammo o‘lmadi, bir nafas farmonimga bo‘yin egmadi, toatda o‘tirmadi, mening holimga boqmadi, nolamni eshitmadi.

*ABBOSA VA UNING KOFIR NAFS HAQIDAGI SO‘ZI*

Bir kecha Abbosa suhbatdoshlariga murojaat qilib dedi:

-Ey hozir bo‘lganlar, agar bu jahon kofirlar bilan to‘lsa va o‘shanda kofirlar sidqu safo yuzidan imonni qabul qilsalar ishonmoq mumkin. Darhaqiqat, buning tasdig‘i shuki, minglab payg‘ambarlar odamlarni imonga da‘vat etdilar, odamlar ularga ergashdilar. Ammo ularning kofir nafsni musulmon qilishga kuchlari yetmadi. Bunga urinmadilar ham, zero yuzlab tafovut va ziddiyatlar, adovatu nadomat shu nafs tufayli edi.

Biz hammamiz kofir nafs hukmidamiz, o‘z ichimizda kofirni parvarishlaymiz. Bu nafs shunday bo‘isunmas, battol kofirki, uni o‘ldirish eng katta savob. Bu nafs har jihatdan ofat keltiradi. Agar u nobud bo‘lsa, qanday yaxshi bo‘lardi. Ko‘ngil vujud mamlakatining muqim otlig‘idir, ammo kecha-kunduz bu nafs iti uning nadimi, suhbatdoshi. Otliq otini qancha choptirsa, it ham ov paytida u bilan barobar yuguradi.

Ko‘ngil nimaki Jonon huzuridan olgan bo‘lsa, nafs ham ko‘nguldan shuncha oladi. Kimki bu itni mardlik bilan band etsa, ikki olamda sherni o‘z domiga tushirgan bo‘ladi. Kimki bu itni o‘ziga bo‘ysundirsa, mardlikda hech kim u bilan tenglasholmaydi. Kimki bu itni mahkam bog‘lasa, uning oyog‘ining tuprog‘i boshqalar qonidan afzaldir.

#### *JANDA KIYGAN ODAM VA PODSHO HIKOYATI*

Bir janda kiygan odam yo‘lda ketayotgan edi. To‘satdan uni podshoh ko‘rib qoldi. Shoh dedi:

— Ey jandapo‘sh, kim yaxshi - menmi, yo sen?

Janda kiygan pir dedi:

— Ey bexabar, jim bo‘lgin. Agarchi biz darveshlar uchun o‘zini maqqash rayu emasdir. Chunki o‘zini maqqagan odam ogoh va faqru fano kishisi emasdir. Ammo zarurat yuzasidan senga shuni aytayki, bizning bittamiz sendaylarning mingtasidan yaxshiroq. Chunki sening joning din zavqini tatigan - tanigan emas, sening nafsing sendan bir eshak yaratibdir va senga minib olibdir, sen esa uning yuki ostidasan, ey amir! Kecha-kunduz boshingda nafs toji, shuningtalabida boshing sargardon. U nima buyursa, ey arzimas odam, xoh-noxoh uni bajarishga majbursan. Ammo men din sirrini tanigandan so‘ng, nafs itini o‘z eshagimga aylantirdim. Nafsim eshagim bo‘lgach, unga o‘tirib oldim. Nafs iti senga mingan, men esa, aksincha uni minib olganman. Mening eshagim seni mingandan keyin, endi o‘zing ayt, kim yaxshiroqekan? Albatta, menga o‘xshagan janda kiyganlarning bittasi sendaqalarning yuz mingtasidan afzal!

Ey nafs iti bilan xursand odam, sen shahvat olovini yoqqansan, sening obro‘yingni o‘sha shahvat olovi quritdi, dilingdan nur, tanangdan quvvatni olib ketdi. Ko‘zning xiraligi va quloqning karligi, qarilik, aqlning sustligi va ongu hushning zaifligi — bularning hammasi ofat keltiruvchi lashkar bo‘lib, ajal amirining chokar-dastyorlari-dir. Kecha-kunduz bu lashkar ketma-ket keladir. ya‘ni bu lashkar orqa-oddindan atrofni o‘rab oladi. Har tomondan lashkar bostirib kelgach, sen va nafsing noiloj taslim bo‘lasizlar. Nafs iti

bilan apoq-chapoqbo‘lding, uni xushlab turding, u bilan doimo ishrat qilding. Uning ishratu maishati tuzog‘iga bog‘landing, qudratiga bo‘yin egib. mag‘lub bo‘lding. Nafsing davrasid’ sen shohanshoh, hasham ichra ulug‘san. Biroq agar sen bu itdan ajralsang — hech kimsan. Vaqti kelar, sen itdan, it sendan ajralasizlar. Bu yerda sizlar bir-birlaringdan judo bo‘lgach, qiyomatda ham o‘zaro furqatda bir-birlaringni sog‘inasizlar. Bu yerda o‘lib nafsdan ajralayapman, deb ko‘p g‘am yema, zero do‘zaxtsa yana topishasizlar.

#### *IKKI TULKI HIKOYATI*

Ikki tulki bir-biri bilan yaqinlashib, qo‘shiddilar, bas, juftlashib ishrat qildilar. Bir podsho ovga chiqib cho‘lda itlarini yugurtirdi. Bul ikki tulkini bir-biridan judo qildi.

Modasi naridan so‘rardi:

— Ey teshik izlovchi, ayt, biz yana qaerda bir-birimizga yetishamiz?

Nar dedi:

— Agar biz umrdan yana bahramand bo‘lsak, shahardagi po‘stin tikuvchilar do‘konida yana uchrashamiz.

#### *YIGIRMA IKKINCHI MAQOLA* *BOSHQA BIR QUSH SAVOLI*

Boshqa qush dediki:

— Alloh huzuriga oshiqqan paytimda Iblis g‘urur va kibor bilan yo‘limni to‘sadi. Men u bilan olishaman, ammo kuchim yetmaydi, qanday qilay axir, uning makridan kalbimda isyon qo‘zg‘olgan bo‘lsa? Qanday qilib undan qutulay va ma’no mayidan ichib zavqli hayotga erishay?

#### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Bu it nafsing toki sen bilandir, Iblis sendan nari ketmaydi. Iblis sening o‘zing bilan birga -ichingda, uning ishvalari sening tovlanib-turlanish-laringdandir. Sening o‘zingda o‘z Iblisingning orzulari bir-bir bo‘y ko‘rsatib turadi. Agar bitta orzuyingni amalga oshirsang, bu tufayli yana yuz Iblis senda tug‘iladi. Inson uchun zindon bo‘lgan dunyo gulshani aslida hammasi shayton yerlaridir. Shu sababli uning yerlaridan qo‘lingni tort, shunda Iblis seni tinch qo‘yadi.

*BIR KISHINING IBLISDAN SHIKOYATI*

Bir gʻofil — maʼrifatsiz odam bir darvesh oldida Iblisdan oʻpkalab (shikoyat qilib) gapirdi.

Dediki:

— Iblis meni vasvasaga solib yoʻldan ozdiradi. nayrang va shumlik bilan mening niyatimni buzadi.

Darvesh dedi:

— Ey aziz oʻgʻlon, Iblis bundan oldin ham bor edi, voqean bu dunyo bino boʻlibdiki u bor. U sendan ozod edi, biroq senga oʻxsha-ganlar zulmidan dod der edi. Iblis hozir shu yerda, u deydiki: dunyo - mening mulkim, dunyoni doʻst tutgan kishi men bilan, ammo dunyoni oʻz dushmani deb bilgan kishi men bilan emas. Sen ul oʻgʻlonga aytgin: mening mulkimdan qoʻl tortsin va yoʻliga ravona boʻlsin. Agar mening dunyomga aralashmasa indamayman, lekin agar aralashsa - diniga chang solaman. Kimki mening mulkim - yerimdan tashqari chiqsa u bilan ishim yoʻq, vassalom».\*

*BIR KISHINING MOLIKI DINORDAN SAVOL SOʻRAGANI HIKOYATI*

Bir aziz kishi Moliki Dinorga aytdi:

— Oʻz ahvolimdan bexabarman, sening ahvoling qanday?

Moliki Dinor dedi:

— Allohning dasturxonidan non yeyman, keyin esa shayton farmonlarini bajaraman.

Ul aziz dedi:

— Dev seni yoʻldan ozdiribdi, ammo «Lohavl» (lohavlo valo quvvatu isho billohsh aliyul azim — Allohdan oʻzga qudrat va quvvat yoʻq) demaysan, musulmonlikdan senda faqat soʻz bor, xolos. Dunyo gʻamiga muhtalo boʻlubsan, boshingga tuproq soch, iflosliklarga bulgʻangan oʻlik tanasan. Ilgari agar dunyoni tark et, degan boʻlsam, endi boʻlsa, uni mahkam ushla deyman. Chunki barcha davlatingni shu dunyoga berding, endi uni osonlikcha qoʻldan chiqarishing gumon. Ey gʻaflat orqasida orzu-havas daryosiga gʻarq boʻlgan, nimadan ajralib qolishingni bilmaysan ham. Ikki olam oʻzgarib turuvchi liboslaringdadir, ular yigʻlab yosh toʻkadilar.

Sen esa maʼsiyat — gunoh ichrasan. Dunyo mehri imon zavqini dilingdan ketkazdi, sening orzu-havaslaring axir joningni halok etadi.

*ISO VA IBLIS HIKOYATI*

Maryam o'g'li Iso yarim g'ishtni boshi ostiga qo'yib uxlab yotardi. Iso uyg'onib ko'zini ochsa, la'in Iblis boshi ustida turardi. Dedi:

— Ey mal'un, nega bu yerda turibsan?

Iblis dedi:

— G'ishtimni boshingning ostiga qo'yibsan. Dunyoning barchasi mening yerlarim, demak, bu g'isht ham meniki ekanligi aniq. Sen bu ishing bilan mening mulkimga tajovuz qilmoqdasan, o'zingni mening qatorimga qo'shayapsan.

Iso g'ishtni boshining ostidan olib tashladi, yuzini tuproqqa qo'yib uyquga ketdi. Iso yarimta g'ishtni tashlab yuborgach, Iblis Isoga dedi:

— Men endi ketdim, yaxshi uxlagin.

Ey insonlar, bu charxning ipiga hammamiz bog'langanmiz, hammamiz ipni yigiruvchi Ustoz shogirdlarimiz. Abadiy chamber-charxga kelib yetganda, bu arqonni jahon atrofiga o'rab chiqaman deb xayol etma. Bunga umring yetmaydi, chunki sen abadiy emassan. Bungacha lahad g'ishti ostida yotgan bo'lasan, g'ishtni g'isht ustiga qo'yib nima qilasan? Buncha birni ikki qilay, birini ikkinchisiga ulay, quray, tik-lay, bezay deb halak bo'lasan, bir kun kelib hammasi bir-biridan judo bo'ladi, to'kiladi, yiqiladi. Agar Qorun kabi dunyo, boyluk yig'sang ham, yeganing, kiyganing go'ringga yaqinlashtiradi. Anbiyo dunyoni nazarga ilmadilar, sen ular qabri ustiga do'kon qurma. Dunyo nima? U - hirsu havas oshiyoni, qaysikim Fir'avn va Namruddan merosdir. Goh Qorunday to'ydirib, keyin qusdiradi, gohida Shaddodday shiddat ichra tutadi. Haq taolo, uni arzimas narsa deb nomladi. Sen esa joning bilan uning domiga tushib turibsan.

Bu dunyoi dun azobini qachongacha tortasan, bu arzimas narsadan o'laksa istamak qachongacha? Sen kecha kunduz shu losha - o'laksadan bir parcha olay deb hayronu bexudsan. Shu arzimas o'laksaning bir zarrasida yo'qolgan kishi odam bo'lishi mumkinmi? Kimki arzimas o'laksada nafasi uzilsa, u o'laksadan yuz marta arzimas va jirkanchdir. Dunyo ishi — barchasi bekorchilik, ya'ni befoyda tashvish chekishdir. Bekorchilik esa behuda giriftorlik, xolos. Dunyo yonib turgan olov, bu olov har zamon, har lahzada yangi-yangi xalqlarni yondirib kul qiladi. Agar bu yondiruvchi olov kuchaysa, undan qochib qutulishing qiyin. Shermardlar kabi bu olovdan o'zingni saqla, bo'lmasa parvonaday shu olovda yonib ketasan. Kimki parvonaday olovga sig'inuvchi bo'lsa, bunday mastu mag'rur kishini yondirish lozim, albatta. Olov seni o'rab olgach, yonmaslikning iloji yo'q. Qarab boq: shunday olovdan xoli joy bo'lsa, o'sha joyga bor, toki joning olov dahshatidan qutulsin.

### *DEVONA BILAN QULDOR BOYNING NAMOZ PAYTIDAGI SUHBATI*

Bir boy namoz paytida Allohga iltijo qilib der edi:

— Ey Alloh, rahm et menga, ishimni oson qil.

Bu soʻzni yonida turgan bir devona eshitdi.

Devona unga qarab dedi:

— Sen Allohdan rahmat tilama! Sen takabbur va noz bilan jahonga gʻarqsan, har zamonda manmanlik qilib boyliging bilan maqtanib turasan. Falakka boʻy choʻzgan koʻshku ayvonlaring bor, imoratingning devorlari ham oltindan. Oʻnta quling, oʻnta kanizaging bor. Xoʻsh, bunday holda senga rahmat nimaga kerak? Qarab koʻr: bu turishing, ishlaring bilan sen Alloh rahmatiga sazovormisan? Uyalishing kerak! Agar menday, qismatga tan berib, hammasidan mosuvo boʻlsa eding, unda lutfu marhamat tilasang yarashardi. Mulk va moldan yuz oʻgirmaguncha, Atloh marhamati va rahmatiga musharraf boʻlish hissi bir nafas ham muyassar boʻlmagay. Hamma narsadan bir damda yuz oʻgirsanggina. mardlar kabi xalos boʻlasan va oliy maqsadga yetasan.

### *POKDIN INSON HIKOYATI*

Bir pokdin odam dedi:

— Bir toʻda tabdirkor odamlar bir kishini nazʼ jon taslim qilish paytida yuzini qiblaga burdilar. Biroqendi kech edi. Bu bexabar odamni oldinroq yuzini burish kerak edi. Quriyotgan shoxni olib ekishdan foyda yoʻq. Oʻlayotganda yuzni burishdan ham foyda yoʻq. Kimni-kim jon chiqar paytda yuzini bursalar, u nopok boʻlsa, nopok ketadi, uni poklayman, deb ovora boʻlma.

### *YIGIRMA UCHINCHI MAQOLA*

#### *BOSHQA QUSH UZRI*

Boshqa qush aytdiki:

— Men oltinni yaxshi koʻraman, oltin ishq terim ichida magʻzim boʻlib qolgan, yaʼni vujudimni qamrab olgan. Oltin qoʻlimda gulday yashnab turmasa, gulday kulib oʻtirolmayman. Dinor va oltin ishq mening dinimga aylanib qolgan, bu hol maning daʼvo-iddaolarimni koʻpaytirib, oʻzimni bemaʼni qilib qoʻydi.

#### *HUDHUDNING UNGA JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey, suratga hayron boʻlgan kishi, subhi safo nuri dilingdan gʻoyib boʻlibdir. Kecha-kunduz sen koʻrlikda qolgansan, chumoliga oʻxshab suratga bogʻlangansan. Maʼni kishisi

bo‘l, suratga o‘ralma, ma’ni nima, bilasanmi? Ma’ni - asl, surat esa - hech narsa. Zar (oltin) surati chiroyli toshdir, sen go‘dak bolalarday rangu suratga o‘chsan. Oltin seni mashg‘ul qilib, Parvardigordan ajratibdi. U -butdir, tuproqqa tashla uni. Oltin agar kerak bo‘lsa, xachirning farji (orqasi)ga qulf urish uchun kerakdir. Sening oltinlaringdan biron bahra olmaydi, o‘zing ham undan bahramand emassan. Agar mabodo sen bir darveshga bir arpa miqdori oltin bersang, goh uning, goh o‘zingning qoningni ichishga hozir bo‘lasan. Darveshlarni qo‘y, hatto pirlar sultoni Junayd Bag‘dodiy bo‘lsa ham bir arpa doni miqdoridagi oltinga olmaysan. Sen oltinga tayanib, xalq bilan muomala qilasan, do‘st tutinasan, sening dardu yaralaring malhami ham oltindir. Yangi oydan ham do‘kon haqini talab qilasan, oltin bilan xazina to‘ldirasan, yana kon qidirasan. Do‘koningdan bir qora pul chiqsa, azizjoning chiqqanday bo‘ladi. Ey hamma narsangni hech narsaga bergan odam, bunday holda qanday qilib endi ko‘nglingni Hammaga bera olasan?

«Ammo qiyomatgacha sabrim bor», deysan, biroq turmush oyog‘ing ostidan narvonni olib qo‘ysa, nima qilasan? Dunyoga g‘arq bo‘lganingdan keyin dining ham dunyoga ko‘milgan bo‘ladi. Bunday holda, ey azizim, dinu dunyo baravar qo‘lga kirmaydi. Sen kasb-korda farog‘at izlaysan, ammo boshingga qiyomat g‘avgosi tushsa, bu farog‘atni topolasanmi? Nimaki qo‘lingda bo‘lsa, to‘rt tomonga nafaqa qilib, tarqatib yubor.

Nimaiki bo‘lsa, uni tark etish joiz, zero kerak bo‘lsa, jonni ham tark etish lozim bo‘ladi. Sening qo‘lingda joning qolmagach, molu mulk, u yoki bu narsani saklashning nima keragi bor? Agar yotish uchun ostingda palos — to‘shaging bo‘lsa, u ham yo‘lingda g‘ovdir. Bu yumshoq, chiroyli to‘shakni yondir, ey Haqshunos, tokaygacha Haq yo‘lida nayrang qilasan? Agar bu yerda ul palosni qo‘rqib yondirmasang, tongla Iloh gilami ustidan joy ololmaysan. Kimki o‘z orzulari oviga otlansa, uning ahvoliga voy, u boshdan oyoq «voy» ichra yo‘qolib ketadi!

Voydagi harflar afsus - nadomat belgilaridir: Bunday «vov» ham «alif» ham qon va tuproq (xoku xun) ichida ko‘ramiz. Vov qon ichida, alif esa tuproq ichida xoru zordir.

#### YANGI KELGAN MURIDNING OLTINNI SHAYHDAN YASHIRGANI

Yangi kelgan muridning ozgina oltini bor edi, uni o‘z shayxidan yashirmoqchi bo‘ldi. Shayx buni bildi va hech narsa demadi. Murid hamon oltinni yashirin saqlab yurardi. Murid o‘z piri rahbarligida safar qilib yo‘lga chiqdilar. Oldilaridan qop-qora zulmat qoplagan vodiy chiqdi va ham bul vodiyda ikki yo‘l paydo bo‘ldi. Oltini bor murid titrab qo‘rqardi, oltin uning sirlarini oshkor etib rasvu qilgandi.

U shayxga qarab dedi:

— Ikki yo‘l paydo bo‘ddi, qaysi biridan yuramiz?



Shayx dedi:

— Boyligingni tashla, u — eng katta xato. Keyin qaysi yo‘ldan yursang ham xato bo‘lmaydi.

Kimki oltin-kumush bilan do‘stlashsa, devdan ham qo‘rqinchlidir. Bir parcha harom oltin deb qanchadan-qancha nayrang, hiyla ishlatasan, qilni qirq yorishga tayyor turasan. Shunday bo‘lgandan keyin cho‘loq eshakday dinda mustahkam emassan, qo‘ling og‘ir tosh ostidayu, o‘zingai xoli - xalos deb gumon qilasan. Ey inson, nayrang boshlasang — shayton bo‘lasan qolasan, ammo dindorlikka yetsang, hayron bo‘lib qolasan. Kimniki oltin yo‘ldan urgan bo‘lsa, u gumroh bo‘ldi va quduq ichida qo‘l-oyoqlari bog‘liq holda asir bo‘lib qoldi. Agar sen Yusuf (bo‘lmoqchi bo‘lsang), bu quduqdan hazar qil, daming — nafasingni chiqarmay tur, chunki bu nafs chohining ajdarhoday dami bor - bir damda yutib yuboradi.

#### *HASAN BASRIY VA ROBIYA ADAVIYA HIKOYATI*

Basra shayxi Hasan Basriy Robiya huzuriga bordi va dedi:

— Ey Alloh ishqida yagona! Hech kimga aytmagan, hech kimdan eshitmagan va o‘zingdan kechgan va o‘zingga nurday ayon bo‘lgan sirlaringdan menga ayt, men shuning shavqida huzuringga keldim.

Robiya dedi:

— Ey, zamona shayxi, bir necha vaqt o‘tirib ip yigirdim, kalava qildim va bozorga olib borib sotdim, xushvaqt bo‘ldim. Kalavamning bahosi ikki pora kumush bo‘ldi. Ularni bittadan har ikki qo‘limda ushlab turdim. Shunda meni qattiq qo‘rquv bosdi: boylik menga hamroh bo‘lib, qaroqchiday yo‘ldan ursa nima qilaman, axir buni yashirib bo‘ladimi? Parvardigorimga hammasi ayon-ku. Dunyo odami jonu dilini qonga (molu mulkka) garovga qo‘yadi, bu yo‘lda yuz ming tuzoq qo‘yish bilan shug‘ullanadi. Maqsadi bir parcha harom oltinni qo‘lga kiritish, buni qo‘lga kiritgach — jon taslim kiladi, vassalom. Oltin uning yurisiga qoladi, vorisi ham jon tahlikasida yashab, oltinni qoldirib ketadi...

Ey, Simurg‘ni oltinga almashtirgan, zar ishqida dili otashda yongan kishi, bu yo‘lda soch tolasi ham sig‘maydi, oltin, kumush, boylik sig‘adimi, axir! Jonon tomon bir soch tolasi-chalik yo‘l bo‘lmasa, hech kim bunga jur‘at qilmagay.

#### *SAYROQI QUSH OVOZIGA OSHUFTA BO‘LGAN OBID HIKOYATI*

Tunu kun ibodat bilan shug‘ullanib, haq saodatiga erishgan obid bor edi. Xalqdan ajralib, uzlatda o‘tirar, Haq bilan parda ortidan roz aytar edi. Uning hamnafsu suhbatdoshi Haqning o‘zi edi, agar nafasi tinsa ham Haqning birgaligi kifoya edi. Boshida bir daraxt soya solardi. Daraxt shoxida bir qush in qurib, xushovoz bilan sayrardi. Uning ovozida

ajib sirlar yashiringanday yoqimli edi. Obid qushning ovozi yoqtirib, berilib tinglardi. Haq subhonahu o'sha zamon payg'ambariga vahiy yuborib dedi:

— Ul obidga yetkazingkim, kecha-kunduz qilgan toatlaring Menga yoqardi. Yillar davomida Mening shavqimda yonarding, oxiriga kelib Meni bir qushga sotding (almashtirding). O'zing kamol ichra ziyrak qush bo'lsang-da, biroq bir qush nolasi seni qopga (tuzoqqa) tushirdi.

Men seni sotib olib, o'zimga o'rgatgan edim, sen esa noahillik qilib, meni sotding. Do'stlik va ulfatchilik uyini kuydirding. Bunday «vafodorlik»ni kimdan o'rganding? Sen bunaqa arzon sotuvchi bo'lma, hamdaming Bizmiz, hamdamu hamnafassiz qolma.

## YIGIRMA TO'RTINCHI MAQOLA

### *BOSHQA QUSH UZRI*

Boshqasi dedi:

— Yuragim olovga to'la, negaki mening tug'ilgan joyim, uyim menga yoqadi, uni tashlab ketmoqchi emasman. Uyim - ko'ngil yayraydigan, dilkusho qasr, xalq unga boqib havas qiladi. Bu qasrni ko'rib olam-olam quvona-man, qanday qilib undan ko'ngil uzay? Bu baland qasr uzra qushlar shohiman, qanday qilib bu shon-shuhratni tashlab, azobu uqubat yudiysiga kirayin? Qanday qilib shahriyorlikni busbutun qo'ldan berayin, bunday qasr bo'lmasa qaerda o'tiraman, qanday yuraman?

Biror-bir oqil odam o'z ixtiyori bilan Eram bog'idan voz kechib, o'ziga alam va g'ussa safarini tanlaydimi?

### *HUDHUDNING UNGA JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey pasthimmat, nomardsan, it bo'lmasang, go'laxu gulxanni istab nima qilasan? Bu tuban dunyo boshdan oyoq kuydirguvchi gulxandir, bu gulxandan endi nasibang qancha - noma'lum! Qasring agar jannat bog'i bo'lsa ham, ajal bilan birga tugaydi, u aslida azobu zahmat zindonidir. Agar ajal bo'lmaganda ham, bu manzilni yashash manzili desa munosib bo'lardi. Lekin ajal odamni bir zumda bu baxtdan mahrum etadi.

### *SHAHRIYOR VA OLTIN BEZAKLI QASR HIKOYATI*

Bir podshoh oltin bilan bezatilgan muhtasham qasr qurdi, uni tiklashga necha yuz ming dinor sarf bo'ldi. Bu jannat monand kasr tiklanib, hamma joyi nafosat va mahorat bilan bezatilib yakun topgach, turli mamlakatlar, shaharlardan odamlar uni tomosha qilishga kelardilar va tabaq-tabaq oltin-kumush tuhfa qilardilar.

Shoh binokor hakimlar va nadimlarni o‘z huzuriga chorlab, kursilarga o‘tqazib dedi:  
— Mening bu qasrim husnu jamol, chiroyda yagona, uning tengi yo‘q, u abadiy shunday turadi va mening buyukligimni ko‘z-ko‘z qiladi.

Yig‘ilganlar bir-bir:

— Yer yuzida hech kim bunday qasrni ko‘rmagan va ko‘rolmaydi, uning biror nuqsoni yo‘q, - dedilar.

Shunda bir zohid qad rostlab dedi:

— Ey baxti baland shoh, bir yoriq qolibdi va u qasrga ayb bo‘lib ko‘rinmoqqa. Agar shu ayb bo‘lmasa, firdavs qasrini unga tuhfa qilsa bo‘lardi.

Shoh dedi:

— Men hech bir raxna-yoriq ko‘rmayapman, sen battol fitna qo‘zg‘ayapsan.

Zohid dedi:

— Ey shohlikda ulug‘vor zot, teshik — bu Azozildir. Agar shu teshikni berkita olsang, sen va qasring abadiydir, bo‘lmasa bu qasring ham, senu toju taxting ham hech nimaga arzimaysizlar! Bu qasr jannatday go‘zal va ko‘ngilochar bo‘lsa-da, lekin o‘lim uni sening ko‘zingga xunuk qilib ko‘rsatadi. Bu yerda boqiy va go‘zal narsa yo‘q, hammasi o‘tkinchi. O‘z saroying va qasringga mag‘rur bo‘lma, kibr otiga o‘tirib, behuda chopma. Agar biror kishi sendan qo‘rqib sening ishlaring va fe‘lingdagi nuqsonlarni aytmasa, sening ahvolingga voy!

#### *SAVDOGAR VA UNING OLTIN QASRI*

Bir savdogar oltin bilan ishlangan ajoyib saroy qurdi. Saroyi qurilib bitgach, xaloyiqqa to‘y bermoqchi bo‘lib, hammani saroyga chaqira boshladi. Odamlarni yuz g‘urur va maqtanchoqlik bilan uyiga da‘vat qilardi, saroyini ko‘rsatib, maqtanishni istardi. To‘y kuni savdogar o‘zida yo‘q xursand, ko‘chalarda ot choptirib yurardi, to‘satdan bir devona uni ko‘rib qoldi.

Devona dedi:

— Ey betamiz, hozir yugurib borib, saroying ichiga bavl qilmoqchi edim, ammo hozir bir ish bilan mashg‘ulman, meni kechir.

Shunday deb o‘tib ketdi, odamlar uning so‘ziga qotib-qotib kuldilar.

#### *O‘RGIMCHAK HIKOYATI*

O‘sha beqaror o‘rgimchakni ko‘rgansan, xayol bilan kunini o‘tkazadi u. Uzoqqa boradigan fikru andesha vahmi orqasida o‘z burchagida uya yasaydi. Chivin ilinsin deb

havaslardan ajoyib tuzoq to‘qiydi. Chivin yoki pashsha tuzog‘iga ilingach, nishini uning mag‘ziga suqib, qonini so‘radi, keyin uni quritib qo‘yadi va vaqti kelganda uni ham yeb quvvatlanadi.

Kunlari shunday o‘tadi, toki bir kun uyning egasi qo‘liga tayoq olib, bir nafasda o‘rgimchak va chivin uyasini barbod etadi. Dunyo ham o‘sha chivin ilingan o‘rgimchak uyasi kabidir. Butun dunyo qo‘lingga kirsam ham, payti kelib bir ko‘z ochib-yumguncha nobud bo‘ladi. Agar shohliging bilan mag‘rur bo‘lsang, bu go‘yo yo‘lda o‘ynayotgan bolaning ishini qilgan bo‘lasan.

Eshak miyasini yemagan bo‘lsang, hashak istama, hashakni mollarga beradilar, ey bexabar. Kimki nog‘ora va bayroqdan xoli emas, u har qancha bong urib da‘vo qilmasin, darvesh emas. Bayroqda yel, nog‘orada ovoz bor, yel va ovoz yarim chaqaga arzimaydi, bilsang. Behuda yumushlar otiga minib choptirma ko‘p, xoja, mulktsorman deb behuda kerilma. Yo‘lbarsning terisini shilib olganlariday, bir kuni sening ham jismingdan teringni shilib oladilar. Ko‘rishib turish mahol bo‘lgach, kishi yoki yo‘qoladi yo ag‘darib tashlanadi. Doim boshni osmonga ko‘tarib, kekkayib yurish mumkin emas. Boshingni eg, qachongacha yosh bolalarday o‘ynab yurasan? Yoki boshingni qo‘yib taslim bo‘l, boshqa sarvarlik qilma, yoki bundan ortiq o‘yinga berilmagin. Bu saroyu bog‘laring - sening zindoning. Xonumoning — joningga balo. Bu takabbur tuproq to‘da bahridan o‘t, qachonga-cha g‘avg‘o va tashvishga bo‘la bu dunyoga dil bog‘laysan? Himmat ko‘zini ochib, yo‘lni ko‘r, bu yo‘lga qadam qo‘yib, Dargohni ko‘r. Joningni shu Dargohga yetkaysang, izzatda - ulug‘vorlikda bu jahonga sig‘may ketasan.

#### *SAHRODA DARVESHGA YETIB OLGAN ODAM HIKOYATI*

Bir odam sahro yo‘lidan chaqqon yurib, bir darveshga yetib oldi va unga qarab dedi:  
— Ey darvesh, ahvoling qalay?

Darvesh dedi:

— Ko‘rib turibsan-ku, uyalmaisanmi, nimani so‘raysan tag‘in. Bu dunyoning tor darasida qolibman, hozir bu jahon menga haddan ziyod tangu tor ko‘rinmoqqa.

Chaqqon odam dedi:

— Aytganlaring to‘g‘ri emas, bu keng biyobonda torlik yo‘q.

Darvesh dedi:

— Agar bu yerda torlik bo‘lmaganda, sen kabi bir ablah hecham menga to‘qnashmagan bo‘lardi.

Senga yuz yoqimli va‘dalar bersalar ham, oxir-oqibat u olovning narigi yog‘idan nishona beradi. Seningoloving nima? - Dunyo. Undan voz kech, sherlar kabi bu olovdan hazar qil.

Hazar qilsang, ko'ngling joyiga tushadi, shundan keyin esa dilhushlik saroyi sening oldingda paydo bo'ladi. Olov oldindayu yo'l juda uzoq, taning zaif, diling asirlikda, jon esa nafratlangan. Sen esa hammasidan qutulib, ishni yakunlagansan, o'rtada shunday bir ish hosil qilgansan. Jahonni ko'p (sinab) ko'rding, endi jonni nisor et. Shunda jahondan senda na nom qoladi, na nishon. Qancha ko'rsang -hech narsa ko'rmagandaysen. Necha bor aytaman: buncha o'zingni g'amu anduhda qiynama deb.

#### *FARZANDI O'LGAN NODON ODAM HIKOYATI*

Bir ablah — nodonning qalb mevasi — farzandi o'lib qoldi. Bu ayriliqdan sabru toqati qolmadi. Tobut orqasidan motamzada bo'lib borardi, ohu nola chekib, zor yig'lab, der edi: «Ey dunyo ko'rmagan, kun ko'rmaganim nima bo'ldi, baxt ko'rmay jahondan ketding». Bir bedil darvesh buni eshitib, ota ahvolini ko'rgach, dedi: «Bu chaman, bu tikanzorni yuz marta ko'rish mumkin. Agar jahonni o'zing bilan olib ketishni xohlasang ham, baribir oxirida uni ko'rmaganday o'lib ketasan. Sen olamni tomosha qilguncha umr o'tib ketadi, qachon dardingga malham qo'yasan? Xasis nafsdan ozod bo'lmaguncha, aziz joning nafs najosati ichida ko'milib turaveradi».

#### *G'OFIL KISHINING UD YOQISHI*

Bir g'ofil kishi ko'plab ud yoqar edi, birov yonida xushvaqt bo'lib, o'h-o'h der edi. Bul nomdor aziz kishi ud yoquvchiga dedi:

— Sen gapirayotganingda, bu udni yondirib tur, sening badbo'y hiding, agar ud yondirib turmasang, dimog'larni alamu azobdan tinch qo'ymaydi.

#### *YIGIRMA BESHINCHI MAQOLA*

#### *BOSHQA QUSHNING O'Z MUSHKULINI BAYON QILGANI*

Boshqa bir qush dedi:

— Ey oshyoni baland Hudhud, mening dilimni bir dilbar ishqiqi band etmish. Uning ishqiqi vujudimni qamrab oldi, aqlu hushimni o'g'irlab, beqaror etdi. Uning yuzining xayoli meni yo'ldan urdi, borlig'im xirmanini yondirdi. Usiz bir nafas ham toqat qilolmayman. Ul nigor ishqiqi meni kofir qildi, usiz ko'zimga hech narsa ko'rinmaydi. U o'z qoni bilan yuragimni to'ldirdi, men hayronu sarsonman, qanday qilib yo'lga tushay? Oddindagi vodiya kirish uchun yuz baloni bo'yinga olish kerak bo'ladi. Men bir lahza ul oy yuzli nigorsiz turolmayman, qanday qilib yo'l topaman? Mening dardim endi davosizdir, ishim kufir va iymonni ajratishdan o'tdi. Bu g'amu anduhda hech kimim yo'q, yolg'iz o'zim shu anduh bilan birgaman. Uning ishqiqi meni tuproqqa qoridi, qonimni to'kdi. Uning zulfi yodi meni hayo pardasidan chiqardi, endi nomu nomus kerak emas. Men uning ishqida

shunday betoqatmanki, uning diydorisiz bir lahza sabr qilolmayman. Yo'lida tufroq bo'ldim, qonga belandim, nima qilay, mening ahvolim mana shunaqa, nima qil deysan?

#### *HUDHUDNING UNGA JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Ey surat bandiga tushgan kishi, boshdan-oyoq zulmatu g'am ichra qolibsana. Ishq suratbozlik emas, bu shahvatga botishdir, sen hayvon kabi shahvatga berilibsan. Nuqsoni bor bo'lgan har bir go'zalga bog'lanish - dunyo ishvasiga bog'lanishdir. Zavoldan amonda bo'lgan har bir jamolga bog'lanmaslik kufrdir. Balg'am va qondan tiklangan suratni nuqsonsiz oy deb nomlaysan. Agar undan qon va balg'am kamaysa, u dunyodagi eng xunuk xilqatga aylanadi. Husnu jamoli balg'am va qondan (moddadan) bo'lgan xilqat, oxir-oqibat yemirilib ketadi, unda zebolik na qilsin. Surat atrofida qachongacha evrilasan, ey befahm, husn G'aybdadir, g'aybdan izla uni. Agar oldingdagi parda ko'tarilsa, na diyor qolur, na undagi odamlar qolur. Shunda osmon suratlari ham butkul yo'qoladi, qudrat va ulug'vorlik bo'lib ko'ringanlar tuban va ojizu nochor bo'lib qoladi. Suratning do'stligi boqiy emas, chunki suratlar o'zaro ziddir va jangu jadaldadirlar. Kimning-kim muhabbati G'aybdandir, muhabbat aslida shudir va beaybdir. Bundan boshqasiga do'stlik oxir-oqibat pushaymonlik keltiradi.

#### *USTOZINING KANIZAGIGA OSHIQ BO'LGAN SHOGIRD HIKOYATI*

Bagoyat iste'dodli, zehni o'tkir, dono bir yigit bor edi. Kecha-kunduz uzluksiz o'qish, ilm olish bilan band edi. Yilida ikki kecha ta'til qilardi, xolos. Odamlar bilan ishi yo'q edi, ishi nuqul ta'lim olish, ilm takrorlash edi. Ustozi undan xursand edi, shogirdining pok axloqi, berilib ilm olishini maqtab, ibrat qilib gapirardi. Uni boshqa shogirdlaridan afzal bilar, alohida o'tqazib suhbat qilardi.

Ammo ustozning parda ortida oy desa oy, kun desa kunday go'zal bir kanizagi bor edi. U shunday go'zal ediki, ko'zlari sho'x-sho'x boqar, qomati dilni oshufta qilar, so'zlari jonga jon bag'ishlardir. Boshdan-oyoq ruhdan iboratday, latofat ustiga latofat, malohat ustiga malohat yog'ilganday ofati jon edi. Shirinlikda shakarga pand berar, itobu karashmasi har qanday qattiq ko'ngilni yumshata olardi. Ikki o'ram sochi yerga tegar, ataylab qilingan emas, balki aslida shunday uzun edi sochlari. Ikki la'li labidan so'z emas, asal tomardi. To'tilar uning nutqini eshitsalar hasaddan parlarini to'kardilar. Ikki ko'zi qalbg'a o'q otganday jozibali edi, otilgan o'qlar esa yuraklarni qon qilib chiqyb ketardi.

To'satdan shogird yigitning qo'zlari o'shal sohibjamol kanizak yuziga tushdi. Bir damda uning husnu jamoliga maftun bo'lib qoldi. Ko'ngli ixtiyorini qo'ldan berdi.

Shogird o'ziga o'zi dedi:

— Shu oy yuzli shogirdi bo‘lsam bas edi, unndan boshqa ustoz menga kerak emas. Uning yo‘lidan ko‘z uzmasman, mening ishqim — shogird, uning husni esa — ustozim.

Yigit o‘z ustozining darslarini tark etdi, sabru qarori-ni yo‘qotib, kanizakka bo‘lgan mehri qundan-kun orta berdi. Za‘faron shoxasiday yuzi darddan sarg‘aydi, hoddan toyib yotib qoldi. Ishq kelib aqlni bosib oldi, oshiqni jonidan bezor qildi. Ko‘plar ilmu donishni to‘pladilar, ammo bir zarra ishq ularning barini barbod etdi. Zohir ilmi kibru g‘avgo keltirar, ishqibozlik o‘rtanish va devonalik keltiradi. Kimki ilmni ishqsiz topgan bo‘lsa, uning ilmi mol-dunyo va mansab muhabbatiga sarf bo‘ladi.

Alg‘araz, shogird ishq savdosida o‘rtanib, gulni tikandan ajratolmay kecha-kunduz ohu nola chekardi. Oqibatda bira to‘la xastalanib, ojizu nochor holda to‘shakka mixlanib qoldi. Shogirdning kanizakka oshiqligi ustozga ma‘lum bo‘ldi. Ustoz aqlini ishlatib, hiylavu hikmat yo‘lini tutdi: avval ul kanizakning ikki qo‘lining tomirini kesib, qon ola boshladi, so‘ngra bir dori berdikim uning oqibatida qizda hayz yuz berdi. Natijada kanizakning yuzi oltin rangiday sarg‘ayib so‘ddi, gulday yashnagan yuzi za‘faron bargiday bo‘ldi. Uning chehrasida ilgarigi zebolik qolmadi, yuzlarining tarovati ham yo‘qoldi. Husnidan biror nishona qolmadi. Kadah sindi, soqiy ketdi. Kanizak vujudidan tashqari chiqqan fasodlarni tog‘oraga soldilar. Ustoz ziyrak shogirdni chaqirtirib keldi. Kanizakni parda orqasiga o‘tqazdi. Shogird uning yuziga qaradi, so‘nfa andomiga nazar soldi. Bu ishdan hayron bo‘ldi, chunki ilgari ko‘rgan zebo qiz yo‘q edi. Unga yana bir qaradi-yu ko‘ngli sovudi, ishqni unutib, avvalgiday tahsilga mashg‘ul bo‘la boshladi. Ustoz shogirdining qutulganini ko‘rdi, uning g‘amu tashvishi arib, avvalgi shodligi qaytgan edi. Ishq olovi so‘nib, shogird sovudi va ranju dardi ketib, tuzalib qoldi.

Ustoz o‘shal tog‘orani keltirishni buyurdi. Tog‘orani shogird oldiga qo‘yib, dedi:  
— Ey barno yigit, ishing yaxshi-likka yuzlandi, beqaror bo‘lding va yana qaror topting, ul ishq yo‘lidagi o‘rtanish — yonishlaring qani, shumliklar, behayoliklaring qani? Ul sanam doim sen bilan bo‘ladi, sen u bilan hamisha ishrat qilasan deb orzu qilarding. Nimadan yuzing uning ishqida sarg‘ardi va yana nega ishqing olovi so‘nib sovuding? Buning sababi nima? Holbuki sen ham o‘sha, kanizak ham o‘sha-o‘sha.

Ammo kanizakdan faqat bir narsa kamaydi, ya‘ni tog‘oradagi fasodlar. Seni maftun etgan, devonayu muftalo qilgan narsa shu edi. Bu narsa kanizakdan ajralgandan keyin, sendagi ishq va uning savdosi ham sovudi. Sen kanizakka qarab ohu nola chekarding, darhaqiqat, aslida, shu tog‘oradagi qon va fasod oshig‘i ekansan. Sen juda befarosat chiqding, axir qon va najosat oshig‘i ekanliging ma‘lum bo‘ldi.

Ul shogirdning ahvoli o‘zgardi va tavba qilib, ilm takroriga o‘tirdi. Kimki suratga sig‘inishni maqsad qilsa, albatta bu ma‘nolar, sifatlarni anglab yetmaydi. Suratning asl mohiyati sening shaytoniy nafsingdur. Ma‘noning asli sening ruhoniy joningdir. Sifat

ishqida suratni tark et, toki senga ma'rifat oftobi porlab ko'rinsin. Suratingfasod va qondan boshqa narsa emas. Suratga sig'ingan kishi teran fikrlovchi kishi emas, balki zohirbindir. Fasod va qondan zebolik topgan jam'i narsalarga muhtalo bo'lish devonalikdir. Qachongacha, ey ayb izlovchi kishi, surat atrofida aylanasan, Husn G'aybdadir, husnni G'aybdan izla!

*BIR DARDMAND KISHINING ABUBAKR SHIBLIY HUZURIDA YIG'LAGANI HIKOYATI*

Bir dardli odam shayx Shibliy oldida yig'lar edi. Shayx undan:

— Nima sababdan yig'layapsan? - deb so'radi.

Ul dedi:

— Ey shayx, bir do'stim bor edi, uning jamolini ko'rib xushnud bo'lardim. O'shal do'stim o'ldi, uning g'amida men ham o'layotibman. Chunki uning firoqi dunyoni ko'zimga qorong'u qilib qo'ydi.

Shayx dedi:

— Shundan ko'ngling o'ksigan bo'lsa, sening jazoying shudir. Sen shunday do'st tanlaginki, u o'lmaydigan bo'lsin va o'zing ham bunaqa alam chekmaydigan bo'lgin. O'limdan nuqson topadigan do'stlik o'tkinchidir, u joningni g'amga to'ldiradi. Kimki surat ishqiga muhtalo bo'lsa, u shu surat tufayli balolarga giriftor bo'ladi. O'sha surat qo'ldan chiqqandan keyin, u judolikdan qonlar yutadi.

*O'Z KANIZAGINI SOTIB, KEYIN PUSHAYMON BO'LGAN KISHI HIKOYATI*

Bir savdogar boyning ko'p mol-mulki bilan byrgan go'zal bir kanizagi ham bor edi. Savdogar kanizakni sotib yubordi, biroq unga ko'ngil bog'laganini bilib qattiq pushaymon bo'ldi. Keyin u kanizakni sotib olgan odam oddiga borib, kanizakni qayta sotib olishini, qimmatini necha marta oshirsa ham rozi ekanligini aytdi. Biroq savdogar qanchalik zorlanib, yalinmasin, xoja kanizakni unga qaytarib sotmadi. Savdogar o'zini yo'qotib, yo'llarda boshiga tuproq sochar, ohu nola chekardi.

Zorlanib der edi:

— Bu alam dog'i meni o'ldiradi, mening jazom shudir, ahmoqchigim oqibatida dilbarimni dinorga almashtirdim. Jonimni bozorga olib chiqqan ekanman, endi bildim, o'zimga o'zim ziyon qildim.

Ey odam, umringning har nafasi — bir gavhar, vujuding-dagi har bir zarra Haq tomonga rahbardir. Oyog'ingdan boshinggacha Uning ne'matlari - tuhfasidir. Dust ne'matlarini o'zingga tanit, taqdim etgin. Shunda kimdan uzoqlashga-ningni anglab yetarsan va judolikda haddan ziyod sabrli bo'lganingni ham tushunarsan. Haq seni yuz xil ne'matlar



bilan parvarishlab, izzatda tutdi. Sen esa nodonlikda yana g'ayr-begona bilan qolib ketasan.

*SUYAKKA RAG 'BAT KO 'RSATGANI UCHUN PODSHOH TOMONIDAN HAYDALGAN OV ITI HIKOYASI*

Bir podshoh sahroga ovga chiqdi va itboqarga tozi itini yasantirib orqasidan olib yurishni buyurdi. Podshohning o'rgatilgan ovchi tozi iti bor edi. Uning yopinchig'i qora baxmaldan va bog'ichlari atlasdan tikilgan bo'lib, bo'ynida gavhar taqinchoq, qo'l va oyoqlarida oltin halqalar taqilgan, bo'yinbog'i esa ipakdan edi. Shoh bu itini yaxshi ko'rar, ovga o'zi bilan olib yurar, uni aqlli jonvor hisoblardi. Shu bois bu safar ham itning bo'yinbog'idan ushlab, uni o'zi bilan birga olib borardi. It oldinda, shoh esa ot ustida orqada borardilar. Yo'lda bir to'da suyaklar uchrab qoldi. It buni ko'rib birdan to'xtadi va suyaklarni hidlab oldinga yurmadi. Buni ko'rgan shohning g'azabi qaynadi va itning bo'yinbog'ini uloqgirib yuborib, dedi:

— Men buni parvarishlab shuncha izzat qilsam, u bir suyakni mendan afzal bildi — podshohni suyakka almashtirdi.

Shoh a'yonlariga itni haydab yuborishni buyurdi:

— Men turgan joyda u g'ayrga qaradi. Bu ishni qilgandan ko'ra yuz ming igna yutsa yaxshi edi.

Itboqar aytdi:

— It orasta qilib bezatilgan, hamma yog'ida oltin-qumush taqinchoqlar. Tashlab ketsak, hayf bo'ladi. Bu itdir, u dasht va sahroga munosib, atlas kiyimlar va oltin bezaklar insonga munosib.

Shoh itboqarga dedi:

— Shu hoida tashlab ket, undagi oltinu atlasdan voz kech. Toki u o'ziga kelgach, o'zini bunday bezatilganini ko'rib, esi joyiga tushar, qanaqa oshno topganini va men kabi shohdan ajralganini anglab yetar.

Ey avvalda oshnolik qilib, oxirda judolik topgan kishi, oyog'ingni ishqiq haqiqatga mustahkam qo'y, ajdaho bilan mardonavor may ich! Chunki bu yer ajdaho dorining ustidir, oshiqning boshini kesish ular ishqining tovoni -xunbahosi deb bil. Mard oshiq joniga g'ulg'ula solgan kuch ajdahoni uning ko'ziga chumoli qilib ko'rsatadi. Alloh oshiqning yuztami, yuz mingtami — hammalari Uning yo'lida o'z qonlariga tashnadirlar.

*HUSAYN MANSUR HALLOJNING DORGA OSILISHI HIKOYATI*

Hallojni dor ostiga olib kelganlarida tiliga «Anal-haq»dan o'zga so'z kelmasdi. Uning tiliga tushunmadilar, qo'l va oyoqlarini kesdilar. Uning qoni to'kilgach, yuzlari, badani

sarg'aya boshladi. Zero, qon oqqandan keyin kishi yuzi qizil bo'ladimi?! Go'yo yo'l ustidagi quyosh kabi Mansur kesilgan qo'lining qonlarini oyday yuziga surtdi. Va dedi: — Oqizilgan qon bilan o'zimning gul yuzimni yana ham qizilroq gul rangiga bo'yadim. Toki birovning ko'ziga sarg'ish bo'lib ko'rin-mayin, yuzim o'lganimda ham qip-qizil bo'lib tursin. Mening yuzimni sarg'aygan holda ko'rgan kishi Mansur qo'rqibdi deb gumon qiladi. Menda qilcha ham qo'rquv yo'q, yuzim hamisha qizil - hamisha tarikman. Oshiq eranlar boshini dorga olib kelar ekan, uning shermardligi ish beradi. Bu jahon ko'zimga «mim» halqasiday ko'rinadi, shu halqadan kishi qo'rqadimi, axir?

Yetgi boshli ajdaho — dunyo bilan olishib, o'yin o'ynashga majbur bo'lgan kishining eng kichik mukofoti - boshini dorga berishdir.

#### *SHAYX JUNAYD BAG'DODIY O'G'LINING SHAHID BO'LISHI*

Din imomi, ilohiy ma'nolar dengizi Junayd bir kecha Bag'dodda va'z aytar edi. Uning so'zlarining salmog'i va teranligidan osmon past bo'lganday, quloq solib hayratga tushayotganday edi. Shayxlar shayxi Junayd hazratlarining bir yosh o'g'loni bor edi, uning kamoli, shirinligi odamlar qalbiga orom bag'ishlardi.

Shayx Bag'dodda va'z aytayotgan o'sha kechada o'g'lining boshini kesib, xoru zor holda keltirib, yig'ilganlar oldiga tashladilar. Poktiynat Junayd buni ko'rib indamadi va jamoatga yuzlanib dedi:

— Qadimu azal, abadu ahad asroridan qaynatgan qozonimdagi taom bu kecha pishipty, uning oshini ham ko'rdingizlar. Haq yo'lidagi qurbonim - shu, bundan ortiq ham, kam ham emas».

#### *YIGIRMA OLTINCHI MAQOLA BOSHQA BIR QUSH UZRI*

Boshqa bir qush dediki:

— O'limdan qo'rqaman, ul vodiy uzoq, men esa zaifu nochorman. O'limdan chunon qo'rqamanki, birinchi manzildayoq jonim chiqsa ajab emas. Garchi ko'rinishim salobatli bo'lsa-da, ammo ajal kelsa zor-zor qaqshab o'lib qolaman. Kimki ajal qo'liga tushsa, uning qo'lida qilichi bo'lsa-da, bir nafasda qilich ham qo'lidan tushib, qo'li ham kesiladi. Qo'l va qilichdan iborat bu jahonda, yuz afsuski, qo'lda afsusdan boshqa qurol qolmaydi.

Hammalari afsus-pushaymonlik bilan yer ostiga kirib uyquga ketdilar, tiriklari ham hayronu sargardondirlar. Ko'rgin, o'lim yo'li - qanday mushkul yo'ldir, bu yo'lining birinchi manzili — go'riston. O'lim achchig'i xabarini eshit-sang, shirin joning ostin-ustun bo'ladi.

## HUDHUDNING JAVOBI

Hudhud dedi:

— Ey, zaifu notavon odam, qo‘rquvdan bir hovuch bo‘lib qolibsang, qachongacha o‘limdan qo‘rqasan? Shuni bilasanki, umring kuni sanoqli, abadiy emassan. Bilmaysanki, odam tug‘ilgandan takdiri belgilidir, u oxir-oqibat tuproqqa ketadi va uning vujudi barbod bo‘ladi. Seni o‘liming uchun parvarish qilganlar, ya’ni bu dunyodan ketish uchun budunyoga kelgansan. Osmon bamisoli to‘ntarilgan togora, bu tasht-tog‘ora shafaqdan har kecha qon rangini oladi. Bu Tig‘ ko‘targan quyosh aylanishida hamma kesilgan boshlar uning tog‘orasidadir. Sen xoh pok, xoh bulg‘angan bo‘lgin, tuproqqa qorilgan bir qatra suvsan. Bu qatra suv - oyokdan boshgacha darddir, bu dard bilan daryoga qarshi kurasha olasanmi? Agar sen bir umr jahonda yayrab-yashnab farmon beruvchi shahanshoh bo‘lsang ham, oxir-oqibat o‘rtanib yonib, ham yayrab-yashnab jon berasan.

## QAQNUS UMRINING UZUNLIGI VA UNING AHVOLI HIKOYASI

Qaqnus Hindistonda yashaydigan turfa ajib bir qushdir-kim, uzun va qattiq tumshug‘i bor. Tumshug‘ida xuddi nay kabi bir qancha teshiklar mavjud. Bu teshiklar yuztaga yaqin. Qaqnusning boshqa qushlar kabi jufti yo‘q, u bolalamaydi. Tumshug‘ining har bir teshigidan o‘zgacha ovoz chiqaradi, har bir ovozida o‘zgacha nola, o‘zga bir sir bor. Har bir teshikdan turli-tuman ohangu navolar chiqarib, nola chekkach, barcha qushlar, qushlargina emas, barcha jonivorlar, hatto suvda baliqlar bundan beqaror bo‘ladilar. Barcha vahshiy darrandalar jim bo‘lib, bu ovozdan o‘zgacha holatga tushadilar.

Faylasuflar unga hamroz bo‘lib, ovozigacha qarab musiqa ilmini yaratdilar. U qariyb ming yil umr ko‘radi, ammo o‘limi vaqti yaqinlashayotganini oldindan sezadi. O‘limi yaqinlashgach, ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib, atrofiga ko‘p-ko‘p o‘tin yig‘adi. O‘tinlar o‘rtasiga o‘tirib olib, o‘tli nolalar chekadi. Keyin har bir teshikdan, boshqa-boshqa dardli navhalar chiqaradi, yuz teshikdan yuz xil navha-soz chiqaradi. Navha chekayotganda o‘lim alamidanda lahza-lahza titrab turadi. Bo‘zlab nola chekishidan hayratlanib, qushlar va hayvonlar uning oldiga yig‘iladilar va hayotdan umidlarini uzgandayin, behol bo‘lib qoladilar. Keyin umrining so‘ngida ajab hol yuz beradi: uning nolasi zo‘ridan tumshug‘idan qon oqa boshlaydi, bir nafas tin olib, so‘ngra qanotlarini bir-biriga ura boshlaydi. Shunda uning qanotidan o‘t chaqnab chiqadi, keyin butun vujudini o‘t qoplab yona boshlaydi, olov o‘tinlarga o‘tadi va birga-birga yonib cho‘g‘ga aylanadilar.

Keyin cho‘g‘lar sovib kul bo‘ladilar. Kul ichida bitta kichkina cho‘g‘ qoladi va u kichkina qaqnus bo‘lib dunyoga keladi. Olov o‘tinni kulga aylantiradi, kul ichida esa qaqnus bolasi paydo bo‘ladi. Kishi o‘lgandan keyin tuqqani yoki tug‘ilganini birov jahonda ko‘rganmi.

Agar qaqnus kabi uzoq umr ko‘rsang, ana shunday ham o‘lib va ham yana tirilasan.

Bechora qaqnus ming yil yashab, o‘z vujudidan yuz ming nolalar chiqardi. Yillar davomida nola va dard ichra edi, ota-onasi ham bo‘lmagan, jufti ham yo‘q edi, yakkalarning yakkasi edi. Dunyoda uning payvandi - bog‘liqlik joyi, ya’ni jufti ham, farzandi ham yo‘q edi. Oxirida ajal kelib jonini oldi - kulini ko‘kka sovurdi. Joni bor maxluqki bor, u ajal dastidan qutulmaydi - shuni yaxshi bilib ol. Olamda o‘lmaydigan kishi yo‘q. Yana ajoyibrog‘iki, kishining safar ozig‘i ham bo‘lmaydi.\* O‘lim agarchi qattiq va zolim bo‘lsa-da, lekin unga bo‘yin egish shart. Boshimizga ko‘p qattiq ishlar tushib turadi, ammo ajalning ishi eng qattiq ishdir.

#### *OTASI O‘LGAN KISHI BILAN SO‘FIY HIKOYASI*

O‘g‘il otasi tobuti oldida yig‘lab borar ekan, oh chekib der edi:

— Ey otajon, jonimni pora qilgan bundayin og‘ir kun umrimda boshimga tushgan emas edi.

Shunda yonida borayotgan so‘fiy dedi:

— Otangning ham boshiga bundan og‘irroq kun kelgan emas. Sening boshingga emas, otangning boshiga mushkul ish tushdi. Ey dunyoga qo‘l-oyoqsiz kelgan zot, umringni tuproq tepib, havoni kesib yurish bilan o‘tkazasan. Agar mamlakat taxtiga o‘tirgan shoh bo‘lsang ham, oxiri qo‘lingda havo bilan, ya’ni hech vaqosiz ketasan.

#### *JON BERAYOTGAN NAYCHINING JAVOBI*

Bir nay chaluvchining ajali yetdi, jon berar paytida birov undan so‘radi:

— Ey, ayni sirlashuv vaqtida turgan odam, bunday paytda ahvoling qalay, nimani o‘ylayapsan?

Naychi oh chekib, dedi:

— Holimni hech ayta olmayman, ammo sezayapmanki, bir umr yel puflab kelibman (paymudan), oqibatda esa tuproqqa ketayapman, vassalom.

#### *ISONING ARIQDAN SUV ICHGANI HIKOYASI*

Iso bir toza ariqqan suv ichdi, suv xushtamlikda gulobdan ham o‘tar edi. Birov kelib ariqdagi suvdan xumiga to‘ldirib oldi. Iso xumdagi suvdan ham ichdi. Ammo xumdagi suvdan og‘zi achchiq bo‘ldi. U yana xum oldiga keldi va yana ichdi - suv achchiq edi. Iso hayron bo‘lib dedi:

— Yo Rab, xumdagi suv ham shu ariqqan bo‘lsa, nega endi u shirin, bu achchiq? Buning siri nimada, ayt?

Shunda haligi Xum Iso oldida tilga kirib dedi:

— Ey Iso, men Qadim zamonlarda yashab o‘tgan ko‘hna odamman. Bu to‘qqiz falak ostida goh kosa, goh ko‘za, goh xum bo‘lib, ming yillardir kim yuribman. Agar yana ming

marta xum qilib qayta yasalalar ham, achchiqlik mendan ketmaydi. Men o‘lim achchig‘ini chunon tatib ko‘rganman, shu sabab mendagi suv bunday achchiqdir.

Ey g‘ofil banda, sen ham o‘lim sharbatini ichishdan oldin, uyg‘on, g‘aflat orqasida o‘zingdan xum yasama. O‘zingni yo‘qotgansan, ey g‘ofil, jon chiqishdan oldin tavba qil, o‘nglan. Agar tirikligingda o‘zingni tanimasang, ilohiy sirlarni anglamay o‘lib ketasan. Na hushyorligingda o‘zingdan xabardorsan, na o‘lganingda vujudingdan biror asar qoladi. Tiriklikda hech narsadan bexabar, insonligini anglamagan, o‘lgandan so‘ng yo‘qolgan — odamdan paydo bo‘lib, ammo odam bo‘lmasdan o‘lib ketgansan.

Ul bechora darvesh oldida yuz ming g‘aflat to‘siqlari turibdi. Xo‘sh, bu ahvolda u qanday qilib o‘zini topadi?

#### *JON BERAYOTGAN BUQROT VA UNING SHOGIRDI HIKOYASI*

Buqrot hakim kasal bo‘lib yotib qoldi, ajali yetib, jon berish azobidan qiynalardi. Bir shogirdi bor edi, u ustoziga qarab dedi:

— Ey ustoz, tanangni yuvib kafanlab dafn etgandan keyin, ayt, seni qaerdan topamiz?

Buqrot dedi:

— Ey g‘ulom, Men tirikligimda uzoq umr ko‘rib, o‘zimni o‘zim topolmadim, sen meni qaerdan topasan? Men shunday yashab dunyodan o‘tayapmanki, qilcha o‘zimdan xabardor emasman. O‘limga o‘limdan o‘zga davo yo‘q, har qancha zorlanma, xazon bo‘lgan barg yerga tushadi. Biz hammamiz o‘lish uchun tug‘ilgan-miz, dunyodan ko‘ngil uzolmasak ham, jonimiz bizni tark etadi. Butun dunyoni hukmronlik muhri ostida tutgan shohanshohlar bugun yer ostida yotibdi. Shohmi, xusravmi, xonmi, amirmi, barchasi lahad tuprog‘ida, arzimas tuproqqa tengdirlar. Shohbo‘lsin, gado bo‘lsin — hammasi ketadilar.

Oxiratda Noqis va komil orasidagi farqlar ayonlashadi. Tiriklik ham azob, o‘lim ham azob, agar bu har ikki ranju azobingdan ganj - xazina topmasang, bilgilki, haqiqiy ganj — Simurg‘dir. Qolganlari esa dardu azobdir. Shu bois dunyoda bundan ortiq ganjni izlama.

#### *YIGIRMA YETTINCHI MAQOLA BOSHQA BIR QUSHNING UZRI*

Boshqa bir qush dedi:

— Ey, pok e‘tiqodli Hudhud, bir nafas ham murodu maqsadimga yetmadim. Butun umrim g‘amda o‘tdi, olam ishlariga asiru bandaman. Qonli dilimda qanchadan-qancha g‘am-alam bor, g‘amim zo‘ridan har zarra motamdadir. Hamisha hayron va ojizman.

Kofir bo‘lay agar biror lahza shodlik ko‘rgan bo‘lsam. G‘am bilan o‘zimni yo‘qotgan, o‘zi bilan o‘zi ovora odamman, bu ahvolda telbalarday qanday qilib yo‘lga kiraman? Agar bunday g‘amga botmaganimda, bu safardan balki dilim xurram bo‘larmidi. Ammo nima qilay, ko‘nglim qonga to‘lgan, senga ahvolimni tushuntirdim, endi ayt, nima qilay?

#### *HUDHUDNING JAVOBI*

Yo‘lni bilguvchi, shirin so‘zli Hudhud har narsaning mohiyatini anglovchi va har bir fikrning ziyonu foydasini bilguvchi edi. U qushga qarab dedi:

— Ey shaydo va mag‘rur kishi, boshdan-oyog‘ingtashvishu g‘amga botgansan. Bu dunyoning baxtiyorligi ham, baxtsizligi ham tez o‘tib ketadi. Bir nafasda o‘tib ketadigan narsalar bo‘lmasa ham umr uning orzu-havasida o‘tib ketgusidir. Jahom o‘tar ekan, sen ham uning bahridan o‘t. Unga mahliyo bo‘lma va tark et uni! Zero nimaiki doimiy, ustuvor emas ekan, unga bog‘langan ko‘ngil ham tirik emas.

#### *HECH QACHON BIROV QO‘LIDAN SHARBAT ICHMAGAN SO‘FIY HIKOYATI*

Nafasi o‘tkir bir piri murshid bor edi. U birovlar qo‘lidan hech qachon sharbat ichmagan edi. Birov dediki:

— Ey Alloh nazariga tushgan odam, nega hech bir sharbatga rag‘bat qilmaysiz?»

So‘fiy dedi:

— O‘limni boshimda ko‘rib turibman, u sharbatni mendan bir zumda tortib oladi. Ana shunday o‘lim boshimda turganda, men sharbat ichsam, u zaharga aylanadi. Muakkal bilan sharbatim xush bo‘lishni xohlasam, u qand sharbati — jullobiy emas, o‘t bo‘ladi. Poydorligi bo‘lmagan har narsa bir olam bo‘lsa ham, bir arpa donicha qimmatga ega emas.

Vaslsiz bir soatlik rohatni nima qilay, asli - poydevo-ri bo‘lmagan imorat omonatdir. Sen agar baxtdan xursand bo‘lsang, bu - bir nafasli baxt, xolos, bu bilan g‘ururlanma. Va agar baxtsizlikdan holing tang bo‘lgan ekan, bu ham bir nafasdir — zorlanib yurma. Agar senga alam yetsa, bu sening izzatlabliging, qudratga intilishing oqibatidir, xorli-gingu ojizligingdan emas. Anbiyolarga yetgan balolarni hech kim Karbaloda ko‘rsata olmaydi. Suratda senga aziyat, g‘am bo‘lib ko‘ringan narsa, sifat — ma’noda buni ko‘ra olgan odamga ganj - xazinaning o‘zidir. Har damda senga undan yuz inoyat yetkusi, sening butun boyliging — alamlaring Uning ehsonidir. Uning ehsonini yodga olmaysan, ammo Uning ozgina azobu ranjini tezda ko‘rib nola — fig‘on qilasan. Shumi, axir, do‘stlik nishonasi? Ey, sen kamaqlu g‘ofil, sen hali mag‘z emassan, mohiyatga yetmabsan, sen po‘choqsan, do‘st emas, po‘stsan, xolos.

*BIR QULNING PODSHOH QO‘LIDAN MEVA YEGANI HIKOYATI*

Bir yaxshi xulqli podshoh bor edi. Bir kun u o‘zining quliga bir dona meva berdi. Qul mevani podshoh qo‘lidan olib, nihoyatda xursandlik bilan yeya boshladi, qul shunday mazza qilib mevani yer ediki, go‘yo dunyodagi eng xushta‘m, shirin taomni yeyayotganday edi. Podsho buni ko‘rib, havasi keldi va mevadan o‘zi ham yegisi kelib, g‘ulomga dedi:

— Ey g‘ulom, bu mevani buncha ishtaha bilan yemoqdasan, menga ham ozgina ber.

G‘ulom mevaning qolganini shohga uzatdi. Shoh uni tatib ko‘rgan edi, afti burushdi. Chunki meva bag‘oyat achchiq edi. Shoh g‘ulomiga dedi:

— Sening ishingni hech kim qilgan emas, shunday achchiq narsani bunday rohatlanib yemoqdasan, bunday yo‘l tutishingning boisi nima?

G‘ulom dedi:

— Ey shahriyor, men sendan yuzlab tuhfarlar olganman, qanchadan-qancha yaxshilik qilgansan. Shunday ekan, bir marta tuhfang achchiq chiqqan bo‘lsa, qanday qilib buni yuzingga solay. Men sening ne‘matlaring ichida yashadim. Shu bois sening qo‘lingdan olgan narsam achchiq bo‘lsa ham, menga shirindir. Sening qo‘lingdan agar bir achchiq meva menga yetgan ekan, uni qaytarib berish men uchun og‘ir gunohdir.

Allohning yo‘lida ranju azob chekishning o‘zi rohat, buni qulog‘ingga quyib ol, chunki so‘z — nasihat ham ganjdir. Uning ishi goh orqada, goh ro‘paradadir, sen uni qanday bajarsang, shunday holda voqe‘ bo‘ladi. Sen bu dorulalam dunyosida yaxshilik va shodlik izlaysan, ammo bu dunyoning dilxushligi dardu g‘amdir. Har bir luqma ichida yurak qoni bor. Odam uchun Haqning haqiqatidan o‘zga hosil yo‘q. Yo‘lni bilgan puxtakorlar buni obdon teran anglab yetganlar. Shu bois ular yurak qonisiz biror luqma yemadilar. Toki non — , tuz tatib yurar ekanlar, jigar qonisiz non sindirmaganlar.

*BIR KISHINING SO‘FIYDAN AHVOL SO‘RAGANI*

Bir nomi chiqqan odam so‘fiydan so‘radi:

— Ey birodar, ro‘zg‘oring qanday o‘tayapti?

So‘fiy dedi:

— Men bir gulxan ichra bog‘lanib qolganman. Og‘zim quriq, ammo etaklarim ho‘l holda banddadirman. Bo‘ynimni sindirmasinlar, deb bu yerda biror kishining panjasini sindirmadim (ya‘ni, hech kimga ozor bermadim). Agar dunyoda hamma vaqt xursandchilik istasang, u holda sen go‘yo uyqudasan va tushingni so‘zlab turgandaysan. Agar shodlik istasang, oldin ehtiyot bilan ish ko‘rib, sirot ko‘prigining naryog‘iga o‘tib ol. Olam ko‘chasi-da xursandlik yo‘q. Chunki bunda xursandlik, beg‘amlikdan nomu nishon yo‘q.

Sarkash va mast nafs olovday seni komiga tortadi, shu sharoitda qanday qilib shodlik, xotirjamlik bo‘lsin? Mohiyatga diqqat bilan qaraydigan zakovatli odam bo‘lsang, ko‘rasanki, dilxushlik yetuk insonlar nasibasi emas.

*BIR KAMPIRNING SHAYX ABU SAIDDAN DUO TILAGANI HIKOYATI*

Bir kampir Mehna shayxi Abusaid Abulxayrga dedi:

— Menga yaxshilik va xushvaqtlik duosini o‘rgat. Men shu vaqtgacha ko‘p baxtsizliklar ko‘rdim, ranju alam chektim. Bundan bu yog‘iga azoblarga chidayolmayman. Agar xushvaqt, beg‘am bo‘lib yurish duosini o‘rgatsang, uni har kun tilimdan qo‘ymasdan takrorlab yuraman». Shayx dedi: «Men ancha vaqtdan beri dardmandlik oqibatida joyimdan turolmaydigan bo‘lib qolganman. Sen aytganlarni ko‘p qidirdim, ammo undan biror nishona topmadim. Bu dardga davo kelmay turib, kishiga ko‘ngilxushlik qachon muyassar bo‘libdir.

*BIR KISHINING JUNAYD BAG‘DODIYDAN KO‘NGIL XUSHLIGI TO‘G‘RISIDA SO‘RAGANI*

Bir kishi Junayd oldiga kelib so‘radi:

— Ey, Allohga yaqin odam, kishining ko‘ngil xushligi qachon hosil bo‘ladi?

Shayx Junayd dedi:

— Allohga yetishgan chog‘da, toki podsho visoliga yetishish muyassar bo‘lmas ekan, kishi baxtsizlik vodiysida kezaveradi. Quyosh shu‘lasiga tob berolmagan zarra sargardon bo‘lib yuraveradi va quyoshga yetishish harakatidan tinmaydi. Zarra yuz karra qonga botsa ham, bu sarsonu hayronlikdan xalos bo‘lolmaydi. Zarra zarraligida zarradir. Kimki uni yo‘qoldi desa, aldanadi. Agar uni aylantirsalar, u - u emas. U zarradir. Xizr chashmasi bo‘lolmaydi. Kimki zarralikdan qo‘zg‘olgan bo‘lsa, uning asli ham albatga zarradir. Agarchi u Quyoshda yo‘qolsa ham, bir zarradan Abadiyatgacha yo‘l hali uzoq. Zarra agarchi yaxshidir yoki yomondir, umr bo‘yi yashirinsa ham yo‘qolmaydi.

Ey zarra, Quyoshday kemadan joy olish uchun bunday mast va aftodahol ketayotirsan. Ey zarra kabi beqaror odam, toki sen o‘z ojizligingni ko‘rib, o‘zingni taniguncha sabr qilurman.

*BOYO‘G‘LI VA UNING SO‘ZLARI*

Bir kecha Boyo‘g‘li o‘ziga o‘zi dedi:

«Quyosh nuriga bir nafas ham toqat qilolmayman. Butun umrim davomida yuz azobu chorasizliklar bilan Quyoshga intilaman, toki uning nuriga g‘arq bo‘lib, yo‘qolib ketayin



deyman. Ul dargohga yetayin deb oyu yillar ko‘zimni bog‘lab uchaman».

Ko‘zi o‘tkir bir qush dedi:

«Ey mag‘rur va mast Boyo‘g‘li, unga yetguncha ming yillar yo‘l bosish kerak. Senday yo‘lini yo‘qotgan u yerga qachon yetibdi, axir chumoli oyga borib yetibdimi?»

Boyo‘g‘li dedi:

«Meni qo‘rqitma, hechqisi yo‘q, uchavera-man, ko‘ray-chi, qani bundan nima hosil bo‘larkin?»

Necha yillar xuddi mastday, o‘zidan bexabar uchib borardi, oxir-oqibat kuch-quvvatdan qoldi, qanotlari titilib, patlari to‘kildi. Ammo yo‘l bosishdan tinmasdi. Axiri joni halokat ichra, tani o‘rtanib, qanotsiz holda ojiz va notavon bo‘lib qoldi. Quyoshdan esa nishona ko‘rinmasdi.

Boyo‘g‘li ichida:

«Quyoshdan o‘tib ketdimmikin?» - deb o‘ylardi.

Bir okil kishi dedi:

«Sen uyqudasan, yo‘lni ko‘rmay, qadam bosasan, qanday qilib undan o‘tib ketdimmikin, qanotlarim to‘kilib tushdi-ku deysan?»

Bu so‘zdan Boyo‘g‘lining g‘ashligi yana ko‘paydi, ajzu iztirob ichida qoldi. Bor-yo‘g‘idan ajralib, nochor ahvolga tushdi. Nochorlikdan Quyoshga qarab joni yonib hol tili bilan xitob qildi:

— Ko‘zi ochiq qushni toptingmi, hech bo‘lmasa undan ortib, menga ham boqqil, nuringni soch!

Boyo‘g‘li bu so‘zni qalbi yonib, chunon dard bilan aytdiki, marhamat Quyoshi unga yuzlandi. Ko‘zi yo‘qning ko‘zi ravshan-lashdi — qismatiga o‘zgarish kirdi. Omad keldi va bir miskin u bechora davlat topti, baxtga erishdi.

YIGIRMA SAKKIZINCHI MAQOLA  
YANA BIR QUSHNING UZRI

Boshqa bir qush Hudhuddan so‘radi:

— Ey, rahnamo! Uning amrini hech bir bahonasiz bajaraman. U qabul qiladimi yoki rad etadimi, bu bilan ishim yo‘q. Uning farmoniga muntazirman. Nima buyursang, jonim bilan bajaraman, agar farmondan bosh tortsam, tovon to‘layman.

*HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud aytdi:

— Ey qush, yaxshi savol berding, mard kishi uchun bundan afzal kamol yo‘qdir. Agar sen UningChaargohiga jon fido qilsang, joningni xalos etasan. Ya’ni Unga yetishasan. Agar jonu dildan farmonni bajarsang, joning Jononga erishadi. Kimki farmonni bajarsa, u tashvish va iztirobdan qutuladi va Uning yo‘lidagi barcha qiyinchilik-lardan osonlik bilan o‘tadi. Amru farmon bo‘yicha bir soatlik toat amru farmonsiz umr bo‘yi qilinadigan toat-ibodatdan afzaldir. Kimki farmonsiz azobu uqubat cheksa, bu odam Uning ko‘yidagi itdir, odam emasdir. It juda ko‘p xorlik-larni boshidan kechiradi, ammo bundan nima foyda. Zero uning bu ishi Farmon bo‘yicha emas edi, shu bois u ziyonu zarar keltirdi, xolos. Farmon bo‘yicha ish qilib, bir dam qiyinchilik tortgan kishi o‘z savobi bilan olamni to‘ldiradi. Farmonining ishi ulug‘dir. Farmon ichida yashab Haqqa intil, chunki sen bandasan, o‘zboshimcha ish qilma.

*O‘Z SHAHRIGA QAYTIB KELAYOTGAN PODSHOH HIKOYATI*

Sayohatga chiqqan bir podshoh o‘z shahriga qaytib keldi. Shahar xalqi shohni izzatu ikrom bilan kutib olish uchun shaharni bezadilar. Kim qo‘lidan nima kelsa qilardi, uyida nima bo‘lsa olib chiqardi va shaharni chiroyli qilishga sarflardi. Ammo zindon ahlida hech vaqo yo‘q edi, ularning qo‘l-oyoqlaridagi bandu zanjirlari bor edi, xolos. Yonlarida do‘stlarining kesilgan boshlari, g‘amu anduhdan pora-pora jigarlari bor edi. Ammo ular shohni kutib olish uchun kesilgan bosh va qo‘llar, oyoqlarni chiroyli qilib bezadilar. Shoh o‘z shahriga kirgandan keyin chiroyli bezaklar, rang-barang alvonlar, zebu ziynatni ko‘rdi. Ammo zindon joylashgan joyga yetganda, otidan tushib, zindon ahlining oldiga bordi, ular bilan ko‘rishib, ahvol so‘rab, ko‘plab tuhfarlar in’om etdi.

Saroyga kelgandan keyin shohning yaqin kishilaridan biri shohdan so‘radi:

— Ey shohim, shahar ahli seni deb shuncha sa‘yu harakat qildilar, shaharni shohiyu atlas bilan bezadilar, mushk-anbar sochdilar, ammo sen bunga e’tibor qilmay, zindon eshigi oldiga kelib to‘xtading va zindoniy-lar ahvolini so‘rading, buning sirri nimada? Axir ular o‘limga mahkum etilgan, kesilgan qo‘l-oyoq va boshlarni taxlab seni kutib oldilar.

Shoh dedi:

— Shahar ahlining bezaklari — bolalarning o‘z o‘yinchoqlarini bezaganday gap. Ularning har biri sha’nu shavkati, boyligini ko‘rsatish maqsadida ish qilgan, ular-ning ishlarida o‘zlarini ko‘rsatishga intilishlari ayon ko‘rinib turibdi. Ularning barchasi menga maqtanish, diqqatimni tortib, xursand qilish niyatida bo‘lganlar.

Ammo mening farmonimni faqat zindon ahli bajarmoqdalar. Agar mening amrim bu yerda ijro etilmasaydi, boshlar tanadan judo qilinmasdi. Bu yerda hukmim aniq va puxta joriy etilganini ko‘rmoqdaman. Shu bois bu yerga kelib otdan tushdim va zindoniy holini so‘radim. Shaharni bezaganlar o‘z g‘ururlari, manmanliklari ichra g‘arqdirlar. Faqat zindon ahli hayronu bechoralar, ular mening hukmim ostida nochordirlar. Bular gohqo‘lni, gohboshni beradilar, ho‘lu quruq, issiq va sovuq bular uchun birday. O‘limni kutib, unga peshvoz chiqadilar, zindon chuqurlaridan to‘g‘ri dor ostiga boradilar.

Agar bilsang, bu zindon men uchun gulshanga aylandi, goh ular menga havas qilardilar, goh men ularga havas qilardim — bir-birimizni botinan anglab quchoqqa olardik. Yo‘lni ko‘ruvchilarning burchi farmon bilan yurishdir, ana shunda Shoh ham zindonga keladi.

*SHAYX AKKOF URUG‘IDAN BO‘LGAN KISHINING BOYAZID BISTOMIY VA HAKIM  
TERMIZIYLARNI TUSHIDA KURGANI*

Akkof urug‘idan bo‘lgan pok tiynat, sifatlari maqtoqli qutbi kirom bir odam bor edi. U dedi:

— Bir kecha to‘satdan Boyazid Bistomiy bilan Hakim Termiziy tushimga kirdilar. Ular birgalikda yo‘dda ketmoqda edilar. Har ikkalasi menga ehtirom ko‘rsatib, oldinga o‘tqazdilar va sarvarlik maqomi seniki deb aytdilar. Men ham ular oldiga tushib rahbarlik qildim.

Bu ikki ulug‘ shayx buyrug‘ini bajarib turib uyg‘onib ketdim. Bu tushimning ta’biri shuki, sahar chog‘i yuragimdan beixtiyor bir oh chiqqan edi. Mening bu ohim Alloh dargohiga yetib bordi va menga yo‘l ochdi. Mana shu eshiklar ochilgani uchun ul azizlar so‘z so‘zlamay menga xitob qilganlar. Bo‘lmasa, bizdan oldin ko‘p-ko‘p muridlar, pirlar Boyaziddan imdodu shafqat tilagan edilar. Boyazid barcha eranlar orasida mardroq kishini istadi, chunki bizni istadi, ammo bizdan hech narsa tilamadi. Men ul kecha tushimda bu hikmatni eshitgach, hech narsani o‘ylamadim, zero men sendan nima ham istar edim, nima ham tilardim? Seni qaerdan izlash va mardligingni sinash xayolimda ham yo‘q edi. Sen nimaiki buyursang - mening istagim shu.

Mening ishim farmonni bajarish bilan bitadi. Men uchun Efilik yoki to‘g‘rilik degan tushuncha ham vojib emas, axir men kimmanki, mening biror istak-xohishim bo‘lsin! Banda uchun farmonga itoat qilishning o‘zi kifoya, bandaning Allohvandi bilan so‘zi jon ichradir. Yolg‘ondan bandalik lofini uradigan kishi banda emas. Banda har doim

imtihonga tayyor turishi lozim, imtihon belgisi — ishorasi ko‘rinsa, o‘zining fidoyiligini ish bilan isbotlasin.

*SHAYX ABULHASAN XARAQONIYNING JON BERISH PAYTIDA AYTGANLARI*

Shayx Xaraqoniy joni chiqar paytida bunday dedi:

— Koshki mening jonimni teshsalar edi, biryon dilimni ochsalar edi. Shunda dilimni olam ahliga ko‘rsatib, mushkullarimni sharhlab berardilar. Toki olam ahli bilsinlarkim, sirlarni bilguvchiga nisbatan butparastlik to‘g‘ri kelmaydi. Uni yolg‘on so‘zlar bilan addab yurish mumkin emas. Bandalik — bu sadoqat va rostliqdir, qolgani quruq havas, xolos.

Bandalik — aftodalikdir, shuni bilib ol. Agar sen manmanlik, hisob-kitob, g‘irromlik qilishga kirishsang, bu bandalik emas, balki sharmandalikdir. Sen Allohlik qilma, bandalik qil, agar bandalik qilmasang Alloh hukmiga taslimda emassan. Bandalik o‘zlikdan voz kechish demak, sen o‘zingdan kech, Allohga dilu jon bilan banda bo‘l, banda bo‘lsang - tirikdirsan. Bunda bo‘lib xizmatni ado et. Unga yetishish uchun hurmat qozonib, himmat bilan yo‘lga chiq. Ka’ba (Haram) hurmatu ehtiromi yo‘q kishiga haromdir. Alloh hurmatiga erishganlar uning ne‘matiga ham erishadilar.

*BIR PODSHONING QULGA TO‘N BAG‘ISHLAGANI HIKOYATI*

Podshoh qullaridan biriga to‘n kiygizdi. Qul to‘nni kiyib, podshoh bilan birga yo‘lga tushdi. Yo‘lning changi qul yuziga qo‘ndi. Qul podshoh bergan to‘n yengi bilan yuzidagi changni artidi. Shunda biroʻv shohga dedi: «Ey podshohim, sen bergan to‘n bilan yo‘l changini tozaladi». Podsho bu behurmatlikni ko‘rib, qulni o‘zidan uzoqlashtirdi va boshqalar uning behurmatligini bilsinlar, shoh oldida arzimasligini anglasinlar deb, ahvolini og‘irlashtirdi.

*YIGIRMA TO‘QQIZINCHI MAQOLA*

*BOSHQA BIR QUSH SAVOLI*

Boshqa bir qush dedi:

— Ey pok fikrli Hudhud. Alloh yo‘lida pokbozlik qanday bo‘ladi? Men bandamga e‘tibor bermayman, chunki ichimda bor narsalar doimiy ravishda tashqariga chiqib turadi. Qo‘limga tushgan narsa darhol yo‘qoladi. Chunki mening qo‘limga tushgan narsa xuddi chayonga aylanganday, meni chaqib olayotganday bo‘ladi. Shu bois men uni tashlab yuboraman. Men o‘zimni hech narsa bilan bog‘liq qilib qo‘ymayman va hamma narsani o‘zimdanda uzoqlashtiraman.

Ya'ni hech narsa mening qo'limda turmaydi. Uning ko'yida pokbozlik qilaman, toki poklikda Haqning pok yuzini ko'rsam deb umid qilaman.

#### *HUDHUDNING UNGA JAVOBI*

Rahnamo Hudhud qushga qarab dedi:

— Albatta agar kishida pok e'tiqod bo'lsa, poklanib Uning yo'liga kirish yetarlidir. Kimki barcha pok narsalarini Alloh yo'liga sarflasa, o'z pokligida osuda va xotirjam bo'ladi. Lekin shuning o'zi yetarli emas. Sen hamma narsadan voz kechishga tayyor tur. Tikilganlarni yyrt va yirtilganlarni tikma, nimaiki bisoting bo'lsa, barini yondirib tashla. Hammasini o'tli ohang bilan kuydirib, keyin kulini jamlab ustiga o'tir. Agar shunday qilsang, hammasidan qutulasan. Bo'lmasa qon yutasan, chunki hamma bilan bog'liqсан - borsan. Har bir narsada bir-bir o'lmas ekansan, bu yo'lga qadam qo'yolmaysan. Bu zindon (dunyo)da ko'p o'tirolmaysan, shu uchun ham nimaiki bo'lea, undan o'zingni tort. Negaki ajal kelganda sening narsalaringning har biri qon to'kuvchi qonxo'r dushmaningta aylanadi. Avval o'zingdan qo'llaringni qisqa qil, shundan keyin turib yo'lga chog'lan. Agar avvalda haqiqiy poklik niyati bo'lmasa, bu safarga chiqishing durust emas.

#### *TURKISTON PIRINING HIKOYATI*

Turkiston piri gap-so'z olib dedi:

— Men ikki narsani hammadan yaxshi ko'raman: biri chopqir otim bo'lsa, ikkinchisi aziz farzandimdir. O'g'lim lashkar safida dushmanga qarshi jang qilmoqda. Agar shu aziz farzandim o'limini eshitsam, otimni hamma lashkarchilarga bag'ishlayman, toki o'g'lim o'rnida jang qilsin. Voqean, aziz ko'ringan shu ikki narsa mening jonim ko'ziga but kabi ko'rinadi. Har ikkalasidan voz kechmaguncha Yagona Iloh yodi kalbda abadiy o'rnashmaydi.

Toki sham' kabi yonib ado bo'lmasang, odamlar oldida pok ishkdan so'z ochma. Kimki pok Parvardigor ishqidan gapiradigan bo'lsa, o'z shaxsiy ishi, dunyoviy muhabbatini barbod etsin. Shahvat bilan non yeydigan, ammo pokbozman deydigan kishi, oqibatda xoru zor bo'lg'usi.

#### *SHAYX XARAQONIYNING BODINJON YEGANI HIKOYATI*

Arsh ayvoni bo'lgan Shayx Xaraqoniy bir umr bodinjon yeyish ilinjida yurardi. Onasiga yolvorib, ko'z yoshi qilgandan keyin, unga yarimta bodinjon berdi. Shayx yarimta bodinjon-ni yeb tugatgach, shu zahoti farzandining boshini kesdilar. Kech kirganda bir kishi o'shal aziz farzand boshini Shayx ostonasiga keltirib qo'ydi. Shayx dedi: «Men

bechora sizlarga ming marta aytgan emasdim: bu gado agar yarim bodinjon yesa, evaziga joniga qaqshatg'ich zarba yetadi. Jonim har zamon ana shunday o'rtanadi. U bilan ishim axir oson emas. O'z ishi bilan ovora bo'ladigan odam, o'z yori bila bir dam hamdam bo'lolmay qoladi.

Bizning boshimizga og'ir ish tushgan, bu jangu murosadan ham og'ir. Hech bir dona o'zga donalardan alohida emas, barcha odamlar boshiga tushgan vazifa - ish uning boshiga tushgan va beqaror etgandir.

Har zamonda bir dard mehmoni va har lahzada bir imtihon karvoni yetib keladi. Agarchi jonda yuz g'am bo'lsa-da, biroq buning ustiga yana g'am paydo bo'lishi muqarrar.

Yo'qlik dunyosidan borliq dunyosiga kelgan har bir odam alamlar ichra qon yutib o'tadi. Ming-minglab oshiqdari jonini Unga bag'ishlash uchun qon kechib keladilar. Barcha jonlar Uning yo'lida xoru zor bo'lsa qaniydi?»

#### *ZUNNUN MISRIYNING YAMOQ MURAQQA' KIYGAN QIRQ DARVESHNI KO'RGANI*

Shayx Zunnun dedi:

— Biyobonda yolg'iz Allohga tavakkul qilib ketayotgandim, yo'lda bir joyda jon bergan qirqta muraqqa' kiygan erlarni ko'rib qoldim. Bu holni ko'rib hayajondan es-hushimni yo'qotdim, butun vujudim olovda yonayotganday o'rtanardim. Oxir dedim: «Ey Alloh, bu qanday ish, ishq yo'lida jonbozlik qilgan azizlarni buncha yakson etasan?»

Sado keldikim:

— Bu ishdan ogohmiz. O'zimiz o'ldiramiz va O'zimiz tovonni — qon pulini to'laymiz.

Dedimki:

— Axir bunday zorlikda qurbon bo'lishlar qachongacha?

Dedi:

— Diyatim — tovonim bor ekan, ish shunday davom etaveradi. Xazinada tovon haqi qolguncha o'ldiraman, toki ta'ziyatlar qolsin. O'ldiraman va keyin qoniga belab, olam atrofini aylantirib chiqaman. Butun vujudi, qo'l-oyoq-jamiki a'zolari yo'qolgach, keyin quyoshday yuzumni ko'rsatib, o'z jamolimdan libos kiydiraman. Oshiqning to'kilgan qonini yuzining qizilligi — hushbaxtligiga nishona qilaman va bu yuzni o'zi istagan ko'y (ko'cha)ga yuzlantiraman.

O'z ko'yimda soyamga aylantiraman, keyin yuzimning quyoshidan unga nur sochaman. Mening yuzimning oftobi chiqqach, ko'y-ko'chadagi soya qoladimi? Soya Oftob shu'lasida nobud bo'lgandan keyin, barchasi maqsadiga yetib baxtiyor bo'ladi, vallohu a'lam bis-savob».

Kimki Haqda mahv bo‘lsa, o‘zligidan ham, o‘zidan ham qutuladi. Chunki xudparast bo‘laturib, Haqqa yaqin bo‘lish mumkin emas. Mahv bo‘l, ammo bu haqqa ko‘p gapirma, jonni hech bir g‘arazsiz sarfla, boshqa narsa qidirma. Oshiqqa ayt: o‘zidan kechib, yo‘qbo‘lsin — men bundan boshqa ulug‘ davlatni bilmayman.

#### *FIR’AVN SEHRGARLARINING SAODAT DAVLATINI TOPGANI*

Fir‘avn sehrgarlari topgan davlatni dunyoda boshqa hech kim topmagan. Ularning topgan davlati imon edi. Ul damda ularni jonlaridan judo qildilar, bunday saodat davlatini hech kim ko‘rgan emas. Shu lahzada ular din sari bir qadam olg‘a qo‘ydilar, boshqa narsalardan voz kehdilar. Hech kim bunday ajoyib kirim-chiqimni qo‘rmadi, ya’ni dinda omadli bo‘lib, imonga to‘siqbo‘lgan jam‘i narsalarni xarj qildilar. Dunyoda hech bir daraxt bunday shirin va qimmatli meva bermadi.\*

#### O‘TTIZINCHI MAQOLA

#### *BOSHQA QUSHNING HIMMATBALANDLIK HAQIDAGI HIKOYATI*

Boshqa bir qush dedi:

— Ey sohibnazar, tariqatda himmat-ning ahamiyati katta. Agarchi men shaklu shamoyilda juda ojiz bo‘lib ko‘rinsam ham, ammo sharofatli himmatim bor. Ko‘p toat-ibodat qilolmayman, lekin Allohga muhabbatda oliy himmatdirman.

#### *HUDHUDNING JAVOBI*

Hudhud dedi:

— Mag‘notis — ohanrabo-alastu asrori bo‘lganiday, olihimmat har narsaning kashfiga kalitdir. Kimdagi olihimmat paydo bo‘lsa, nimaiki izlasa, u darhol hozir bo‘ladi. Ikki dunyo mulkining kaliti — mantig‘i himmatdir, jahon qushlarining qanotlari ham himmatdir.

#### *BIR KAMPIRNING HAZRAT YUSUFGA XARIDOR BO‘LGANI HIKOYATI*

Dedi:

— Yusufni bozorga sotish uchun olib chiqqanlarida, Misr aholisi uning husnini ko‘rib, shavqida yonardilar. Xaridorlari atrofiga yig‘iddilar, bir nechtasi Yusuf vazni barobarida mushk bermoqchi bo‘ldilar.

Bir kampir Yusuf ishqida dili o‘rtanardi. U bir qancha ip yigirib kalava qilgan edi.

Xaridorlar to‘dasiga dadil kirib kelib, ovoz ko‘tarib dedi:

— Ey Kan’oniy qulni sotuvchi savdogar, bu go‘zal o‘g‘lon orzusida halovatim ham,

toqatim ham qolmadi. O‘n kalava ipim bor. Shuni olgin-da, Yusufni menga sot, uning qo‘lini qo‘limga tutqaz.

Savdogar kulib dedi:

— Ey kekxa ona, senda bu bebaho gavharni sotib olishga mablag‘ yo‘q. Bu «mol»ning qiymati yuz xazina bilan baholanadi. Sen kimu, iplaring nimaga arzir edi?!

Kampir dedi:

— Shuni yaxshi bidtsimki, bu o‘g‘lonni sotib olishga mening molim kamlik qiladi. Ammo do‘stu dushman barchasi ko‘rdilar: men uning xaridorlari qatoridaman. Menga shuning o‘zi bas.

Olihimmat egasi bo‘lmagan dil tuganmas davlatga erishmagay. Himmatning nishonasi shu ediki, oliy qadr podshoh podshohlikka o‘t qo‘yib, podshohlikni pastlik, falokat manbai deb bildi va yuz ming xazinaga teng mol-mulk, toju taxtini arzimas deb hisoblab, undan butkul voz kechdi va darvesh xirqasini kiydi. Poklik sari uning himmati jo‘sh urdi, natijada najas mulkdan bezor bo‘ldi. Himmat ko‘zi quyoshni ko‘radigan bo‘lsa, u zarra bilan birga o‘tirmaydi.

## BIR DARVESHNING IBROHIM ADHAM QOSHIDA FAQIRLIKDAN SHIKOYAT QILGANI

Bir darvesh o‘zining kambag‘al, benavolidan shikoyat qilib yurardi. Ibrohim Adham unga qarab dedi:

— Ey o‘g‘il, faqrni juda arzon qo‘lga kiritgansan, shekilli?

Darvesh dedi:

— Bu so‘zni behuda aytayapsan. Kishi darveshlik (kambag‘allik)ni ham sotib oladimi, uyalmaisanmi shunday deyishga?

Ibrohim Adham dedi:

— Men bir necha marta jon evaziga sotib olgan emasman va butun olam mulkini taklif qilganlarida ham bermaganman. Hozir ham yuz olamni berib hech ikkilanmay faqrni olaman, chunki mening nazarimda hanuz ham faqrning qimmati ortib bormoqda. Chunki men bu boylikni qimmatga sotib olganman. Ya‘ni butun bir podshohlik bilan vidolashib, bunga erishganman. Shu bois buning qadrini sen emas, men bilaman va buning uchun hamisha shukr qilaman.

Himmat ahli jon va tanni bag‘ishladilar, yillar davomida o‘rtanib-o‘rtanib ruhlari poklanib bordi. Himmatlilarning qushi hasratu iztirob bilan do‘stlashdi, ular shu yo‘lda



dunyovu dindan ham kechdilar. Sen agar ana shunday himmat sohibi bo‘lmasang, o‘zingni bu yo‘ldan uzoq tut va Oliy Ne‘matga yetishga umid bog‘lama.

*SHAYX AHMAD G‘O‘RIY BILAN SULTON SANJAR HIKOYASI*

Komillikda yuksaklikni qozongan Shayx G‘o‘riy devona darveshlar bilan ko‘prik ostiga tushib yashay boshladi. Bir kun sulton Sanjar lashkaru a‘yonlari bilan savlat to‘kib ko‘prikdan o‘tdi. Ko‘prik ostidagi odamlarni ko‘rib, yonidagilardan:

— Bu qavm kim? - deb so‘radi. Shayx G‘o‘riy buni eshitib, daf‘atan javob berdi:

— Biz o‘zini unutganlarmiz, Alloh yo‘lida zikr aytishdan tinmaymiz. Holimizni ikki savol izohlashi mumkin: agar sen bizning do‘stimiz bo‘lsang, biz seni tezda dunyo muhabbatini butkul unutishingga ko‘makla-shamiz. Agar bizga do‘st emas, dushman bo‘lsang, biz seni darhol diningdan chiqaramiz. Agar otdan tushib, bir nafas ko‘prik ostiga bizning oldimizga kelsang, bu tumtaroq dunyoviy shavkatu savlat, hoyu havaslardan qutulasan. Kelgin, bizning nima bilan do‘stligimizni ham, nima bilan dushmanligimizni ko‘rgin. Oyog‘ingni biz tomon qo‘ysang, devonalik va rasvolik, ya‘ni chin haqqparastlik olamini ko‘rasan.

Sanjar dedi:

— Men sizning toifangizdan emasman, sizga nisbatan muhabbatim ham, nafratim ham yo‘q. Sizga do‘st ham, dushman ham emasman. Xayr, ketdim, o‘z ishimdan qolmayin. Sizlar bilan faxrlanmayman, lekin sizlardan or ham qilmayman. Sizlarning yaxshiyomonligingiz bilan ishim yo‘q.

Himmat tez uchar qushga o‘xshaydi. U o‘z parvozida har damda yana tezroq harakat qiladi. Uning parvozi ko‘zga ko‘rinmaydi va xilqatlar ichida sezilmaydi ham. Uning sayru parvozi borliq olamidan balandroq - u hushyorlik va mastlik holatlaridan ham yuqoriroqdir.

*DEVONANING OLAM HAQIDAGI SO‘ZI*

Bir devona yarim kechada yig‘lab o‘z-o‘ziga so‘zlardi:

— Bu olamning nimaligini aytaymi? U bir sandiqcha bo‘lib, biz shu quticha ichidamiz. O‘z nodonligimiz, jaholatimiz bilan uning ichida ming savdo pishiramiz, yelib-yuguramiz, g‘am chekamiz, oldi-berdi qilamiz. Agar ajal ul huqqa — qutichani yopganda, kimningkim qanoti bo‘lsa, uchib ketadi va azaliyatga yetadi. Kimdakim qanot bo‘lmasa, quticha ichida yuz baloga giriftor bo‘lib qolib ketadi. Himmat qushiga ma‘nodan (ilohiy ruhdan) qanot bog‘la, aqlga dil bag‘ishla, jonni hol martabasiga olib chiq. Ushbu qutining qopqog‘ini yopgunlaridan oddin tariqat yo‘liga kir va mustahkam qanot chiqargin. Keyin qanotlarni ham, o‘zligingni ham kuydirib tashla, shunda hammadan qutulib, eng oldin Mutlaqiyat huzurida bo‘lasan\*.

*BOYO‘G‘LI VA QUYOSH HIKOYATI*

Ajoyib gapni eshiting-a! Boyo‘g‘li dermishki:

— Ey bexabar, men bu quyosh bilan oyni na qilay? Tutilganda qorayadigan, botganida qorong‘i bo‘ladigan, yuzi sarg‘aygan, motam kiyimini kiygan, doimo porlab turmaydygan, darbadar kezadigan oftobning keragi yo‘q. Uning o‘zi boshqalardan ko‘ra haqqa tashnaroq, shafaqpaytida esa qonga belangan qonxo‘r kabidir. Agar shunaqa oftobni ko‘rmas ekanman, mayli ko‘rmayin, zarari yo‘q. Chunki boshqa oftob bor.

Ey inson, sen bir kecha uxlamay, bedor bo‘l, shunda tun kechada sen haqiqiy quyoshni ravshan ko‘rasan. Ey g‘ofil kishi, mening kunduzim tun kabidir, ammo Alloh nurini porlatuv-chi oftobim shundadir. Tunda ul oftob yuz ko‘rguzganda, olam xalqini uxlatib qo‘yadi. Ko‘kdagi oftob ul oftob ziyosining aksidan uyalib yuzini berkitadi, sharmandalikdan u qochib ketadi, kecha-kunduz degan tushunchalar yarim tun kelib barobar bo‘lib qoladi. Ammo kimki menday mahram bo‘lsa, uning oftobi qop-qorong‘i tundadir. Agar ana shunday Quyosh tunda senga nasib etilsa, agar ko‘r bo‘lsang ham uxlashing mushkuldir. Butun tun davomida men uxlamay chiqaman, ul Quyoshning atrofida yonib-o‘rtanib parvonaday uchib aylanaman. Majoziy quyosh yuz ko‘rsatganda, biz boyo‘g‘lilar zulmat og‘ushida qolamiz.

Agar Iloh oftobi tunlarda nur taratar ekan, yo‘lga kirganlar zulmatda uxlamaydilar. Agar qarchig‘aylar kabi himmating baland bo‘lsa, o‘tiradigan joying sultonning qo‘li bo‘ladi. Agar past himmatlikda pashsha kabi bo‘lsang, xuddi pashsha kabi behurmat, bee’tibor bo‘lasan. Voqean, agar pashshaday nuqsoning bo‘lsa, boru yo‘g‘ing noma’lum, nobuddirsan. Kimki himmat egasi bo‘lsa — mard erur. Quyosh kabi ko‘kda yagona bo‘lur. Agar gavhar kabi olihimmatsan, shoh tojida joying belgilidir. Agar har qanday arzimas narsaga qarab pastlashaversang, shoh qo‘lidan jom olib icholmaysan.